

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

TILLAR KAFEDRASI



LOTIN TILI VA FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA ASOSLARI MODULI

FARMATSIYA FAKULTETI TALABALARI UCHUN

Bilim sohasi: 500 000 – Sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot.
100 000 - Gumanitar soha

Ta`lim sohasi: 510 000 – Sog`liqni saqlash.
110 000 – Pedagogika

Ta`lim yo`nalishi: 5111000 – Professional ta`lim (Farmatsevtika ishi)



Toshkent - 2020

“LOTIN TILI VA FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA ASOSLARI”



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG`LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMASEVTIKA INSTITUTI

TILLAR KAFEDRASI

**LOTIN TILI VA FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA
ASOSLARI MODULI**

O`QUV – USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 500 000 – Sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot.
100 000 - Gumanitar soha

Ta`lim sohasi: 510 000 – Sog`liqni saqlash.
110 000 – Pedagogika

Ta`lim yo`nalishi: 5111000 – Professional ta`lim (Farmatsevtika ishi)

Toshkent -2020

Mazkur o`quv – uslubiy majmua O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash vazirligining 2020 yil “___” _____dagi ___ son buyrug`i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Suyundikov N.S. – Tillar kafedrası katta o`qituvchisi

Xudoyqulova D.Q. – Tillar kafedrası katta o`qituvchisi

Matyusupova Sh.B. –Tillar kafedrası katta o`qituvchisi

Kenjaeva N. D. – Tillar kafedrası o`qituvchisi

Taqrizchi:

A.E. Abdullaeva - ToshFarmI “Tillar” kafedrası katta o`qituvchisi.

M.N. Isroilova - Toshkent Davlat Stomatologiya instituti Anatomiya va lotin tili, tibbiy terminologiya kafedrası dotsenti.

Fanning o`quv – uslubiy majmuasi Tillar soha uslubiy kengashining 2020 yil _____dagi - sonli yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi _____ psix.f.n. S.M.Tuychieva

Fanning o`quv – uslubiy institute Markaziy uslubiy kengashining 2020 yil _____dagi - sonli yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Markaziy uslubiy kengash raisi _____ Z. A. Yuldashev

Fanning o`quv – uslubiy majmuasi institut Kengashining 2020 yil “___” _____ № ___ – son yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Kengash ilmiy kotibi _____ V. R. Xaydarov

MUNDARIJA

FANNING O`QUV MATERIALLARI	-
MUSTAQIL TA`LIM MAVZULARI	-
GLOSSARIY	-
ILOVALAR:	
– FANNING O`QUV DASTURI	-
– FANNING ISHCHI DASTURI	-
– TARQATMA MATERIALLAR	-
– TESTLAR	-
– ADABIYOTLAR RO`YHATI	-
– O`UM NING ELEKTRON VARIANTI	-

**Farmatsiya fakul`tetini 1 – kurs talabalari uchun 2020– 2021- o`quv yiliga
“Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari” modulining yilnoma rejasi
(1-semestr)**

t/r	Amaliy mashg`ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-semestr		
1	Farmatsevtik terminologiya: Lotin tili alifbosi. Unli harflar.”Y” harfining qo`llanilishi. Diftonglar. Undosh harflar	2
2	Harf birikmalari va qo‘sh undoshlarning o‘qilishi. Digraflar.	2
3	So`zlarning bo`g`inlarga bo`linishi.Urg`u	2
4	Morfologiya. So`z turkumlari. Fe'l. Fe'llarning buyruq mayli	2
5	Ot. Otlarning Grammatik kategoriyalari. I turlanishdagi otlar	2
6	Aniqlovchi. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar. Moslashmagan aniqlivchili terminlarni tarjima qilish. Yunon tilidan kirib kelgan birinchi turlanishga kirivchi otlarning turlanishi. Predlog va boqlovchilar.	2
7	Retsept. Retseptning tuzilishi. Aniqlik va majhullik nisbatlari.	2
8	II turlanishdagi otlar. Mujskoy va rod jenskiy roddagi otlar.	2
9	II turlanishdagi sredniy roddagi otlar	2
10	Yunon – lotin termin (atama) elementlari.	2
11	Dorivor preparatlarning nomlanishi. Fe'lning shart mayli. Fiat (fiant) fe'llarining retseptlarda qo`llanilishi.	2
12	Dorivor vositalarning nomenklaturasi	2

13	Dorivor prepratlariga trivial nomlarni berish qoidalari	2
14	V tipik guruh. Dorivor vositalarning savdo nomlari	2
15	Murakkab dorivor preparatlarning nomlanishi	2
16	Sifat. I - II turlanishdagi sifatlarni I-II turlanishdagi otlar bilan moslashuvi	2
17	Dorivor preparatlarni ko`p bo`lakli nomlarida sifatlarni qo`llanilishi.	2
18	Farmatsevtik terminlar, tez-tez takrorlanadigan bo`laklar, va retseptlarni tarjima qilish	2
19	Botanik nomenklaturada sifatlarning ishlatilishi	2
20	Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomida sifatlarning ishlatilishi	2
21	Majhullik nisbatidagi o`tgan zamon sifatdoshi	2
22	VI tipik guruh. Kimyoviy nomenklatura. Kimyoviy elementlar, kislotalar va oksidlarning lotincha nomlari	2
23	Tuzlar nomi.	2
24	III turlanishdagi otlar. Undosh tip. Undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar bilan moslashuvi	2
25	III turlanishdagi otlar. Undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar bilan moslashuvi	2
26	III turlanishdagi otlar. Undosh tipdagi sredniy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi sredniy roddagi otlar bilan moslashuvi	2

27	Aralash tipdagi otlar	2
28	Unli tipdagi otlar. I -II turlanishdagi sifatning III turlanishdagi unli tipdagi otlar bilan moslashuvi.Yunon - lotin termin elementlari	2
29	III turlanishdagi sifatlar	2
30	Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi.Murakkab retsept tarkibiga kiruvchi moddalar	2
31	Farmatsevtik termin va retseptlarni tarjima qilish	2
32	IV va V turlanishdagi otlar	2
33	Retseptlarda so‘zlarni qisqartirish	2
34	Farmatsevtik termin va retseptlarni tarjima qilish	8
35	Sifat darajalari. Qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlar	2
36	Son. Sanoq va tartib sonlar	2
	Jami:	72

1-AMALIY MASHG'ULOT:

Fonetika Lotin tili alifbosi. Unli harflar. “y” harfining qo‘llanilishi.
Diftonglar. Undosh harflar

Bosma harflar	Nomi	O‘zbekcha muqobili	Bosma harflar	Nomi	O‘zbekcha muqobili
A a	a	a	N n	en	n
B b	be	b	O o	o	o
C c	se	s yoki k	P p	pe	p
D d	de	d	Q q	ku	u bilan birga [kv]
E e	e	e	R r	er	r
F f	ef	f	S s	es	s
G g	ge	g	T t	te	t
H h	g`e	o`zbekcha g` yoki h	U u	u	u
I i	i	i	V v	ve	v
J j	yot	y	X x	iks	ks
K k	ka	k	Y y	ipsilon	i
L l	el	l	Z z	zeta	z yoki s
M m	em	m			

2- §. Unli harflar

Lotin tilida 6 ta unli harf bor.

A a unli harfi [a] deb talaffuz qilinadi:

amarus [amarus] - achchiq
ana [ana] - teng miqdorda

E e unli harfi [e] deb talaffuz qilinadi:

gemma [gemma] - kurtak




gelatina [gelatina] - jelatin

O o unli harfi [o] deb talaffuz qilinadi:

A α	альфа	N ν	ню
B β	бета	Ξ ξ	кси
Γ γ	гамма	Ο ο	омикрон
Δ δ	дельта	Π π	пи
E ε	эпсилон	Ρ ρ	ро
Z ζ	дзета	Σ σ	сигма
Η η	эта	Τ τ	тау
Θ θ	тета	Υ υ	ипсилон
I ι	йота	Φ φ	фи
K κ	каппа	X χ	хи
Λ λ	лямбда	Ψ ψ	пси
M μ	мю	Ω ω	омега



odor [odor] - hid, is



os [os]-suyak

I i unli harfi [i] deb talaffuz qilinadi:

internus [internus] - ichki



infans [infans]-bola, go‘dak

U u unli harfi [u] deb talaffuz qilinadi:

unus [unus] - bir



utilis [utilis] - ishlatishga yaroqli

Y y unli harfi [i] deb talaffuz qilinadi:



Amygdalus [amigdalus]- bodom



polyvitamina [polivitamina] - polivitamin.

3-§. «y» harfining qoʻllanilishi

«y» harfi yunon tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlarda old qoʻshimcha, oʻzak va qoʻshimcha sifatida uchrashi mumkin. Shuning uchun quyidagi old qoʻshimcha, oʻzak va qoʻshimchalarni esda saqlash kerak¹.

hyper - yuqori, koʻproq; **hypertonia** - qon bosimining koʻtarilishi

hypo - past, kamroq; **hypotonia** - qon bosimining pasayishi



oxy - taxir; **Oxygenium** - kislород



¹ L.X.Bazarova, N.S. Suyundikov, X.X. Xolmatov. "Латинский язык". Tashkent. 2010 yil. 11-13b.

hydr - suv; **Hydrogenium** – vodorod



pyr - issiqlik; **Antipyrinum** – antipirin



poly - ko‘p; **polyvitamina** – polivitamin



glyc - shirin; **Glycerinum**-glitserin



myc- qo‘ziqorin; **Biomycinum** – biomitsin.

4-§. Diftonglar

Ikkita turli unli harflarning bir bo‘g‘in yoki bir harf sifatida talaffuz etilishiga diftong deyiladi. Diftonglar har doim cho‘ziq bo‘ladi².

Lotin tilida 4 ta diftong bor:

«**au**» diftongi [au] deb o‘qiladi.

Masalan: auris [auris] – quloq

auscultare [auskultare] - eshitmoq

«**eu**» diftongi [eu] deb o‘qiladi.

Masalan: Eucommia [eukommia]-
evkommiya

Eucalyptus [eukaliptus] - evkalipt

«**ae**» diftongi [e] deb o‘qiladi.

Masalan: aeger [eger] - bemor, kasal

Crataegus [krategus] - do‘lana

«**oe**» diftongi [e] deb o‘qiladi.

Masalan: Foeniculum [fenikulum] - ukrop, fenxel

oedema [edema] - shish



² PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7. 6- bet.

Agar **ae** va **oe** diftonglarida **e** harfining ustiga ikki nuqta qo'yilgan bo'lsa, u holda har bir harf o'zining alohida tovushini ifoda etadi.



oë [oe] – Aloë [aloe]- aloy, sabur

aë [ae] - aër [aer]- havo.

5-§. Undosh harflar

Bb – harfi [b] deb talaffuz qilinadi: basis – asos, negiz.

Cc – harfi ikki tovush [s] va [k]ni ifoda etadi. Agar **s** harfi **ae,oe** diftonglari, **e, i, y** unli harflari oldida tursa [s] deb o'qiladi.

Masalan cito [sito] - tez



cera [sera]-mum



cyclus [siklus]-sikl



coeruleus [seruleus] - ko‘k

Agar **c** harfi **a, o, u** unilari va undosh harflar oldida yoki so‘z oxirida tursa [k] deb o‘qiladi.


Masalan: creta [kreta] - bo‘r
carbo [karbo] - ko‘mir



cucurbita [kukurbita] – oshqovoq



lac [lyak] – sut



Dd – harfi [d] deb talaffuz qilinadi: da - ber.
Ff – harfi [f] deb talaffuz qilinadi: folium - barg.
Gg – harfi [g] deb talaffuz qilinadi: glandula- bez.
Hh - harfi o‘zbekcha [g‘] harfi singari talaffuz qilinadi.

Masalan:

homo [g‘omo] - odam, kishi.

Jj - harfi **a, o, e, u** unli harflari bilan birgalikda quyidagicha o‘qiladi:



jo [yo] - jocus [yokus] – hazil

herba [g‘erba] - o‘t, yer ustki qism




ja [ya] - janua [yanua] - eshik



ju [yu]- juniperus [yuniperus] – archa





je [ye] - jecur [yekur]- jigar.

Yunon tilida *j* harfi bo‘lmaganligi sababli yunonchadan o‘tgan so‘zlarda *j* harfi o‘rniga *I, i* harfi yoziladi:




Iodum [iodum] – yod.

Shuning uchun *iod-* o‘zakli murakkab so‘zlar *I* harfi bilan yoziladi. ”yod” so‘zining xalqaro kimyoviy belgisi *I*.


Iodolipolum [iodolipolyum] – yodolipol

Iodoformium [iodoformium] –yodoform.

K k - harfi [k] tovushini beradi, lekin bu harf tibbiy lotin tilida kam qo‘lla- niladi:



Kalium [kalium] - kaliy



Keratinum [keratinum] - keratin.

Ll - harfi yumshoq talaffuz qilinadi:



mel [mel] - asal



lac [lyak]- sut.

Mm – harfi [m] deb talaffuz qilinadi: magister - o‘qituvchi.

Nn – harfi [n] deb talaffuz qilinadi: niger - qora.

Pp – harfi [p] deb talaffuz qilinadi: Piper - qalampir.

Rr – harfi [r] deb talaffuz qilinadi: ruber - qizil.

S s - harfi ikki tovushni [z] va [s]ni ifodalaydi. Agar **s** harfi ikki unli harf o'rtasida yoki har qanday bir unli bilan **m** yoki **n** harflari o'rtasida kelsa [z] deb, boshqa hollarda [s] deb o'qiladi.

Masalan:



dosis [dozis]-doza




Rosa [roza] - na'matak
mensis [menzis] - oy



reumatismus [reumatizmus]-revmatizm



Solanum [solanum]-ituzum



Tt – harfi [t] deb talaffuz qilinadi: tuber [tuber - tunganak.

Vv – harfi [v] deb talaffuz qilinadi: vitrum – kichkina shisha ididsh.

X x - harfi [ks] tovushini beradi:



pix [piks] - smola, qatron



faex [feks] - xamirturush.

Z z -harfi yunonchadan o‘zlashtirilgan so‘zlarda uchraydi va [z] deb talaffuz qilinadi:



rhizoma [rizoma] - ildizpoya



Glycyrrhiza [glitsiriza] - qizilmiya, shirinmiya.
Lekin **zincum** soʻzida z harfi [s] deb oʻqiladi:



Zincum [sinkum] - rux.

Mashqlar

1. Diftonglarning oʻqilishiga eʼtibor berib soʻzlarni oʻqing.

Aërosolum, auctor, anaemia, oedema, praescribo, Foeniculum, aurum, graecus, saepe, oestrogenus, faex, auris, praeparatum, Crataegus, Eucommia, foetidus, Synoestrolum, aeger, aër.

2. Undosh harflarning oʻqilishiga eʼtibor berib soʻzlarni oʻqing va oʻqilish qoidasini tushuntiring.

Decoctum, acidum, capsula, Glucosum, scatula, briketum, semen, junius, hypnoticus, jam, Ledum, herbaceus, dystonia, hydricus, insolubilis, amurensis.

3. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va c harfining oʻqilishini tushuntiring. Tinctura, fructus, succus, cella, cera, galenicus, bacca, calor, cito, locus, Capsicum, acidum, officina, coeruleus, Cortisonum, bacillus, medicinalis, medicamentum, caecum.

4. Soʻzlarni oʻqing va s harfining oʻqilishini tushuntiring.

Spissus, species, destillatus, dens, statim, morbus, elasticus, dystonia, latus, emulsum, internus, amarus, dysenteria, semen, massa, resina, reumatismus, gargarisma, dosis, spiritus, Cortisonum, Vaselinum.

5. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va ularning transkripsiyasini yozing.

Hypermanganas, Streptomycinum, anhydricus, Glycosidum, Amidopyrinum, oxydum, Perhydrolum, hyperaemia, hypothermia, mycosis, antipyreticus, Hydrargyrum, peroxydum.

2-AMALIY MASHG'ULOT: Harf birikmalari va qo'sh undoshlarning o'qilishi. Digraflar

6-§. Harf birikmalari va qo'sh undoshlarning o'qilishi

qu - harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [kv] deb o'qiladi:



aqua [akva]- suv




Quercus [kverkus] - dub, eman

ngu - harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [ngv] deb o'qiladi:



unguentum [ungventum] – surtma



lingua [lingva] - til

su - harf birikmasi **a,e** unli harflari oldidan kelganda [sv] deb o‘qiladi:



suasor [svazor]-maslahatchi

Qolgan hollarda esa [su] deb o‘qiladi:

suillus [suillus] - cho‘chqa - i (-si)

ti - harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [si] deb o‘qiladi:




solutio [solutio] – eritma



injectio [inyeksio] - in'yeksiya

ti - harf birikmasi **x, s** undosh harflaridan keyin kelsa [ti] deb o‘qiladi:

mixtio [mikstio]- aralashma



combustio [kombustio] - kuyish

sch - harf birikmasi [sx] deb o‘qiladi:



Schizandra [sxizandra]- limonnik.

Lekin lotin tiliga boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarda bu harf birikmasi [sh] deb o‘qiladi:

Schostakovsky [shostakovskiy] - Shostakovskiy.

7-§. Digraflar

Digraf deb ikkita undosh harf birikmasining bitta tovush singari talaffuz etilishiga aytiladi³.

³ *L.X.Bozorova, N.S.Suyundikov, X.X.Xolmatov.*, “Lotin tili”. “Fan” nashriyoti. Toshkent. 2005

M.N. Chernyavkiy. “Латинский язык и основы фармацевтической терминологии.”, “Meditsina “. Moskva. 2015. 394 c.


Lenka Ritickova, Pavel Brauner., “Professional Latin for Pharmacists.” BRNO. 2014. 145 p. ISBN 978-80-7305-736-7

Lotin tilida 4 ta digraf bor. Har bir digrafda **h** harfi mavjud.

ch - digrafi [x] deb talaffuz qilinadi:



Chininum [xininum] - xinin



charta [xarta] – qog‘oz

ph - digrafi [f] deb talaffuz qilinadi:



pharmacologia [farmakologia] - farmakologiya



Morphinum [morfinum] - morfin

rh - digrafi [r] deb talaffuz qilinadi:

Rhamnus [ramnus] - tog'jumrut



rhizoma [rizoma] - ildizpoya

th - digrafi [t] deb talaffuz qilinadi:

Mentha [menta] – yalpiz





Thermopsis [termopsis]- termopsis.

Eslab qoling!

1. [f] tovushini lotincha soʻzlarda *f* harfi, yunonchadan oʻtgan soʻzlarda *ph* digrafi, [t] tovushini lotincha soʻzlarda *t* harfi, yunonchadan oʻtgan soʻzlarda *th* digrafi, [r] tovushini lotincha soʻzlarda *r* harfi, yunonchadan oʻtgan soʻzlarda *rh* digrafi ifodalaydi.
2. Kimyoviy preparatlar nomlarida qoʻllaniladigan yunoncha soʻz yasaydigan qoʻshimchalarning yozilishini eslab qoling⁴:

-meth- (*methylium*) - *metil*

-aeth- (*aethylum*) - *etil*

-phen- (*phenylium*) - *fenil*

-thi (*theion*) - *oltingugurt*

-chlo(r)- (*chlorum*) – *xlor*.

Mashqlar

1. Soʻzlarni oʻqing va oʻqilish qoidalarini tushuntiring.

Charta, Arachis, Rheum, Quercus, aether, diphthericus, lingua, solutio, camphora, Glycyrrhiza, haemostaticus, Norsulfazolum, praecipitatus, cochlear, Chamomilla, Equisetum, Mentha, aqua, axungia, extractum, scatula, mel, unguentum.

2. Soʻzlarni oʻqing va ularning transkripsiyasini yozing.

Althaea, Chlortetracyclinum, therapia, Synoestrolum, rhizoma, Phosphorus, majalis, Terebinthina, Helianthus, coquo, frictio, Ephedra, Schizandra, Kalanchoë, saccharum, Zea mays, Ichthyolum, charta, Thea, rheum, Juglans, Soluthizonum.

3. C harfi [s] tovushini ifodalovchi soʻzlarni topib yozing.

Carbo, cytologia, cito, Cucurbita, calor, Citrus, bacca, baccae, decoctum, cera.

⁴ L.X.Bozorova, N.S.Suyundikov, X.X.Xolmatov., "Lotin tili". "Fan" nashriyoti. Toshkent. 2005


M.N. Chernyavkiy. "Латинский язык и основы фармацевтической терминологии.", "Meditsina ". Moskva. 2015. 394 c.

4. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va s harfining [z] tovushidek oʻqilishini tushuntiring.

Anisum, dosis, usus, Vaselinum, narcosis, mensura, gargarisma, suasor, plasma.

5. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va ularning transkripsiyasini yozing.

Hypermanganas, Streptomycinum, antipyreticus, anhydricus, hypothermia, Perhydrolum, Glycosidum, Amidopyrinum, injectio, decoctum, oxydum, hyperaemia, aquosus, mycosis, medicina, Hydrargyrum, Althaea, Belladonna, Mentholum, peroxydum.



3-AMALIY MASHG`ULOT: So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi. Bo‘g‘inlarning cho‘ziqlik va qisqalik qoidalari. Urg‘u

8-§. So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi

Lotin tilida o‘zbek tilidagidek so‘zlar bo‘g‘inlarga bo‘linadi. So‘zda qancha unli harf bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi.

Masalan: Cu-cur-bi-ta;

Cha-mo-mil-la.



Tovushlar cho‘ziq va qisqa talaffuz qilinadi. Tovushning cho‘ziqligi harf ustiga to‘g‘ri chiziqcha, qisqaligi esa yarim oy shaklidagi belgi qo‘yib belgilanadi: **ā ạ̄, ō ọ̄ ē ẹ̄.**

Tovush va bo‘g‘inlarni uzun yoki qisqaligini to‘g‘ri aniqlay bilish urg‘uni (') qo‘yish uchun kerak.

Cho‘ziq unli tovushli bo‘g‘in - cho‘ziq bo‘g‘in, qisqa unli tovushli bo‘g‘in - qisqa bo‘g‘in hisoblanadi.

9-§. Bo‘g‘inlarning cho‘ziqlik va qisqalik qoidalari; **Cho‘ziqlik qoidasi**

1. Agar bo‘g‘inda diftong bo‘lsa, o‘sha bo‘g‘in doimo cho‘ziq bo‘ladi:



Crataegus

2. Agar unli harf ikki yoki undan ortiq undosh harflar oldida kelsa, shu bo‘g‘in cho‘ziq o‘qiladi:

tabulētta



3. **x** yoki **z** undosh harflari oldida kelgan unli tovush cho‘ziq o‘qiladi:

Glycyrrhīza



4. **in, ur, at, ar, ut, os, al** qo‘shimchali bo‘g‘inlar cho‘ziq o‘qiladi:
vitamīnum, tinctūra, nitrātis, gelatinōsis.

Qisqalik qoidasi

1. Unli harf oldidan unli harf kelsa, bu bo‘g‘in qisqa o‘qiladi:

Injectiō



2. Digraflar oldida kelgan unli harf qisqa o'qiladi:

Arāchis




3. **ol, ul, ib, id, il** harf birikmalari bo'lgan bo'g'in qisqa o'qiladi:

fluīdus, pilūla, solubīlis



4. **b, p, d, t** harflari **r** yoki **l** harflari bilan birikib kelganda bu harf birikmalaridan oldin turgan unli harf qisqa o'qiladi:

Ephēdra, vertebra



5. **h** harfi oldida kelgan unli qisqa talaffuz qilinadi:


extrāho.

10-§. Urg‘u

Lotin tilida urg‘u so‘zning oxiridan ikkinchi bo‘g‘ini cho‘ziq bo‘lsa, o‘sha bo‘g‘inning unli tovushiga tushadi. Agar so‘zning ikkinchi bo‘g‘ini qisqa bo‘lsa, urg‘u so‘zning oxiridan uchinchi bo‘g‘indagi unli tovushga tushadi.



ex – trác-tum



ver - tēb - ra

co - la - tú - ra

pí - lū - la.

Ikki bo‘g‘inli so‘zlarda urg‘u hamisha so‘zning ikkinchi bo‘g‘iniga tushadi.

cí-to.

Mashqlar

1. So‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ling va urg‘u qo‘ying.


Emplastrum, cella, barium, mixtio, oleum, Tormentilla, folium, saccharum, Oxycoccus, ampulla, bacterium, intravenosus, solutio, scatula, Foeniculum,

pharmacopoea, milligramma, tinctura, Potentilla, spiritus, Convallaria, extraho, gargarisma, linimentum, decoctum, acidum, medicina, bulbus.

2. Quyidagi soʻzlarni urgʻu qoidasiga rioya qilib oʻqing.

Suppositorium, magister, Ephedra, sirupus, butyrum, Eucommia, Betula, aqua, Frangula, globulus, Oryza, Althaea, injectio, Penicillinum, amyllum, vitaminum, Belladonna, unguentum, tabuletta, aquosus, signatura.

3. Urgʻu qoidasiga binoan quyidagi jadvalni toʻldiring.



11-§. So‘z turkumlari

So‘zlarning ma‘no va grammatik jihatdan o‘hshashliklariga ko‘ra ayrim leksik-grammatik turlarga bo‘linishi natijasida hosil bo‘lgan guruhlariga so‘z turkumi deyiladi.

Lotin farmatsevtika atamashunosligida (terminologiyasida) quyidagi so‘z turkumlari ishlatiladi⁵:

1. **substantivum** – ot
2. **adjectivum** –sifat
3. **pronomen** – olmosh
4. **numerales** – son
5. **verbum** – fe‘l
6. **adverbium** – ravish
7. **praepositio** – old qo‘shimcha (ko‘makchi)
8. **conjunctio** – bog‘lovchi
9. **interiectio** – undov
10. **particula** – yuklama

12-§. Fe‘l

Predmetning ish - harakatini ifodalovchi so‘z turkumiga fe‘l deb ataladi. Lotin tilida fe‘l o‘zbek tilidagidek shaxs-son, zamon va mayl bilan tuslanadi.

Lotin tilida fe‘llar to‘rtta turda tuslanadi. Noaniq shaklda:

I tuslanishdagi fe‘llar - **āre** qo‘shimchasiga ega:
dāre – bermoq


⁵ PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7



II tuslanishdagi fe'llar cho'ziq **-ēre** qo'shimchasiga ega:
miscēre - aralashtirmoq



III tuslanishdagi fe'llar qisqa **-ēre** qo'shimchasiga ega:
solvēre - eritmoq



IV tuslanishdagi fe'llar **-īre** qo'shimchasiga ega:
audīre - eshitmoq.



Lotin tilida fe'llarning ikkita nisbati bor⁶:

genus activum – aniqlik nisbati

genus passivum – majhullik nisbati.

Lotin tilida fe'llar ikkita songa ega:

numerus singularis – birlik son

numerus pluralis – ko'plik son.



Mashq

1. Quyidagi fe'llarni tuslanishiga ko'ra guruhlarga ajratib yozing.

Addēre, audīre, miscēre, curāre, extendēre, colāre, finīre, formāre, recipēre, dāre, continēre, vertēre, servāre.

⁶ PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7. 64-69 bet

13-§. Fe'ning lug'at shakli

Lug'atda fe'l hozirgi zamon I shaxsda *-o* qo'shimchasi bilan to'liq yoziladi. Keyin fe'l noaniq shaklining oxirgi uchta harfi yoziladi va fe'ning tuslanishi raqam bilan ko'rsatiladi.

Masalan: signo, āre - I tuslanish
misceo, ēre – II tuslanish
divido, ěre – III tuslanish
audio, ĩre – IV tuslanish

Tuslanish	Hozirgi zamon I shaxs	Fe'ning noaniq shakli
I	signo	signare
II	misceo	miscere
III	recipio	recipere
IV	audio	audire

14-§. Fe'l negizi

Fe'llarning negizini aniqlash uchun I, II, IV tuslanishdagi fe'llarning noaniq shaklidan *-re* qo'shimchasini, III tuslanishdagi fe'llarning noaniq shaklidan *-ěre* qo'shimchasini olib tashlash kerak.

Tuslanish	Fe'ning noaniq shakli	Fe'l negizi
I	dare	da
II	miscere	misce
III	recipere	recip
IV	audire	audi

Mashq

2. Fe'llarning negizini aniqlang.

extendĕre, finire, addĕre, miscĕre, sterilisare, recipĕre, studĕre, formare, linire, filtrare.



Namuna:

Fe'l	Tuslanish	Negizi
colare	I	cola

15-§. Buyruq mayli

Buyruq mayli *buyurish*, *so'rash* kabi ma'nolarni ifodalab, odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. I, II, IV tuslanishdagi fe'llarning buyruq mayli birlikda fe'l negizidan iborat; III tuslanishdagi fe'lning buyruq maylini hosil qilish uchun fe'l negiziga **-e** harfi qo'shiladi.

Tuslanish	Fe'ling noaniq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli birlik son
I	dare	da	Da-бep!
II	miscere	misc	Misce-аралаштир!
III	solvere	solv	Solve – эрит!
IV	audire	audi	Audi – эшит!

Buyruq mayli ko'plik sonini hosil qilish uchun I,II,IV tuslanishdagi fe'llarning fe'l negiziga **-te** qo'shimchasini, III tuslanishdagi fe'llar negiziga **-ite** qo'shimchasini qo'shish kerak.

Turlanish	Fe'ning noaniq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli ko`plik soni
I	dare	da	Date- bering!
II	miscere	misc	Miscete-aralashiring!
III	solvere	solv	Solvite – eriting!
IV	audire	audi	Audite- eshiting!

Mashq

3. Quyidagi fe'llarning buyruq maylini hosil qiling.

Destillare, miscere, extendere, finire, formare, recipere, addere, signare.

Namuna:

Fe'l	Tuslanish	Negiz	Buyruq mayli	
			birlik	ko'plik
dare	I	da	da	date

16-§. Quyidagi fe'llarni yod oling!

I tuslanish

dare - bermoq

depurare - tozalamoq

filtrare - suzmoq, tinitmoq

sterilisare - sterilizatsiya qilmoq

colare - suzmoq

formare - tashkil etmoq

destillare - distillyatsiya qilmoq

signare - belgilamoq

servare - saqlamoq

parare - tayyorlamoq

refrigerare – sovitmoq

conservare – saqlamoq

agitare – chayqatmoq

II-tuslanish

continere - saqlamoq, tutmoq

miscere - aralashtirmoq

adhibere - qabul qilmoq, ishlatmoq

valere - so‘g bo‘lmoq

salvere - so‘g bo‘lmoq

III-tuslanish

recipere - olmoq

extendere - surtmoq

addere - qo‘shmoq

solvere - eritmoq

vertere - aylantirmoq, buramoq, o‘girmoq

concidere - kesmoq, qirqmoq

coquere - qaynatmoq

ponere - solmoq, yetkazib qo‘ymoq

sumere - qabul qilmoq, dori ichmoq

repetere - takrorlamoq, qaytalamoq

dividere - bo‘lmoq, ajratmoq

contundere - tuymoq

extrahere - ajratib olmoq

vivere - yashamoq

infundere - quymoq

conspergere - sepmoq

IV-tuslanish

finire - tamomlamoq

linire - surtmoq

audire - eshitmoq

Mashqlar

Quyidagi zanjirda berilgan beshta fe`lni toping va ularni o`zbek tilidagi

tarjimasi yoniga yozing.

SIGNARE PETER EXTENDER EXTRAHERE FRIGERARE

takrorlamoq _____

ajratib olmoq _____

belgilamoq _____

surtmoq _____

sovitmoq _____

5. Quyidagi harflar orasida berilgan yigirmata fe'lni toping va o'zbek tiliga tarjima qiling.

C O L A R E P E T E R E
O A P O N E R E X Z Y F
Q R V E R T E R E O F I
U C O N C I D E R E I N
E X T E N D E R E N M I
R E F R I G E R A R E R
E X T R A H E R E O D E
P A S I G N A R E I S V
A D A R E S U M E R E I
R D E S T I L L A R E V
A E D I V I D E R E D E
R R M I S C E R E T X R
E E D E P U R A R E Q E

6. Quyidagi so'zlarning antonimlarini toping.

Dare, miscere, addere, extrahere, coquere.

5-AMALIY MASHG'ULOT: Ot. Otlarning grammatik kategoriyalari. I - turlanishdagi otlar

17-§. Ot

Predmet nomini bildirib, *kim?* yoki *nima?* savollariga javob beradigan soʻz turkumiga ot deyiladi.

Lotin tilida otlar uchta rodga ega:

GENUS MASCULINUM - MUJSKOY ROD

GENUS FEMININUM - JENSKIY ROD

GENUS NEUTRUM - SREDNIY ROD.

Lugʻatda otlar maxsus harflar bilan belgilanadi:

m - MUJSKOY ROD

f - JENSKIY ROD

n - SREDNIY ROD.



Lotin tilida otlar ikkita songa ega:

numerus singularis - birlik son

numerus pluralis - koʻplik son.

Lotin tilida otlar beshta kelishik bo'yicha turlanadi⁷:

Casus Nominativus - bosh kelishik - kim? nima?

Casus Genetivus - qaratqich kelishigi - kimning? nimaning?

Casus Dativus - jo'nalish kelishigi - kimga? nimaga?


Casus Accusativus - tushum kelishigi - kimni? nimani?

Casus Ablativus - chiqish kelishigi - kimdan? nimadan?

Otlar lotin tilida beshta turlanishga bo'linadi. Turlanish turi qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**)ning birlik sonidagi qo'shimchasi yordamida aniqlanadi. Turlanishlarning qaratqich kelishik birlik sonidagi qo'shimchalarini eslab qoling:

TURLANISH	Gen. Sing. qo'shimchalari
I	ae
II	i
III	is
IV	us
V	ei

Otlar turlanishlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:



Lug'atda otlar bosh kelishik, birlik sonda yoziladi, keyin qaratqich kelishigining birlik qo'shimchasi va rodi ko'rsatiladi:

⁷ L.X.Bazarova, N.S. Suyundikov, X.X. Xolmatov. "Латинский язык". Tashkent. 2010

gutta, ae, f – I turlanishdagi ot
globulus, i, m – II turlanishdagi ot
decoctum, i, n – II turlanishdagi ot
flos, is, m – III turlanishdagi ot
dosis, is, f – III turlanishdagi ot
usus, us, m – IV turlanishdagi ot
res, ei, f – V turlanishdagi ot.

Otlar kelishiklar bo'yicha turlanganda ot negiziga kelishik qo'shimchalari qo'shiladi. Otning negizini topish uchun qaratqich kelishik birlik soni shakli-dan kelishik qo'shimchasini olib tashlash kerak:

Turlanish	Nom. Sing.	Gen. Sing.	Negizi
I	gutta	guttae	gutt
II	sirupus	sirupi	sirup
III	liquor	liquoris	liquor
IV	fructus	fructus	fruct
V	species	speciei	speci

Eslab qoling!

Lotin farmatsevtika atamashunosligida dorivor o'simliklar va dori preparatlarining nomi bosh harf bilan yoziladi.

Valeriana, ae, f
 Analginum, i, n.



Mashqlar

1. Quyidagi otlarni o'qing va ularni rodini aniqlang.

Papaverinum, n; percolatio, f; hepar, n; fructus, m; Plantago, f; Cina, f; pulvis, m; gemma, f; atrium, n; nota, f; provisor, m; antidotum, n; apis, f; Triticum, n; planta, f; patria, f.

2. Quyidagi otlarning turlanishini va rodini ayting.

decoctum, i, n; charta, ae, f; species, ei, f; numerus, i, m; quercus, us, f; cera, ae, f; folium, i, n; carbo, is, m; cornu, us, n; stigma, is, n.



3. IV turlanishdagi otlarni toping.

- | | |
|--------------------|--------------------|
| 1) aqua, ae, f | 5) gelu, us, n |
| 2) spiritus, us, m | 6) vertebra, ae, f |
| 3) succus, us, m | 7) res, ei, f |
| 4) oleum, i, n | 8) fructus, us, m |

4. Jenskiy roddagi otlarni ko'rsating.

- | | |
|-------------|--------------|
| 1) Oryza, f | 4) sorbus, f |
| 2) os, n | 5) hortus, m |
| 3) manus, f | 6) Salep, n |



5. II turlanishidagi otlarni ko'rsating.

- | | |
|-------------------|------------------|
| 1) globulus, i, m | 4) morbus, i, m |
| 2) habitus, us, m | 5) exitus, us, m |
| 3) sirupus, i, m | 6) succus, i, m |

6. *II turlanishdagi sredniy roddagi otlarni ko`rsating.*


- | | |
|--------------------|-------------------|
| 1) Magnolia, ae, f | 5) decoctum, i, n |
| 2) Ferrum, i, n | 6) ampulla, ae, f |
| 3) aegrotus, i, m | 7) Secale, is, n |
| 4) cornu, us, n | 8) acidum, i, n |

7. *Quyidagi Genetivus Singularisda berilgan otlarni ko`chirib yozing, negizini toping va turlanishini ko`rsating.*

Guttae, dosis, infusi, usus, emplastri, decocti, officinae, carbonis, gustus, scabiei.

Namuna:

Gen. Sing.	Negizi	Turlanishi
plantae	plant	I



8. Quyidagi otlarni turlanishlari va rodlari bo'yicha ustunlarga yozing.

Belladonna, ae, f; Iodum, i, n; tussis, is, f; herba, ae, f; cutis, is, f; Urtica, ae, f; glacies, ei, f; Linum, i, n; , us, m; Oxycoccus, i, m; charta, ae, f; acus, us, f; remedium, i, n; diagnosis, is, f; acetum, i, n; dies, ei, f; hibes, is, n; species, ei, f.

Namuna:

Turlanishlari bo'yicha

I	II	III	IV	V
herba, ae, f	remedium, i, n	tussis, is, f	habitus, us, m	species, ei, f

Rodlari bo'yicha

mujskoy rod	jenskiy rod	sredniy rod
herba, ae, f	tussis, is, f	remedium, i, n

18-§. I turlanishdagi otlar

I turlanishdagi otlarga bosh kelishik (**Nominativus Singularis**) da *-a*, qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**) da *-ae* qo'shimchasiga ega bo'lgan jenskiy roddagi otlar kiradi.

I TURLANISHDAGI OTLARNING KELISHIK QO'SHIMCHALARI

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	a	ae
Gen.	ae	arum
Dat.	ae	is
Acc.	am	as
Abl.	a	is

TURLANISH NAMUNASI

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	herba	herbae
Gen.	herbae	herbarum
Dat.	herbae	herbis
Acc.	herbam	herbas
Abl.	herba	herbis

19-§. Quyidagi so‘zlarni yod oling!



tinctura, ae, f - настойка



mixtura, ae, f - mikstura



aqua, ae, f - suv



tabuletta, ae, f - tabletka



herba, ae, f - o‘t, yer ustki qismi

planta, ae, f - o‘simlik

cera, ae, f - mum




scatula, ae, f – quticha




pilula, ae, f - habdori



tela, ae, f - doka



gemma, ae, f – kurtak




massa, ae, f - massa




gutta, ae, f - tomchi



gelatina, ae, f - jelatin



glandula, ae, f - bez




materia, ae, f - modda



vita, ae, f - hayot



Valeriana, ae, f - valeriana



Betula, ae, f - qayin



Tilia, ae, f - jo'ka



Farfara, ae, f - oqqaldirmoq



Convallaria, ae, f - marvaridgul



Senna, ae, f - sano



Mentha, ae, f - yalpiz



Chamomilla, ae, f - moychechak



Belladonna, ae, f - belladonna



Urtica, ae, f - gazanda, chayono‘t



Calendula, ae, f - tirnoqgul



Mashqlar

9. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko`plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Suv, nastoyka, mum, o`t, kurtak, bez.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom.Plur.	Gen. Plur.
planta- o`simlik	I	f	plantae- o`simlikning	plantae- o`simliklar	plantarum- o`simliklar- ning


10. O`zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|----------------------------|-------------------------|
| 1. Date mixturam aegrotae. | 6. Colligite plantas. |
| 2. Praeparate tincturas. | 7. Depura ceram. |
| 3. Filtra tincturam. | 8. Formate pilulas. |
| 4. Exsiccate gemmas. | 9. Lavate ollas. |
| 5. Sterilise telam. | 10. Da guttas aegrotas. |

11. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Nastoyka tayyorla. 2. Tabletkani ber. 3. Miksturani ber. 4. Yer ustki qismini yig` va qurit. 5. Suvni distillyatsiya qil. 6. Miksturani suzib tindir. 7. Bintga surt. 8. Dokani sterilla.

12. "Ot" mavzusi bo`yicha berilgan klasterni davom ettiring.



6-AMALIY MASHG'ULOT: Aniqlovchi. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar. Moslashmagan aniqlovchili terminlarni tarjima qilish. Yunon tilidan kirib kelgan I turlanishga kiruvchi otlarning turlanishi. Predlog va bog'lovchilar

20-§. Aniqlovchi

Lotin tilida moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar qo'llaniladi. Moslashgan aniqlovchi sifat bilan ifodalanadi va aniqlanuvchi so'z bilan bir xil rod, son va kelishikda turadi. U «*qanday?*» «*qanaqa?*» degan savollarga javob beradi.

oq mum

Moslashmagan aniqlovchi qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalanadi va «*nimaning?*» degan savolga javob beradi.


valeriananing nastoykasi (valeriana nastoykasi)

Farmatsevtik terminologiyada terminlarning ikki asosiy turini ajratish mumkin:

- 1. moslashgan aniqlovchili termin;**
- 2. moslashmagan aniqlovchili termin.**

Terminlarning har bir turiga shartli tasvir tuzish mumkin:


- 1. Moslashgan aniqlovchili termin:**



Otni O, sifatni S deb belgilaymiz. terminning shartli tasviri quyidagicha bo'ladi:

O → S (Nom.)

- 2. Moslashmagan aniqlovchili termin:**




Mashq

1. Quyidagi terminlarning shartli tasvirini tuzib, ularning qanday aniqlovchili atama ekanligini aniqlang.

Yalpiz suvi, choʻktirilgan oltingugurt, qaytarilgan temir, jelatinli kapsula, isitmani tushiradigan mikstura, amidopirin tabletkasi, qayin kurtagi, moyli emulsiya, suvsiz lanolin, oqqaldirmoq barglari, novokain eritmasi, analgin tabletkasi.

21-§. Moslashmagan aniqlovchili terminlarni tarjima qilish

Termini tarjima qilish uchun avval uning shartli tasvirini tuzamiz.



Shartli tasvirga koʻra, birinchi ot «nastoyka»ni lotin tiliga tarjima qilganda bosh kelishikda, ikkinchi ot «valeriana»ni qaratqich kelishikda yozishimiz kerak.

Tarjima qilamiz:

Nom. tinctura Valerianae

Moslashmagan aniqlovchili termini kelishiklar boʻyicha turlaganda faqat aniqlanuvchi soʻz oʻzgarib, moslashmagan aniqlovchi esa oʻzgarmasdan qoladi.

Nom. tinctura Valerianae

Gen. tincturae Valerianae.

Quyidagi moslashmagan aniqlovchilar qaratqich kelishik koʻplik sonda ishlatiladi:

aqua **Amygdalarum** – bodom suvi



massa **pilularum** – habdori massasi



oleum **Olivarum** – zaytun moyi



oleum **Persicorum** – shaftoli moyi (II turlanish)

22 -§. Quyidagi so`zlarni yod oling!

bacca, ae, f - rezavor
meva, danaksiz meva





officina, ae, f - dorixona



ampulla, ae, f - ampula



lingua, ae, f - til



capsula, ae, f - kapsula




pasta, ae, f - pasta



spongia, ae, f -gubka

membranulla, ae, f-parda



charta ae, f - qog‘oz



substantia, ae, f - modda



Camphora, ae, f - kamfora



Althaea, ae, f - gulxayri

Rubia, ae, f - ro‘yan

Glycyrrhiza, ae, f - shirinmiya, qizilmiya

Liquiritia, ae, f - shirinmiya, qizilmiya



Aralia, ae, f -araliya

Sterculia, ae, f -sterkuliya

Salvia, ae, f -mavrak



Pl. 101.
Potentille Tormentille. Potentilla Tormentilla Scop.

Tormentilla, ae, f - g'ozpanja



Schizandra, ae, f - limonnik



Sophora, ae, f -tuxumak



Arnica, ae, f -arnika



Ephedra, ae, f -efedra, qizilcha



Gentiana, ae, f -gazako‘t, erbahosi



Eucommia, ae, f -evkommiya, xitoy guttapercha daraxti

Amygdala, ae, f - bodom

massa pilularum, massae pilularum - habdori massasi

23 -§. Yunon tilidan kirib kelgan I turlanishga kiruvchi otlarning turlanishi

I turlanishga kiruvchi soʻzlar ichida yunon tilidan oʻtgan ayrim soʻzlarni uchratish mumkin. Bu soʻzlar jenskiy rodga tegishli bolib, bosh kelishikda *-e*, qaratqich kelishigida *-es* qoʻshimchasiga ega boʻladi. Bu soʻzlarning faqat lugʻat shaklini eslab qolish kerak⁸.

Masalan: chole,es, f – oʻt, safro.

24 -§. Yunon tilidan kirib kelgan soʻzlarni yod oling!



Aloë,ës, f - aloy, sabur

Hippophaë,ës, f - chakonda



Kalanchoë,ës, f - kalanxoy
chole, es, f - oʻt, safro

⁸ *M.N. Chernyavkiy.* “Латинский язык и основы фармацевтической терминологии.”, “Meditsina“. Moskva. 2015. 394 c.

Mashqlar

2. Quyidagi terminlarning qanday aniqlovchili atama ekanini aniqlang va ularning shartli tasvirini tuzing.

Valeriana nastoykasi, achchiq nastoyka, gazako‘t nastoykasi, jelatinli kapsula, moyli emulsiya, suvsiz lanolin, navokain eritmasi, analgin tablet-kasi, zaytun moyi, sariq surtma.


2. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

3.

- 1) tirnoqgul nastoykasi
- 2) yalpiz suvi
- 3) qayin kurtaklari
- 4) marvaridgulning yer ustki qismi
- 5) arnica nastoykasi
- 6) bodom suvi
- 7) belladonna nastoykasi
- 8) habdori massasi




Namuna:



4. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Tinctura Valerianae, aqua Menthae, tinctura Convallariae, massae pilularum, tinctura Belladonnae, glandulae pilularum, tinctura Tormentillae, massa gelatinae, herba Ephedrae.



5. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va moslashmagan aniqlovchini ko'rsating.

1. Da aegrotae tincturam Valerianae.
2. Addite massam pilularum.
3. Infunde aquam Menthae.
4. Misce tincturam Belladonnae et tincturam Convallariae.
5. Concide herbam Menthae.



6. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Yalpizning suvidan ol.
2. Marvaridgulning yer ustki qismini qurit.
3. Limonnikning nastoykasidan ber.
4. Efedraning yer ustki qismini qirg.
5. Gazako'tning nastoykasini suz.

25-§. Predloglar

Ko'p tibbiy va farmatsevtika iboralari predloglar yordamida hosil qilinadi. Lotin tilida predloglar faqat ikki kelishik **Accusativus** va **Ablativus** bilan ishlatiladi. **Accusativus** da ishlatiladigan predloglar:

ad- uchun, gacha, -da, ga - **ad aegrotam** - bemorga

ad 100,0 – 100 gr gacha

contra - qarshi - **contra anginam** - anginaga qarshi

per - orqali - **per os** - ogʻiz orqali.

Ablativus da ishlatiladigan predloglar:

sine – siz - **sine aqua** - suvsiz

pro - uchun - **pro aqua** - suv uchun

ex - dan - **ex aqua** - suvdan

cum – bilan - **cum aqua** - suv bilan.

Accusativus va **Ablativus** da ishlatiladigan predloglar:

in - ga, - da - **in aquam** - suvga (Acc.)

in aqua - suvda (Abl.)

sub - ostiga, ostida - **sub linguam** - til ostiga (Acc.)

sub lingua - til ostida (Abl.).



26- §. Bogʻlovchilar

et – va – **tinctura et mixtura** – nastoyka va mikstura

aut – yoki – **Convallaria aut Valeriana** (ikki xil maʼnoni anglatuvchi soʻzlar oʻrtasiga qoʻyiladi) – marvaridgul yoki belladonna

seu – yoki – **Glycyrrhiza seu Liquiritia** (bir xil maʼnoni anglatuvchi yaʼni sinonim soʻzlar oʻrtasiga qoʻyiladi) – shirinmiya yoki qizilmiya

non – yoʻq, emas – **Non scholae, sed vitae discimus.** - Maktab uchun emas, hayot uchun oʻqiyamiz.

Mashqlar

7. Lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) qog'oz orqali
- 2) nastoykaga
- 3) jelatindan
- 4) rezavor mevalar bilan
- 5) mavrakdan
- 6) ro'yandan
- 7) arnika yoki araliya
- 8) tabletka va ampula
- 9) dorixonaga
- 10) yer ustki qismi bilan



8. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- 1) in capsulam
- 2) in capsula
- 3) sub chartam
- 4) sub charta
- 5) in officinam
- 6) in officina
- 7) sub scatulam
- 8) sub scatula
- 9) sub linguam
- 10) sub lingua
- a) til ostida
- b) kapsulada
- c) qog'oz ostida
- d) dorixonaga
- e) quticha ostiga
- f) kapsulaga
- g) dorixonada
- h) til ostiga
- i) quticha ostida
- j) qog'oz ostiga



9. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Tinctura Valerianae, tinctura Urticae, tinctura Schizandrae, herba Ephedrae, herba Menthae, tinctura Tormentillae, aqua Menthae, massa gelatinae, tinctura Belladonnae.

10. Nuqtalar o'rniga predloglardan mosini qo'yib gaplarni yozing va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Sumite tabulettam . . . horam.
2. Date pilulas . . . scatula.
3. Praeparate pilulas . . . massa pilularum.

4. Date ollam . . . gemmis Betulae.

5. Solve tabulettam . . . aqua.

11. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Miscete tincturam Valerianae cum tinctura Convallariae. 2. Praeparate capsulas ex gelatina. 3. Filtrate mixturam per chartam. 4. Date aegrotae ampullas cum camphora. 5. Colligite et exsiccate herbas ad officinam.

6. Ponite tabulettam in aquam. 7. Aralia aut Sterculia. 8. Glycyrrhiza seu Liquiritia.



27-§. Retsept. Retsept tuzilishi



Retsept - shifokorning dori tayyorlash kerakligi to'g'risida dorixonaga xat orqali murojaat qilishi.

Retsept so'zi «**receptum**» - «olingan» so'zidan kelib chiqqan.

Retsept rasmiy hujjat bo'lib, uni yozgan shifokor, shu bilan birga dorini tayyorlab bergan dorishunos ham retseptning to'g'riligi uchun yuridik jihatdan javobgardir.

Retseptlar yagona nusxali maxsus varaqalarda aniq va ravshan yozilgan bo'lishi lozim.

Retseptlardagi so'zlarni tuzatish yoki o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

Retsept quyidagi qismlardan iborat:

1. Davolash muassasasining manzili va telefon raqami.
2. «Bolalar uchun» yoki «Kattalar uchun» belgilari.
3. Retsept yozilgan kun, oy, yil.
4. Bemorning ismi, sharifi va yoshi.
5. Shifokorning ismi sharifi.
6. Kasallik tarixi №
7. Dorining nomi va miqdori.
8. Farmatsevtga ko'rsatma.
9. Dorini qabul qilish usuli.
10. Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri.



Retseptning lotincha qismi **Recipe** - ol (recipere - olmoq fe'lining buyruq shakli) so'zidan boshlanadi. **Recipe** - so'zidan keyin yozib berilayotgan dori tarkibiga kiradigan dori moddalarining nomi yoziladi. Har bir ingrediye'tning nomi qaratqich kelishikda yangi satrdan bosh harf bilan yoziladi.

Recipe: Tincturae Valerianae 10 ml
Tincturae Convallariae 15 ml

Agar ikki dori moddasining miqdori bir xil bo'lsa, unda ikkinchi dori nomidan keyin **ana** - teng miqdorda (qisqacha **āā**) so'zi yozilib, so'ngra dori miqdori ko'rsatiladi:

Recipe: Tincturae Convallariae

Tincturae Valerianae ana 10 ml

Grammlar va millilitrlar arab raqamlari bilan ko'rsatib yoziladi: 4,0; 0,5;0,01 va boshqalar.

Tomchilar miqdori rim raqamlari bilan ko'rsatiladi. **gtt. V** (guttas –tomchilar).

Dori moddalarining biologik ta'sir birligi qisqacha BT shaklida, soni esa arab raqamlari bilan yoziladi.

Retseptning lotincha qismi **Da-** ber, **Signa** - belgila so'zlari bilan tamomlanadi.

Retseptlar oddiy va murakkab bo'ladi. Bitta ingrediyeht yozilgan retsept oddiy bo'ladi. Ikkita va undan ortiq ingrediyehtlar yozilgan retseptlar murakkab hisoblanadi.

Dorini tezlik bilan tayyorlash lozim bo'lsa, retsept varaqasining yuqorisiga **cito** – *tezda*, yoki **statim** - *tez*, *darhol* so'zlari yoziladi. Bu so'zlarning tagiga chiziladi va undov belgisi qo'yiladi:

Cito!

Statim!

Dabolanish jarayoni uzoq davom etadigan bemorlarga dorini qayta olishi uchun shifokor tomonidan retsept varaqasining yuqori qismi o'ng tomoniga quyidagi so'zlar yoziladi:

Repete! – Takrorla!

Repete bis! – Ikki marta takrorla!

Repete ter! – Uch marta takrorla!

Dorini takror bermaslik uchun quyidagi so'zlar yoziladi:

Non repetatur! – Takrorlama!



RETSEPT QISMLARINI SHAKLLANTIRING⁹

Inscriptio (Code of Insurance Company, Serial Number)

Personalia aegroti (Surname and Name, Number of Policyholder, Address)

Invocatio (Rp., Gr.)

Praescriptio (Code)

Compositio (Kalii jodidi 1,0, Ephedrini hydrochloridi 0,2, Thymi sirupi comp. 20,0)

Subscriptio (Aquaе purif. ad 100,0, M.f. sol., D. ad lag.)

Signatura (D.S. three times per day one spoon)

Datum (Date)

Nomen et sigillum medici (Stamp of Medical Institution, Prepared by, Expanded by)

remedium cardinale

remedium adiuvars

remedium corrigens

remedium constituens

⁹ PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7.70-75B


28-§. Quyidagi soʻzlarni yod oling!



axungia, ae, f - yogʻ, moy



colla, ae, f – yelim



cella, ae, f - hujayra

cellula, ae, f - hujayracha

Terebinthina, ae, f - terpentin



Scopolia, ae, f - skopoliya



Frangula, ae, f - frangula




Polygala, ae, f - istod



Oliva, ae, f - zaytun



Cucurbita, ae, f - qovoq



Inula, ae, f - andiz



Sanguisorba, ae, f - sangvizorba



Rosa, ae, f - na'matak



Passiflora, ae, f – passiflora



Leuzea, ae, f – levzeyā



Bistorta, ae, f - ilonsimon toron



Armeniaca, ae, f - o'rik

29 -§. Quyidagi retsept iboralarini eslab qoling!

- Da in capsulis - Kapsula shaklida ber.
- Da in tabulettis - Tabletkal shaklida ber.
- Da in ampullis - Ampulada ber.
- Da in charta - Qog'ozda ber.
- Da in scatula - Qutichada ber.

30-§. Aniqlik va majhullik nisbatlari

Lotin farmatsevtika terminologiyasida aniqlik va majhullik nisbatidagi fe'llar hozirgi zamon III shaxsda qo'llaniladi.

Aniqlik nisbati III shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe'l negiziga **-t**, ko'plik sonini hosil qilish uchun esa **-nt** qo'shimchasini qo'shish lozim.

Majhullik nisbati III shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe'l negiziga **-tur**, ko'plik sonini hosil qilish uchun esa **-ntur** qo'shimchasini qo'shish lozim.

III shaxs	Activum	Passivum
Singularis	t	tur
Pluralis	nt	ntur

I tuslanish

Dare-bermoq (negizi -da)

Activum

III shaxs birlik

da-**t** – y berayapti

III shaxs ko‘plik

da-**nt** – ular berishayapti

Passivum

III shaxs birlik

da-**tur** – berilsin

III shaxs ko‘plik

da-**ntur**– berilsin

I tuslanish

Miscere - aralashtirmoq (negizi - misce)

Activum

III shaxs birlik

misce-**t** – u aralashtirayapti

III shaxs ko‘plik

misce-**nt** – ular aralashtirishayapti

Passivum

III shaxs birlik

misce-**tur** – aralashtirilsin

III shaxs ko‘plik

misce-**ntur** – aralashtirilsin



III tuslanish

Fe‘l negiziga birlik sonda **i**, ko‘plikda - **u** harflari qo‘shiladi.

solvere - eritmoq (negizi - solv)

Activum

III shaxs birlik

solvi-**t** – y eritayapti

III shaxs ko‘plik

solvu-**nt** – ular eritishayapti

Passivum

III shaxs birlik	solvi- tur – eritilsin
III shaxs ko‘plik	solvu- ntur – eritilsin

IV tuslanish

Ko‘plikda fe‘l negizi bilan qo‘shimchalarni birlashtiruvchi - i harfi qo‘shiladi.
audire - eshitmoq (negizi - audi)

Activum

III shaxs birlik	audi- t – y eshitayapti
III shaxs ko‘plik	audiu- nt –ular eshitishayapti

Passivum

III shaxs birlik	audi- tur – eshitilsin
III shaxs ko‘plik	audiu- ntur – eshitilsin.

31-§. Esse - *bor bo‘lmoq* fe‘li

Esse - *bor bo‘lmoq* yordamchi fe‘lining hozirgi zamon III shaxsda tuslanishi quyidagicha:

Birlik	Ko‘plik
est - u bor	sunt - ular borlar.



32-§. Gapda so‘zlarning tartibi

Lotin tilida gaplardagi so‘zlarning tartibi erkindir. Gaplarda birinchi o‘rinda ega, o‘rtasida to‘ldiruvchi, oxirida kesim keladi¹⁰.

¹⁰ PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7.70-75B

M.N. Chernyavkiy. “Латинский язык и основы фармацевтической терминологии.”, “Meditsina“. Moskva. 2015. 394 c.

Masalan: Aegrota tabulettam sumit.-
Bemor tabletka qabul qilayapti.



Mashqlar

1. Jadvaldan foydalanib, quyidagi fe'llarning hozirgi zamon shaklini hosil qiling.

belgilamoq, bo'lmoq, sterilizatsiya qilmoq, surtmoq, tamomlamoq, qabul qilmoq, suzmoq.

Namuna:

Fe'l	Ne-gi-zi	Aniqlik nisbati		Majhullik nisbati	
		III shaxs bir-lik	III shaxs ko'p-lik	III shaxs bir-lik	III shaxs ko'p-lik
parare	para	parat – u tayyorlayapti	parant – ular tayyorlashayapti	paratur – tay- yorlansin	parantur – tayyorlansin

2. O'zbek tiliga tarjima qiling. Aniqlik nisbatidagi fe'llarning tagiga bitta chiziq, majhullik nisbatidagi fe'llarning tagiga ikkita chiziq chizing.

1. Collam coquit. 2. Colla coquitur. 3. Pilulas conspergunt. 4. Pilulae consperguntur. 5. Massam gelatinae refrigerat. 6. Massa gelatinae refrigeratur. 7. Tincturam Valerianae sumit. 8. Tinctura Valerianae sumitur. 9. Gemmas Betulae servat. 10. Gemmae Betulae servantur. 11. Herbam Convallariae concidit. 12. Herba Convallariae conciditur.



3. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae Schizandrae 50 ml
Da.
Signa: Kuniga 2 marta 20-25 tomchidan ichilsin.
2. Recipe: Tincturae Araliae 50 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
3. Recipe: Tincturae Sterculiae 50 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
4. Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml
Da.
Signa: Kuniga 2-3 marta 15 tomchidan ichilsin.

4. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

- 1.Ol: Arnika nastoykasi 25 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
- 2.Ol: Marvaridgul nastoykasi 15 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
- 3.Ol: Qayin kurtagi
Ber.
Belgila: 1 osh qoshiq kurtak 1 stakan suvda damlan-
sin. Kuniga 3 marta 2 osh qoshiqdan ichilsin.
- 4.Ol: Belladonna nastoykasi 20 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.
- 5.Ol: Marvaridgul nastoykasi 10 ml
Valeriana nastoykasi 10 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.
6. Ol: Yalpiz suvi 200 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 5-10 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

8-AMALIY MASHG`ULOT: II turlanishdagi otlar. Mujskoy va jenskiy roddagi otlar

33-§. II turlanishdagi otlar

II turlanishdagi otlarga birlikdagi qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**) da - *i* qo‘shimchasiga ega bo‘lgan mujskoy va sredniy roddagi otlar kiradi. Bu otlar bosh kelishik birlik son (**Nominativus Singularis**)da mujskoy rodga kirsam *-us,- er*, sredniy rodga kirsam *-um* qo‘shimchasiga ega bo‘ladi.

Masalan: succus, i, m
puer, i, m
decoctum, i, n.



34-§. MUJSKOY RODDAGI OTLARNING KELISHIK QO‘SHIMCHALARI

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	us, er	i
Gen.	i	orum
Dat.	o	is
Acc.	um	os
Abl.	o	is

TURLANISH NAMUNASI

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	succus	succi
Gen.	succi	succorum
Dat.	succo	succis
Acc.	succum	succos
Abl.	succo	succis

-er bilan tamomlanadigan ko‘pchilik mujskoy roddagi otlarda turlanish vaqtida **-e** harfi, agar asosda bo‘lmasa, tushib qoladi. Agar asosda **-e** harfi bo‘lsa, kelishiklar bo‘yicha turlanganda u saqlanib qoladi.

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	puer	pueri
Gen.	pueri	puerorum
Dat.	puero	pueris
Acc.	puerum	pueros
Abl.	puero	pueris

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	magister	magistri
Gen.	magistri	magistorum
Dat.	magistro	magistris
Acc.	magistrum	magistros
Abl.	magistro	magistris

35-§. II turlanish jenskiy roddagi otlar

Istisno tariqasida II turlanishga jenskiy roddagi ba’zi bir otlar kiradi. Bular:

1. Daraxt va butalar nomi:

Eucalyptus, i,f .



2. Yunonchadan o‘tgan to‘rtta so‘z:

bolus, i,f; crystallus, i,f; methodus, i,f; periodus; i,f.



II turlanish jenskiy roddagi otlar kelishiklar bo‘yicha II turlanish mujskoy roddagi otlar singari turlanadi.

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	bolus	boli
Gen.	boli	bolorum
Dat.	bolo	bolis
Acc.	bolum	bolos
Abl.	bolo	bolis

36-§. Quyidagi so`zlarni yod oling!



sirupus, i, m - sharbat



medicus, i, m - vrach, shifokor



succus, i, m - shira



numerus, i, m – son



globulus, i, m - sharcha



stilus, i, m - qalam



bacillus, i, m – tayoqcha



fungus, i, m - qo‘ziqorin, zamburug‘



bolus, i, f - gil, tuproq



crystallus, i, f - kristal



Leonurus, i, m – arslonquyruq



Helianthus, i, m - kungaboqar



Strophanthus, i, m - strofant



Thymus, i, m - togʻjambil



Acorus calamus, i, m - oddiy igir



Rubus(i) idaeus, i, m - malina



Lagochilus, i, m - bozulbang, lagoxilus



Ricinus, i, m - kanakunjut



Eleutherococcus, i, m – eleuterokok




Hyoscyamus, i, m - mingdevona



Myrtillus, i, m - chernika



Pinus, i, f - qaragʻay



Eucalyptus, i, f - evkalipt



Juniperus, i, f - archa



Rhamnus, i, f - itjumrut



Alnus, i, f - qandag'och , olxa



Crataegus, i, f - do‘lana(daraxt)

Citrus, i, f - limon (daraxt)



Strychnos, i, f - kuchala(daraxt)
pro adultis - kattalar uchun

Mashqlar

1. Quyidagi otlarning rodini aniqlang.

- | | |
|---------------|---------------|
| 1) sirupus | 6) Rhamnus |
| 2) globulus | 7) Helianthus |
| 3) bolus | 8) stilus |
| 4) crystallus | 9) Crataegus |
| 5) Pinus | 10) Alnus |

2. Qo‘yidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Shira, son, ampula, kapsula, kristal, qalam.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
sirupus-sharbat	II	m	sirupi-sharbatning	sirupi-sharbatlar	siruporum-sharbatlarning

2. O'zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|------------------------------|----------------------------|
| 1) Nom. succus Kalanchoës | Gen. succi Kalanchoës |
| 2) Nom. tinctura Leonuri | Gen. tincturae Leonuri |
| 3) Nom sirupus Althaeae | Gen. sirupi Althaeae |
| 4) Nom.tinctura Strophanthi | Gen. tincturae Strophanthi |
| 5) Nom. sirupus Glycyrrhizae | Gen. sirupi Glycyrrhizae |
| 6) Nom. succus Aloës | Gen. succi Aloës |

3. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---------------------------------|-------------------------|
| 1) arslonquyruq yer ustki qismi | 5) malina sharbati |
| 2) gulxayri sharbati | 6) aloy shirasi |
| 3) chernika sharbati | 7) bozulbang nastoykasi |
| 4) tog'jambil yer ustki qismi | 8) evkalipt barglari |

O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Medicus tincturam Leonuri praescribit.
2. Praeparate sirupum ex succo Rubi idaei.
3. Date aegroto tincturam Strophanthi.
4. Sirupi coguuntur.
5. Addite in mixturam sirupum Rubi idaei.

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae Strychni 5 ml
Tincturae Convallariae 10 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2-3 marta 10 tomchidan ichilsin.
2. Recipe: Infusi herbae Leonuri 15,0: 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

- 1.Ol: Strofant nastoykasi 5 ml
Marvaridgul nastoykasi
Valeriana nastoykasi teng miqdorda 10 ml. dan
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 2-3 marta 20 tomchidan ichilsin.
- 2.Ol: Arslonquyruq nastoykasi 50 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 2 marta 30 tomchidan ichilsin.

37-§. II turlanish sredniy roddagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	um	a
Gen.	i	orum
Dat.	o	is
Acc.	um	a
Abl.	o	is

Sredniy rod otlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Accusativus Singularis = Nominativus Singularis = **um**.

2. Accusativus Pluralis = Nominativus Pluralis = **a**.

Bu qoida hamma beshta turlanishdagi sredniy rod otlariga tegishli.

TURLANISH NAMUNASI



Casus	Sing.	Plur.
Nom.	decoctum	decocta
Gen.	decocti	decoctorum
Dat.	decocto	decoctis
Acc.	decoctum	decocta
Abl.	decocto	decoctis

38- §. Quyidagi so'zlarni yod oling!

folium, i, n - barg

oleum, i, n - moy

extractum, i, n – ekstrakt

decoctum, i,n – qaynatma

infusum, i, n - damlama

unguentum, i, n - surtma

linimentum, i, n - suyuq surtma
 briketum, i, n - briket
 aërosolum, i, n - aërozol
 gelium, i, n - gel
 emulsum, i, n - emulsiya
 amyllum, i, n - kraxmal
 vaccinum, i, n - vaksina
 emplastrum, i, n - malham
 emplastrum ad clavos - qadoq malhami
 suppositorium, i, n - shamcha
 granulum, i, n - granula
 remedium, i, n - vrachlik vositasi
 saccharum, i, n - qand, shakar
 Rheum, i, n - ravoch
 Anisum, i, n - arpabodiyon, anis
 Absinthium, i, n – achchiq shuvoq, ermon
 Erysimum, i, n - jeltushnik
 Equisetum, i, n- qirqbo‘g‘im
 Linum, i, n - zig‘ir
 Centaurium, i, n - tillabosh
 Persicum, i, n - shaftoli
 Foeniculum, i, n - ukrop, fenxel
 Taraxacum, i, n - qoqi
 Capsicum, i, n - qalampir, garmdori
 Triticum, i, n - bug‘doy



Mashqlar

1. Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.

- | | |
|-----------------|-------------------|
| 1) foliorum | 6) extracta |
| 2) olea | 7) folium |
| 3) extractum | 8) unguenta |
| 4) unguenti | 9) olei |
| 5) suppositoria | 10) suppositorium |

2. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Sharbat, barg, moy, sharcha, qalam, ekstrakt, rezavor meva, tayoqcha.



Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
infusum-damlama	II	n	infusi-damlama-ning	infusa-damlama-lar	infusorum-damlama-larning

3. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Folium Belladonnae, folia Helianthi, oleum Amygdalarum, oleum Anisi, aërosolum «Cametonum», granula Amydopyrini, emulsum ex oleo, extractum Convallariae, extractum Strychni, tinctura Rhei, tinctura Erysimi, oleum Hippophaës.

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-------------------------|-------------------|
| 1) qayin bargi | 5) zaytun moyi |
| 2) mavrak barglari | 6) qand sharbati |
| 3) oqqaldirmoq barglari | 7) sano damlamasi |
| 4) gulxayri sharbati | 8) bodom moyi |

5. Quyidagi zanjirdan II turlanish sredniy roddagi otlarni toping va o`zbek tiliga tarjima qiling.

SIRUPUSTRYCHNOSTILUSACCHARUMYRTILLUSUCCUSERU-MEDICAMENTUMEDICUSTROPHANTHUS.

6. O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Globuli, bacilli, suppositoria oleum Cacao continent.
2. Herba Sennae, Convallariae, Erysimi, Leonuri in medicina adhibetur.
3. Colate decoctum foliorum Salviae per telam.
4. Concidite folia Menthae et praeparate infusum.
5. Forma pilulas numero 25.
6. Refrigerera et cola infusum foliorum Salviae.

7. Noto`g`ri tarjima qilingan terminlarni toping.

Oleum Ricini, infusum gemmorum Betulae, tincture Valerianae, globula et suppositoriae, tinctura Strychosi, sirupi Rubi idaei, tinctura Leonurae, oleum Anisi.

8. O`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Da aegotae decoctum gemmarum Pini.
2. Oleum Ricini in capsulis datur.
3. Oleum Terebinthinae ex Pino conficitur.
4. Praeparatum Cardioalenum extractum Crataegi continet.
5. Sirupus Glycyrrhizae, sirupus Sacchari, sirupus Citri in medicina adhibentur.
6. Pilula in officina praeparantur.

9. Retseptlarni o`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Extracti Aloës 1,0
Da in ampullis.
Signa: Teri ostiga 1 ml.dan yuborilsin.
2. Recipe: Emulsi olei Ricini 180,0
Sirupi sacchari ad 200,0
Misce. Da.
Signa: 2 osh qoshiqdan ich surguncha har soatda ichilsin.
3. Recipe: Infusi foliorum Urticae 15,0: 200 ml
Da.
Signa: 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin
4. Recipe: Decocti foliorum Farfarae 15,0: 200 ml
Da.



Signa: Har 3-4 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

10. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

- 1.Ol: Strofant nastoykasi 5 ml
Marvaridgul nastoykasi
Valeriana nastoykasi teng miqdorda 10 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: 20 tomchidan kuniga 2 - 3 marta ichilsin.
- 2.Ol: Arslonquyruq nastoykasi 50 ml
Ber.
Belgila: 30 tomchidan kuniga 2 marta ichilsin.
3. Ol: Kungaboqar moyi emulsiyasi 480,0
Kamfora 2,0
Qand sharbati 10,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Ol: Sano bargi damlamasi 10,0:150 ml
Ravoch sharbati 30 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Ertalab va kechqurun 1 osh qoshiqdan ichilsin.



39-§. Yunon -lotin termin (atama) elementlari

Farmatsevtika atamashunosligida yunon-lotin terminlari ko'p uchraydi. Atamashunoslikni o'rganish termin element (TE) deb nomlanuvchi alohida komponentlarning tahliliga asoslanadi. Har qanday so'z yasovchi element (o'zak, negiz, old qo'shimcha (prefiks), suffiks) termin element deyiladi. Termin elementlar muayyan ma'noga ega. Shuning uchun bir nechta termin elementlardan tuzilgan terminlarni tahlil qilishda asosiy ma'noni bildiruvchi termin elementlarga ilmiy jihatdan yondoshish zarurdir¹¹.

Masalan: dyspepsia (dys-yunoncha old qo'shimcha, faoliyatni buzilishini ko'rsatadi + pepsis – hazm qilish) – dispepsiya- ovqat hazm qilinishning buzilishi; colitis (kolon – yug'on ichak (yunoncha) + itis yunoncha suffiks bo'lib, yalig'lanish degan ma'noni bildiradi) – kolit - yug'on ichak shilliq pardasining yallig'lanishi.

Termin bir yoki bir necha so'z yasovchi elementlardan: old qo'shimcha + o'zak + suffiksdan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'pchilik yunon va lotin terminlari o'zbek tiliga tarjimasiz ko'chiriladi.

Masalan: infarctus, us, f – infarkt.

Ba'zi hollarda termin bilan birga uning tarjimasiz ham berilishi mumkin.

Masalan: transplantatio, onis, f – transplantatsiya, kuchirib o'tkasizh.

Termin elementlarni o'zlashtirish talabalarning so'z boyligini kengaytirib, tibbiyotga oid terminlarni bimalol tushunishlari uchun imkon beradi.

¹¹ Jusstina Nagy Jánossy, Zsuzsa Kiss, Mónika Krasznai and Gabriella Marschalkó., TEXTBOOK FOR STUDENTS OF PHARMACY., Department of Foreign Languages, University of Debrecen Medical and Health Science Center 2005

¹¹ PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7. 86-87b

40-§. Quyidagi yunon-lotin soʻz yasovchi old

Old qoʻshimchalar	Maʼnosi	Misollar
a- (unsizdan oldin); an- (unlidan oldin)	-siz, inkor etish	anhyricus – suvsiz anomalia –anomal, notoʻgʻri
anti -	qarshi, qarama-qarshi	antidotum – zaharga qarshi antipyretica – issiqni pasaytiruvchi
de-, des-	ajratib olish, yuqotish	desinfectio – zararli mikroblardan tozalash, decompensatio – kompensatsiyani buzilishi
dys-	faoliyatni buzilishi	dyspnoë – nafas qisishi, dyspepsia – ovgat hazm qilishning buzilishi
ecto-, exo-, extra-	sirtqi, tashqi	ectoderma – ectoderma exoplasma – protoplazmaning tashqi qavati, extrauterinus – bachadondan tashqari
endo-	ichki, ichidagi	endocardium – yurakning ichki pardasi
epi-	ustida, ustki qism	epidermis – teri ustki qavati
hyper-	yuqori, ustki, meʼyori-dan oshishi	hypertonia – gipertoniya, qon bosimining oshishi
hypo-	meʼyoridan kam	hypotonia – qon bosimining pasayishi
infra-	ost, ostki	infrascapularis – kurak osti
inter-	orasi, oʻrta, -aro	internationalis – xalqaro
intra-	ichki, ichidagi	intramuscularis – mushaklar ichidagi
re-	qayta tiklash	reanimatio – qayta tiriltirish
sub-	ost, ostki	sublingualis – til osti
-aesthes-	sezish, his qilish	anaesthesia – ogʻriqsizlantirish
-alg-, -algia	ogʻriq	neuralgia – nevrалgiya-asab kasalligi
-capnia	uglerod (II) oksidi miqdori	hypercapnia – qonda CO ₂ miqdorining oshishi
-auto	oʻz, xususiy	Autointoxicatio –organizmning unda hosil boʻlgan zaharli moddalardan zaharlanishi

41-§. Quyidagi o‘zak termin elementlarini eslab qoling!

1	2	3
-chol-	o‘t, safro	acholia – oshqozonga safroning tushmasligi yoki tushishining kamayishi
glyc- (glyk-)	glyukoza (shakar)	hypoglycaemia – gipoglikemiya-qonda shakar miqdorining kamayishi
haem(o)- haemat(o) -aemia	qon	haemoglobulinum –gemoglobulin; haematologia – gematologiya – qon va qon kasalliklari tog‘risidagi fan anaemia - kamqonlik
-kinesia	harakat	akinesia –faol harakatning yuqligi
lip(o)-	yog‘	lipogenesis – yog‘larni hosil bo‘lishi
-logia	fan, ta‘limot	oncologia – o‘smalarni o‘rganuvchi fan
-ox(ia)	kislorod	hypoxia – organizm to‘qimalarini yetarli darajada kislorod bilan ta‘minlanmaslik holati
path(o)-, -pathia	kasallik, iztirob	pathologia – kasalliklar haqidagi fan apathia – befarqlik holati
-penia	yetishmovchilik	leucopenia – leykotsitlar miqdorining kamayishi
-pnoë	nafas	apnoë – nafas olishning vaqtinchalik to‘xtashi
-scop-, -scopia	tekshirish	gastroscopia – me‘da bo‘shligini tekshirish
-therm-, -thermia	issiqlik	hypothermia – sovish
-tonia	bosim	hypertonia – bosimning oshishi
-trophia	oziqlanish	dystrophia – oziqlanishning buzilishi
-therapia	davolash	hormonotherapy – gormonlar bilan davolash, hydrotherapy – suv bilan davolash
ur(o)-,-uria	siydik	diureticus - siydik haydovchi disuria – siydik chiqishining qiyinlashuvi

Mashqlar

1. Berilgan termin elementlaridan atamalar yasang va ularning ma'nosini tushuntiring.

1. contra (tussim, anginam)
2. re (constructio, animatio)
3. (haemoto, physio, bio) logia
4. (hyper, dys, a) trophia
5. (hypo, hyper, dys) tonia

2. Berilgan terminlarni tarkibiy qismlarga ajrating va ma'nosini tushuntiring.

Phytotherapia(yunoncha phyton-o'simlik), desinfectio, anuria, hydrotherapia, gastropathia, reanimatio, anaesthesia, bronchosopia, atrophia, hypotrophia, myalgia, hypocapnia, urologia, haematologia, dysenteria.

3. Qo'yidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Barg, kristall, limon, qaynatma, pasta, damlama, modda.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
folium – barg	II	n	folii – bargning	folia- barglar	foliorum- barglarning

4. O'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) tabuletta Inulae
- 2) oleum Eucalypti
- 3) baccae Juniperi
- 4) infusum foliorum
- 5) folia Salviae
- 6) baccae Rubi idaei
- 7) herba Millefolii
- 8) folium Hyoscyami
- 9) linimentum Aloës
- 10) aërosolum «Camethonum»

5. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) limon moyi
- 2) evkalipt barglari
- 3) kungaboqar moyi
- 4) gazako't ekstrakti
- 5) chayono't barglarining damlamasi
- 6) qarag'ay kurtaklarining qaynatmasi

O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Da aegotae decoctum gemmarum Pini. 2. Oleum Ricini in capsulis datur.
3. Oleum Terebinthinae ex Pino conficitur.
4. Praeparatum Cardiovalenum extractum Crataegi continet.
5. Sirupus Glycyrrhizae, sirupus Sacchari, sirupus Citri in medicina adhibentur.
6. Pilula in officina praeparantur.

6. Noto‘g‘ri tarjima qilingan atamalarni toping.

Oleum Ricini, infusum gemmorum Betulae, tincture Valerianae, globula et suppositoriae, tinctura Strychosi, sirupi Rubi idaei, tinctura Leonurae, oleum Anisi.

8. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Infusi baccarum Juniperi ex 10,0: 200 ml
Da .
Signa: Kuniga 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Recipe: Decocti gemmarum Pini ex 10,0: 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Recipe: Infusi foliorum Eucalypti ex 10,0 :200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.



7. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Do‘lana nastoykasi 20 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 20-30 tomchidan ichilsin.
2. Ol: Evkalipt moyi
Arpabodiyon moyi teng miqdorda 10,0 dan
Aralashtir. Ber.
Belgila: Ingalyatsiya uchun.
3. Ol: Kuchala nastoykasi 5 ml
Limonnik nastoykasi 20ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 2 marta 20-25 tomchidan ichilsin.

11-AMALIY MASHG`ULOT: Dorivor preparatlar nomi. Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar. Fe'llarning shart mayli. " fiat, fiant " fe'lining retseptlarda qo'llanilishi

42-§. Dorivor preparatlar nomi

Dorivor preparatlarning nomi asosan II turlanish sredniy roddagi otlar bo'lib, ular **Nominativus Singularis** da **-um**, **Genetivus Singularis** da **-i** qo'shimchasiga ega.

Masalan: Dermatolum, i, n – dermatol

Analginum, i, n – analgin.

43-§. Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar

Ba'zan dorivor preparatlar nomida shu dorini yaratgan mualliflarning familiyasi uchrab turadi. Ayollar familiyasi I turlanish, erkaklar familiyasi II turlanish otlari singari turlanadi.

Masalan: liguor Burovi – Burov suyuqligi

tabulettae Carmanovae – Karmanova tabletkalari

Ba'zi familiyalar kelishiklar bo'yicha turlanmaydi.

Masalan: species Zdrenco – Zdrenko yig'masi

Balsamum Schostacovsky – Shostakovski balsami.

44-§. Quyidagi so'zlarni yod oling!

medicamentum, i, n - dori, dori darmon

venenum, i, n - zahar

antidotum, i, n - zaharga qarshi, ziddizahar

metallum, i, n - metal

vitrum, i, n - kichkina shisha idish

da in vitro - shisha idishda ber

talcum, i, n - talk

butyrum, i, n - moy

serum, i, n - zardob

vitaminum, i, n - vitamin

Chloroformium, i, n - xloroform

Xeroformium, i, n - kseroform

Iodoformium, i, n - yodoform

Glucosum, i, n - glukoza

Glycerinum, i, n - glitserin

cum Glycerino - glitserin bilan

Linteam, i, n - kanop, polotno



extende supra linteam - polotnoga surt

Paraffinum i, n - parafin

Vaselinum, i, n - vazelin

Butyrolum, i, n - butirol

Mentholum, i, n - mentol

Ichthyolum, i, n - ixtiol

Naphthalanum, i, n - naftalan

Artemisia(ae) absinthium(i) - ermon, achchiq shuvoq

Coriandrum, i, n- kashnich

Verbascum, i, n- sigirquyruq



ESLAB QOLING!

dragee (birlik), dragees (ko'prik)- draje (turlanmaydi)

Ginseng - jenshen (turlanmaydi)

Da tales doses Numero. - Shunday dozalarda ... (son)ta ber.



Mashqlar

1. *Quyidagi dorivor preparatlar nomini Nominativus Singularis va Genetivus Singularis da lotin tiliga tarjima qiling.*

Amidopirin, dermatol, novokain, kodein, fenobarbital, dibazol, rezerpin, etazol, kofein.

2. *Quyidagi otlarning rodini va kelishigini aniqlang.*

3.

1) succi

2) bolus

3) crystallorum

4) folia

5) tincturae

6) aquarum

7) glucosa

8) amylum

3. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

Pasta Lassari, liquor Kastelliani, solutio Lugoli, species Zdrenko, balsamum Schostacovsky, solutio Ringer-Locke, tinctura Petrovi, unguentum Koncovi, unguentum Wilkinsoni.

4. Quyidagi dorivor preparatlarning nomini Gen. Sing. da yozing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Tetracyclinum, Flaminum, Riboxinum, Phytinum, Iodum, Trypsinum, Dimoestrolum, Myelosanum, Olivomycinum, Piperazinum, Cytarabinum, Ergotaminum.

45-§. Fe’llarning shart mayli

Retseptlarda fe’llarning buyruq mayli bilan bir qatorda shart mayli ham keng qo‘llaniladi.

Retseptlarda shart mayli III shaxs birlik va ko‘plik sonlarida ishlatiladi.

Masalan: Detur - Berilsin! Berilgan bo‘lsin.

Repetatur - Takrorlansin! Takrorlangan bo‘lsin!

46-§. Quyidagi so‘z va so‘z iboralarini yod oling!

Misceatur - Aralashtirilsin! Aralashtirilgan bo‘lsin.

Signetur - Bildirilsin! Bildirilgan bo‘lsin.

Detur - Berilsin! Berilgan bo‘lsin.

Repetatur - Takrorlansin! Takrorlangan bo‘lsin!

Sterilisetur - Sterilizatsiya qilinsin! Sterilizatsiya qilingan bo‘lsin.

Dentur tales doses numero . - Shunday dozalardan... (son)ta berilsin!

Shunday dozalardan... (son)ta berilgan bo‘lsin.

quantum satis - keragicha.



47-§. “fiat, fiant” fe’lining retseptlarda qo‘llanilishi

Qaysi dori shaklini tayyorlash lozimligini retseptlarda ko‘rsatish kerak bo‘lsa, bu holda maqsadli ergash gap birlikda **fiat**, ko‘plikda **fiant** (hosil bo‘lsin, hosil qilinsin) fe’llari bilan birga ishlatiladi.

Masalan: Misce, ut fiat pasta. – Pasta hosil bo‘lguncha aralashtir.

Misce, ut fiant suppositoria. – Shamchalar hosil bo‘lguncha aralashtir. Aralashtirib, shamchalar hosil qilinsin.



Mashqlar

5. Nuqtalar o'rnini fiat yoki fiant fe'llari bilan to'ldiring.

1. Misce, ut ... pilulae.
2. Misce, ut ... unguentum.
3. Misce, ut ... linimentum.
4. Misce, ut ... globuli.
5. Misce ut ... suppositoria.
6. Misce, ut ... mixtura.
7. Recipe massae pilularum quantum satis, ut ... pilulae.

6. Nuqtalar o'rniga mos keladigan qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni yozing.

1. Misce, ut fiat unguent...
2. Recipe massae pilul... quantum satis ut fiant pilul...
3. Misce, ut fiant bacill...
4. Misce, ut fiant suppositori...
5. Misce, ut fiat suppositori...
6. Misce, ut fiat globul...
7. Misce, ut fiant globul...
8. Misce, ut fiat liniment...



7. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.
2. Aralashtirib, tayoqchalar hosil qilinsin.
3. Aralashtirib, shamchalar hosil qilinsin.
4. Mikstura hosil bo'lguncha aralashtir.
5. Shunday dozalardan 10 (son)ta ampulalarda berilgan bo'lsin.
6. 10(son)ta sharchalar hosil qilish uchun keragicha jelatin massasidan ol.
7. 30(son)ta hab dorilar hosil qilish uchun keragicha hab dori massasidan ol.

8. O'zbek tiliga tarjima qiling.

tinctura Iodi, venena et antidota, antidotum metallorum, stilus Mentholi, suppositoria cum extracto Belladonnae, Lanolinum et Vaselinum.

9. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Cen.da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---|----------------------------|
| 1) qirqbo'g'imning yer ustki qismi | 5) achchiq shuvoq barglari |
| 2) uchbarg barglari | 6) jenshen nastoykasi |
| 3) bo'ymadoron yer ustki qismi-ning damlamasi | 7) bug'doy kraxmali |
| 4) shaftoli moyining emulsiyasi | 8) qalampir nastoykasi |

Da.

Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.

3. Recipe: Decocti foliorum Uvae ursi 10,0: 180ml

Hexamethylentetramini 4,0

Misce.Da.

Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 2 marta ichilsin.

4. Recipe: Euphyllini 0,3

Olei Cacao 3,0

Misce, fiat suppositorium

Dentur tales doses numero 10

Signetur: Kuniga 2 marta

1 ta shamchadan qo'yilsin.

5. Recipe: Unguenti Prednisoloni 0,5 % . 5,0

Da.

Signa: Sirtidan ishlatish uchun.



13. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Yodoform 2,5

Vazelin 25,0 gacha

Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: Surtma

2. Ol: Ixtiol 0,15

Steptotsid 0,3

Kakao moyi 2,5

Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.

Shunday dozalardan 3(son)ta berilgan bo'lsin.

Belgila: Kuniga 1 ta shamchadan qo'yilsin.

3. Ol: Belladonna ekstrakti 0,1

Furatsilin 0,2

Kakao moyi 30,0

Aralashtirib, 10(son)ta sharchalar hosil qilinsin.

Berilsin.

Belgilansin: Kuniga 2 marta 1 sharchadan qo'yilsin.

4. Ol: Kseroform 1,5

Antipirin 3,0

15 (son)ta shamchalar hosil qilish uchun keragicha

kakao moyi

Berilsin.

Belgilansin: Kuniga 3 marta 1ta shamchadan qo'yilsin.

5. Ol: Streptotsid 0,3

Butirol keragicha

Aralashtirib, 3(son)ta shamchalar hosil qilinsin.



Berilsin.

Belgilansin: Kuniga 1ta shamchadan qo'yilsin.

6. Ol: Dermatol 0,2

Streptotsid 0,3

Vazelin 15,0

Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.

Berilsin.

Belgilansin: Bog'lamlar uchun.



48-§. Dorivor vositalar nomenklaturasi

Dorivor vosita (medicamentum, remedium) bu odam va hayvonlarning kasalliklarini davolash, oldini olish yoki aniqlash maqsadida ishlatish uchun ruxsat etilgan farmakologik vositadir.

Dorivor modda (materia medica, substantia pharmaceutica) bu alohida kimyoviy birikmadan yoki biologik moddadan iborat bo'lgan dorivor vositadir.

Dorivor o'simliklar xomashyosi bu davolash maqsadida qo'llash uchun ruxsat etilgan o'simliklar xomashyosi.

Dorivor vosita yoki dorivor o'simlik mahsulotiga kerakli davolash ta'siriga erishish uchun berilgan qulay holat dori shakli (**forma medicamentorum**) deb aytiladi.

Dori preparati (praeparatum) bu ma'lum dori shaklidagi dorivor vositadir.

Murakkab dori vositalari bu bir dori shaklida belgilangan dozalarda birdan ortiq ta'sir etuvchi moddalarga ega bo'lgan dorivor vositalardir.

Dorivor vositalar nomenklaturasi (D.V.N.) – bu hozirgi vaqtda ishlatishga ruxsat berilgan hamma dorivor vositalar nomining yig'indisidir.

Dorivor vositalarning hozirgi zamon nomenklaturasi tabiiy paydo bulgan va qat'iy tuzilish qoidasiga ega emas. Har bir dorivor vosita ma'lum bir nomlanishga ega bo'ladi. Nomlar esa ixtiyoriy ravishda o'ylab chiqariladi.

Dorivor vositalar nomenklaturasiga vatanimizda ishlab chiqarilgan vositalar nomi bilan birga chet eldan keltirilgan vositalarning nomi ham kiradi¹².

49-§. Dorivor vositalar nomenklaturasining tipik guruhlari

Dorivor vositalar nomenklaturasi oltita tipik guruhga bo'linadi:

I. O'simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlar nomlari.

II. O'simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo'lgan dorivor preparatlar nomlari.

III. Dorivor moddalarning trivial nomlari.

IV. Dorivor moddalarning xalqaro patentlanmagan nomlari.

¹² PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7

L.X.Bazarova, N.S. Suyundikov, X.X. Xolmatov. "Латинский язык". Tashkent. 2010

V. *Dorivor vositalar(preparatlar)ning savdo nomlari.*

VI. *Farmakopeynik kimyoviy nomenklatura: kislotalar, oksidlar, tuzlar nomlari.*

50 -§. I tipik guruh. O‘simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlar nomlari

I tipik guruhga o‘simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlarning nomlari kiradi.

I tipik guruhdagi nomlar ikkita otdan tashkil topgan so‘z birikmalaridir. Birinchi ot o‘simlik organi (**herba, folium, flos, radix va boshqalar**) yoki mahsulotlarning nomi (**oleum, gummi, resina va boshqalar**)ni ko‘rsatadi va bosh kelishikda turadi. Ikkinchi ot o‘simlik nomini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

Masalan: **herba Leonuri** – arslonquyruqning yer ustki qismi
folium Sennae – sano bargi
oleum Hyoscyami – mingdevona moyi.

51-§. II tipik guruh. O‘simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo‘lgan dorivor preparatlar nomlari

II tipik guruhga quyidagilar kiradi:

1. Zavodlarda ma’lum belgilangan standartlar bo‘yicha tayyorlanadigan dorivor preparatlarning nomlari. Bular – nastoykalar, ekstraktlar va sharbatlarning nomlari bo‘lib, ikkita otdan iborat bo‘lgan so‘z birikmalaridir. Birinchi ot dori turining nomini ko‘rsatadi va bosh kelishikda turadi. Ikkinchi ot o‘simlik nomini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

Masalan: **tinctura Valerianae** – valeriana nastoykasi
extractum Crataegi – do‘lana ekstrakti
sirupus Glycyrrhizae – shirinmiya sharbati

2. Damlama va qaynatma nomlari. Ular uchta otdan iborat bo‘lgan so‘z birikmalaridir. Birinchi ot dori turining nomini ko‘rsatadi va bosh kelishikda turadi. Ikkinchi ot o‘simlik organini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi. Uchinchi ot o‘simlik nomini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

Masalan: **infusum foliorum Sennae** – sano barglarining damlamasi
decoctum herbae Hyperici – dalachoy (sariqchoy) yer ustki qismining qaynatmasi.

52-§. III tipik guruh. Organik kimyoviy moddalarning ilmiy va trivial(shartli) nomlanishi

Dorivor vositalar sifatida qo‘llaniladigan organik kimyoviy moddalar ikkita nomga ega: **ilmiy** (tizimli) va **trivial** (shartli)¹³.

«**Trivial**» so‘zi lotincha “**trivialis**” odatdagi, oddiydan kelib chiqqan.

Odatda ilmiy nomlar uzun bo‘lgani uchun ularni tibbiyot amaliyotida ishlatish noqulay. Shuning uchun dorivor vositalar nomi sifatida ilmiy emas, balki trivial nomlari qo‘llaniladi. Trivial nomlar qisqaligi bilan amalda qo‘llashga qulaydir.

Masalan: Dietilamidsulfamidobenzoat kislota – ilmiy nomlanishi,
Etamid – trivial nomlanishi.

Trivial nomlar dorivor vositalarning kimyoviy tarkibini, davolash ta‘sirini, farmakologik guruhga mansublikni va boshqa turli belgilarni ifodalaydi.

53-§. Dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan bo‘laklar

Tez-tez takrorlanadigan bo‘laklar – bu dorivor preparatlar nomida ko‘p qo‘llaniladigan so‘z bo‘laklaridir.

Har bir tez-tez takrorlanadigan bo‘lak preparat to‘g‘risida ma‘lum bir axborotni (dorining kimyoviy tarkibi, davolash ta‘siri yoki farmakologiyasi) beradi. Tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni va ularning ma‘nosi (ahamiyati)ni bilish ko‘p miqdordagi dori nomlarini tushunib olishga yordam beradi.

Masalan: Tarkibida **-alg** tez-tez takrorlanadigan bo‘lakli preparat og‘riq qoldiruvchi ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek quyidagi preparatlarni shu guruhga kiritish mumkin:

Analginum
Baralginum
Pentalginum

Tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni bilish dorivor preparatlarning nomini to‘g‘ri yozishga yordam beradi.

54 -§. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni yod oling!

Tez-tez		
----------------	--	--

¹³ L.X.Bazarova, N.S. Suyundikov, X.X. Xolmatov. “Латинский язык”. Tashkent. 2010. PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7103-112b

takrorlanadigan bo‘lak	Ma‘nosi	Misollar
-meth-	«metilni», «metilenni» aks ettiradi	Methazidum
-aeth-	«etilni», «etilenni» aks ettiradi	Aethamidum
-phen-	«fenilni», «fenilenni» aks ettiradi	Phenaminum
-thi (o)-	«tiokislotalar», «tiotuzlarni» aks ettiradi. Bu tarkibida oltingugurt atomi kiradigan birikmalar	Thiopentalum-natrium
-(a)zol,-zin-, -(a) zid-	“azoguruhni” aks ettiradi. Bu azot saqlovchi birikmalar	Aethazolum Phthivazidum
-naphth-	naftalan kislotaning hosilasi	Benzonaphtholum
-phthal-	ftaliyev kislotaning hosilasi	Phthalazolum
-fer(r)-	temir preparatlari	Haemofer
-api-	asalari zaharining preparatlari	Apisarthronum
-vipr-	ilon zaharining preparatlari	Vipraxinum

Mashq

1. Tez- tez takrorlanadigan bo‘laklarni ajrating va ularning ma‘nosi (ahamiyati) ni ko‘rsating.

Namuna: Aethazolum – 1) «etilni» aks ettiradi.
2) «azoguruhni» aks ettiradi.

Aprophenum, Aethacridinum, Aminazinum, Metherazinum, Aethaperazinum, Thiodipinum, Haemofer, Methorinum, Apiphorum, Phenibutum, Trimethinum, Naphthyzinum, Phenolphthaleinum, Vipraxinum, Phytoferrolactolum, Apisarthronum, Phthalazolum, Ferramidum.

55-§. Quyidagi dori preparatlari nomlarini yod oling!

Phenacetinum, i, n – fenatsetin
Aethazolum, i, n – etazol

Hexamethylentetraminum , i, n – geksametilentetramin
Phthalazolum, i, n – ftalazol
Naphthyzinum, i, n – naftizin
Aminazinum, i, n – aminazin
Triftazinum, i, n – triftazin
Phthivazidum, i, n – ftivazid
Dibazolum, i, n – dibazol
Codeinum, i, n – kodein
Coffeinum, i, n – kofein
Chininum, i, n – xinin
Glycerinum, i, n - glitserin
Reserpinum, i, n – rezerpin
Strophanthinum, i, n – strofantin
Scopolaminum, i, n – skopolamin
Morphinum, i, n – morfin
Pilocarpinum, i, n - pilokarpin



Mashq

2. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Dragee Padutini numero 30

Da.

Signa: Kuniga marta 1-2 ta drajedan qabul qilinsin.

2. Recipe: Guttarum Inosemzovi 20 ml

Da.

Signa: 10 tomchidan ichilsin.3. Recipe: Emplastri Epilini 12,0

13-AMALIY MASHG`ULOT: Dorivor preparatlarga trivial nomlarni berish qoidalari. IV tipik guruh. Dorivor moddalarning xalqaro patentlanmagan nomlari. Alkaloidlar va glikozidlar nomlanishi. Vitaminlar va fermentlar nomlanishi

56-§. Dorivor preparatlarga trivial nomlarni berish qoidalari

Dorivor preparatlarning trivial nomlarini nomenklatura komissiyasi beradi. Trivial nomlar qisqacha, talaffuz osonligi, berilgan nomning boshqalardan fonenetik - grafik farqlanishi, tez - tez takrorlanadigan bo‘laklar qo‘llanishining aniqligi kabi talablarga mos kelishi kerak.

I. Qisqalik. Eng qulay va ko‘p uchraydiganlari uch, to‘rt va besh bo‘g‘inli nomlardir.

Masalan: Corazolum, Piperazinum, Tanninum.

Ayrim hollarda ko‘p sonli bo‘g‘inli nomlar ham uchraydi.

Masalan: Sulfadimezinum, Novocainamidum, Phenoxyethylpenicillinum.

II. Talaffuz osonligi. Talaffuz uchun eng qulay nomlarda undosh unli bilan yoki oson talaffuz qilinadigan ikkita undosh almashinib keladi.

Masalan: Aminazinum, Ditrazinum, Streptocidum, Corvalolum.

III. Berilgan nomning boshqa nomlardan fonetik - grafik farqlanishi.

Yangi dorivor vositaga nom berishda nomenklatura komissiyasi uning talaffuz qilinishi va yozilishi bo‘yi cha boshqa nomlardan farqlanishni kuzatib boradi. Nomlarda tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni ishlatish fonetik - grafik farqlanishni kamaytiradi.

Masalan: Methaminum, Methacinum, Methazidum, Phenadonum, Phenainum.

IV. Tez- tez takrorlanadigan bo‘laklarning qo‘llanishi aniqligi. Har bir tez-tez takrorlanadigan bo‘lak o‘zining aniq manosi(ahamiyati)ga ega ekan, yangi nomlar berilayotganda tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni qo‘llashda xatoga yo‘l qo‘ymaslikni kuzatib borish zarur, chunki bunday xatolar vrach va farmatsevtlardagi noto‘g‘ri tasavvurga sababchi bo‘lishi mumkin.

57-§. IV tipik guruh. Dorivor moddalarning xalqaro patentlanmagan nomlari

Bugungi kunda turli davlatlarda ishlab chiqarilayotgan bitta dorivor vosita savdoga har xil nom bilan kirib kelmoqda. Hatto bir davlatdagi turli firmalar ham bitta dorivor vositani har xil nomlar va mahsulot belgilari bilan ishlab chiqarmoqda. Bu esa dorivor vositalarning sinonimlarini ko'payishiga olib keladi¹⁴.

Masalan: "Pyrantel" dorivor vositasining **Bifantrel, Cobantril, Combantrin, Helmex, Helmintox, Medintel, Nemocid, Pamex, Pamotrin** va boshqa sinonimlari bor.

Ma'lumki, dorivor vositalar nomlari II turlanishdagi sredniy roddagi otlarga (**Nom.Sing. -um**) kiradi. Lekin ayrim dorivor vositalarning nomlarida **-um** qo'shimchasi yo'q. Bunday dorivor vositalarning nomlari retseptlarga II turlanishdagi otlarning qoidasiga binoan yoziladi, ya'ni:

Rp: Aguipirani
Rp: Combantrini

Bugungi kunda jahonda mavjud bo'lgan 7000ga yaqin dorivor vositalarning 70000ga yaqin nomlari mavjud. Har yili xalqaro patentlanmagan nomlar ro'yxati 120dan 150 tagacha nomga ko'payib bormoqda. Dorivor vositalar nomlarining sinonimiyasi salbiy tomonga ega. Dorivor vositalarning umumiy xalqaro nomlari sinonimiyani kamaytirishga yordam beradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization; qisqacha-WHO) qoshida dori moddalariga halqaro nom berish ishlarini boshqaruvchi maxsus (International Nonproprietary Names For Pharmaceutical Substances; qisqacha-INN) qo'mita mavjud. Xalqaro nomlardan shu dorivor moddani ishlab chiqaruvchi davlat yoki firma foydalanishi mumkin. Bu nomlar patentlanmagan. Davlat farmakopeyasida patentlanmagan halqaro nomlar (XPN) sinonim sifatida albatta maxsus belgi * bilan ko'rsatiladi.

Dori moddalariga xalqaro nom beruvchi maxsus qo'mita tomonidan «Dorivor moddalarning patentlanmagan xalqaro nomlarini tuzish uchun amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy printsiplar» ishlab chiqildi.

Bosh prinsiplarga asosan XPN talaffuz qilishda va yozishda oson ajratiladigan bo'lishi kerak. Ular uzun bo'lmasligi yoki umumiy qo'llanishda foydalanib kelinayotgan nomlar bilan adashtirib yuborilmaydigan bo'lishi lozim.

Farmalogik jihatdan yaqin bo'lgan guruhga taalluqli moddalar uchun XPN ushbu taaluqlikni ko'rsatishi lozim.

Dorivor moddalarning patentlanmagan xalqaro nomlari Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining "WHO Drug Information" jurnalida to'rtta tilda quyidagi ketma-ketlikda yoziladi: lotincha, inglizcha, frantsuzcha va ispancha.

¹⁴ L.X.Bazarova, N.S. Suyundikov, X.X. Xolmatov. "Латинский язык". Tashkent. 2010. PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7103-112b

Lotincha	Inglizcha	Frantsuzcha	Ispancha
laronidasum	laronidase	laronidase	laronidasas
amotosalenum	amotosalen	amotosalene	amotosaleno

58-§. Alkaloidlar va glikozidlar nomlanishi

Hamma o‘simliklar tarkibida har xil biologik aktiv moddalar saqlanadi. Ularga alkaloidlar, glikozidlar va boshqalar kiradi. Alkaloidlar va glikozidlar nomi odatda o‘simlik nomini ifodalovchi otning negiziga *-in (um)* suffiksini qo‘shish bilan hosil qilinadi.

Masalan: Ephedrinum – efedrin. **Ephedra** – o‘simligining nomiga *-inum* suffiksini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilindi.

Agar bir o‘simlikdan ikki yoki undan ortiq alkaloidlar olingan bo‘lsa, unda ularning nomi bo‘g‘inlar qoshish orqali yasaladi.

Masalan: **Salsola Richteri** o‘simligidan olingan ikkita alkaloid nomi **Salsolinum**-salsolin va **Salsolidinum**-salsolidin (*-id* suffiksini qoshish yoli bilan) deb nomlangan.

59- §. Vitaminlar va fermentlar nomlanishi

Vitaminlar (lot. *vita*-hayot) - odamning o‘shishi, rivojlanishi va hayot faoliyati uchun zarur elementlardir.

Vitaminlar trivial nomlar (Retinolum,Thiaminum) bilan bir qatorda harfli belgilarga ega: **A, B, D, E, K, H, P.**

Bitta harf bilan belgilangan ayrim vitaminlar bir-biriga yaqin, lekin har xil birikmalar bo‘lsa, ularning harfli belgisiga tartib soni qo‘shiladi.

Masalan: vitaminum B₁
 vitaminum B₂
 vitaminum B₆
 vitaminum B₁₂

Vitaminlar nomidagi motivasiya belgilari turlicha. Ba‘zilar vitaminlarning kimyoviy tarkibini ko‘rsatadi.

Masalan: Thiaminum (B1) , Pyridoxinum(B6), Cyanocobalaminum (B12). Boshqalari esa terapevtik samaradorlikni ko‘rsatadi.

Masalan: A vitamini Retinolum (lot. *retina* -ko‘z to‘r pardasi) nomi bilan ma‘lum; A vitamini miqdori yetarli bo‘lmasa ko‘z to‘r pardasining yallig‘lanishiga olib keladi.

Kombinatsiyalashtirilgan vitamin preparatlari ko‘pincha – **vit** - tez- tez takrorlanadigan bo‘lak bilan uchraydi.

Masalan: Dragees “Undevitum”

Dragee "Undevitum"(lotincha son *undecim* -11, chunki draje tarkibiga boshqacha kombinatsiyadagi 11 ta vitamin kiradi).

Fermentlar nomi biokimyoviy nomenklaturaga binoan –**as-** suffiksi yordamida hosil bo‘ladi.

Masalan: Lydasum, Ronidasum.

60-§. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni yod oling¹⁵!

Tez-tez takrorlanadigan bo‘lak	Ma‘nosi	Misollar
-cor-, -card (i)-	yurakka tasir etuvchi	Corvalolum Cardiovalenum
-vas-, - ang (i)-	qon tomirlarini kengaytiruvchi	Divascol
-alg-, -dol-	og‘riq qoldiruvchi	Analginum Pinadolinum
-pres(s)-, -ten(s)-	gipertoniya qarshi	Apresolon Regutensin
-cain-	mahalliy og‘riqsizlantiruvchi	Dicainum
-sulfa-	mikroblarga qarshi sulfanilamidlar	Norsulfazolum
-fur (a)	mikrobg qarshi nitrofurano unumlari	Furoplast
-cillin-	antibiotic penitsillinlar	Penicillinum
-mycin-	mikrobg qarshi antibiotiklar, Streptomyces va boshqa zamburug‘ shtammalaridan olinadigan mikrobg qarshi	Streptomycinum
-cyclin-	antibiotic tetratsyklar	Tetcyclinum
-cef- (-ceph-)	tsefalosporin guruhiga kiruvchi antibiotiklar	Cefotaximum

¹⁵ PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7

-barb-	barbituratlar, uxlatadigan, narkotik, barbiturat kislotasining unumlari, hosilasi	Barbenyl
-hypn-, -dorm-	uxlatadiganlar	Hypnomidate Dormicum
-sed-	sedativ, tinchlantiruvchi	Sedalgin
cut(i)- -derm-	teri kasalliklarini davolash uchun	Cuterid Dermazin
-vit-	vitamin saqlaydiganlar	Undevitum
-as -	fermentlarga tegishli	Amylasum

Mashqlar

1. Tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni ajrating va ularning ahamiyatini (manocini) ko‘rsating.

Depridol, Algolysin, Bicillinum, Lanocordalum, Furacilinum, Ferrocalum, Viprosalum, Barbenyl, Allergol, Pyromecainum, Cardigin, Anginal, Capresin, Dibazolium, Lipasum, Hendevitum, Apressinum, Phenoxymethylpenicillinum, Ribovitalum, Sovcainum, Tetracor, Tenormal, Anacardiolum, Phenaminum, Valocormidum, Dolgit, Barbamylum, Xycainum, Conferon, Tetracyclinum, Streptomycinum, Dermatolum, Cordalen, Carminomycinum, Analginum, Psorcutan, Prodorm, Vasocil, Presinol, Methindionum, Naphthyzinum, Sulfamonomethoxinum, Dicainum, Phenobarbitalum, Cardiazol, Novocainum, Norsulfazolium, Vasculat, Furoplast, Diazolinum, Valocordin, Allercur, Nepressol, Cefamezinum, Methicillinum, Furosemidum, Vasolanum.

61 -§. Quyidagi dorivor preparatlar nomlarini yod oling!

Furacilinum, i, n - furatsilin
 No – spa, ae, f – no -shpa
 Valocordinum, i, n - valokordin
 Cordiaminum, i, n - kordiamin
 Analginum, i, n - analgin
 Validolum, i, n - validol
 Depressinum, i, n - depressin
 Novocainum, i, n - novokain
 Dicainum, i, n - dikain
 Synthomycinum, i, n - sintomitsin
 Tetracyclinum, i, n - tetratsiklin
 Phenoxymethylpenicillinum, i, n - fenoksimetilpenitsillin

Erythromycinum, i, n - eritromitsin
Streptomycinum, i, n – streptomitsin

Mashqlar

2. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Oxacillini-natrii 0,25
Da numero 40 in capsulis gelatinosis.
Signa: Kuniga 4 marta 2 ta kapsuladan qabul qilinsin.
2. Recipe: Novocaini 0,5
Aquae destillatae 200 ml
Misce. Da.
Signa: 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Recipe: Linimenti Synthomycini 1% cum Novocaino 0,5% 25
Da.
Signa: Kuniga 1 marta kuygan joyga surtilsin.

3. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

- 1.Ol: Tetratsiklin surtmasi 0,2% 25,0
Ber.
Belgila: Surtma
- 2.Ol: Kardiovalen 15 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 1-2 marta 15-20 tomchidan ichilsin.
- 3.Ol: Geksametilentetramin 0,25
Belladonna ekstrakti 0,015
Shunday dozalarda 10 (son)ta tabletkalarda ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

62-§. V tipik guruh. Dorivor vositalar(preparatlar)ning savdo nomlari

Savdo nomi (ingl. Trade Name) - bu savdo uchun moʻljallangan preparat (tayyor dorivor vosita) nomidir¹⁶.

Ishlab chiqaruvchi tomonidan taklif qilingan savdo nomi undan foydalanishga rasmiy ruxsatni olishi zarur. Belgilangan rasmiy savdo nomi berilgan dorivor vosita qonunchilikka muvofiq roʻyxatga olingan boʻlishi lozim. Shundan soʻng dorivor vosita unga berilgan savdo nomi ostida Dorivor vositalarning davlat roʻyxatiga kiritiladi.

Savdo nomlarining kelib chiqish manbalari turlicha. Bular bir xil dorivor substansiyali preparatlarni turli ishlab chiqaruvchilari tomonidan qoʻllanadigan umumiy, nopatentlangan nomlar, shuningdek aniq ishlab chiqaruvchi firma tomonidan qoʻllanadigan individual firma nomlaridir. Firma nomlari patentlangan va nopatentlangan boʻladi.

Umumiy savdo nomlarining kelib chiqish manbalari-bu odatda yoki XPN, yoki alohida mamlakat yoki mamlakatlar guruhida qabul qilingan milliy (farmakopeya) nomdir.

Masalan: Diclofenacum (INN): Germaniya, Hindiston, Isroil, Italiya, Makedoniya, Polsha, Yugoslaviyada; Nifedipinum (INN): Angliya, Germaniya, Bolgariya, Polsha, Xorvatiya, Shvesiyada.

Ayrim dorivor vositalarning savdo nomlarida shu preparat toʻgʻrisida axborot beruvchi qadimgi yunon va lotin tilidagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar uchraydi.

Masalan:

Venitan (lotincha vena – vena, koʻk tomir)
Pulmex (lotincha pulmo- opka)
Prododerm (yunoncha derma - teri)
Febichol (yunoncha chole- ot, safro)

Anatomik va fiziologik xususiyatlarini koʻrsatish uchun

Laxatin (lot. laxativum-surgi,ich suradigan)
Allergodil - allegiyaga qarshi
Orto-gynest(yunoncha gyne-ayol)-estrogen
Antithrombinum(yunoncha thrombos-quyuqlashish, ivish)-qon ivishiga qarshi vositalar

Farmakoterapevtik taʼsirini koʻrsatish uchun

¹⁶ L.X.Bazarova, N.S. Suyundikov, X.X. Xolmatov. “Латинский язык”. Tashkent. 2010. PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7103-112b

Senade (lot.Senna-sano)- sano o‘simligidan }
tayyorlangan preparat }

63-§. Savdo nomlarida so‘zlarning yasalihi

Savdo nomlari mavjud bo‘lgan so‘z yasash qoidalari va modellaridan farqli ravishda so‘z yasashning ma‘lum qoidalariga aniq amal qilmasdan shakllanadi. Shunga qaramasdan, so‘z yasashning ba‘zi usullarini savdo nomlarini berish amaliyotida uchratish mumkin¹⁷.

1. Asos yoki so‘z qo‘shish - asos yoki so‘zlar birikmasi, ko‘pincha biror-bir oxirgi bo‘g‘inni qo‘shish orqali yasaladi. Asos odatda interfiks yordamida birlashadi, ya‘ni birlashtiruvchi unli **-o-**, kam hollarda **-i-**, yoki **-a-**.

Masalan:

Valocordinum(lot. *valeo* -sog bo‘lish + **-o-** + *cor*, *cordis*-yurak)-Valokordin
Myelosanum (yunoncha *myelos*- miya+ lot. *sano*-davolash)-Miyelosan.

2. Abbreviatsiya (lot. *abbrevio*-qisqartirmoq) - dastlabki so‘z element-larini qo‘shish yoli bilan qisqartma so‘z (abbreviaturalar) hosil bo‘lishidir.

Masalan:

Calciparinum - *Calcium* + *Heparinum*

Corinfar - *cor*(lot.) - yurak + *infarctus* - infarkt

3. Suffiksatsiya - suffiksning asosga biror bir ma‘no keltirib chiqarish uchun birlashishidir.

Savdo nomlarida quyidagi suffikslar kop qollaniladi:

-in – suffiksi ko‘pincha kimyoviy mazmundagi asoslarga qo‘shiladi: Clophelinum-Klofelin, Diltrazinum-Diltrazin, Isadrinum-Izadrin.

Savdo nomenklaturasida **-in**-suffiksi maxsus ma'noga ega emas.

Masalan: Fungilin, Fulcin, Octadin.

Boshqa suffikslar:

-al-	Abaktal, Almiral, Bronal
-ol-	Aloprol, Asectol, Dopanol
-el-	Dicetel, Divigel, Quamatel
-an-	Advantan, Domenan, Vistagan
-on-	Gutron, Haemiton, Dexason
-en-	Voltaren, Dilren, Vaskoten
-il-, -yl-	Retabolil, Donormil, Biacodyl, Amaryl
-ax-, -ex-,	va h.k.
-ix-, -ox-	

¹⁷ PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7

4. **Prefiksatsiya**- so'z o'zagi(asosi)ga prefikslar (old qo'shimchalar) qo'shilishi.

Ayrim hollarda savdo nomlarida lotin-yunon prefikslari uchrab, ular kasallik yoki uning sababi, yoki kasallik qo'zgatuvchisini bildiradigan o'zak (asos)lar bilan muvofiqlashgan bo'ladi, hamda ularni bartaraf qilish harakatlarini ko'rsatadi:

anti-, contra- - qarshi;

a-, an- - inkor etish;

de(s)- - dan.

Masalan:

Antithrombinum (**anti** + yunoncha **thrombos**-quyqa+ **in**) - Antitrombin-ivishga qarshi

Contraspasminum (**contra** + yunoncha **spasmos**- tomir tortishish,spazm + **in**)-
Kontraspazmin – bronxlarni kengaytiruvchi

Abaktal (**a** + **bacterium**+ **al**) - Abaktal - antibacterial

Decaris (**de** + **ascaris** -askarida) - Dekaris - gijjalarga qarshi

Savdo nomlarida preparatlarning samaradorligini takidlaydigan prefikslar ham uchraydi.

Masalan:

super-, supra-(lot.) - зиёд;

ultra- - ортик, зиёд;

eu-(yunoncha)- яхши

Suprastin (**supra** + yunoncha **asthma, asthmatic**- bog'ilish, astma+ **in**)-

Suprastin – astmaga qarshi, allergiyaga qarshi

Ultraproct (**ultra**+ yunoncha **proctos**-orqa chiqaruv teshigi)-Ultraprokt-bavosilni davolash uchun

Eunocin (**eu** + lot.**nox, noctis**- tun)- Eunocin - uyqu dori.

64-§. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni yod oling!

Tez-tez takrorlanadigan bo'lak	Ma'nosi	Misollar
-allerg-	allergiyaga qarshi	Allergol
-verm- -helm-	gijjaga qarshi	Univerm, Helmintin
-lax-	surgi	Acetolax
-stress- -tranqu- -ze (a,i) pam-	psixosedativ trankvilizatorlar, antidepressantlar	Tranquipanum, Phenazepamum
-chol- -bil-	o't haydovchi	Cholosasum, Bilergen
-trast- -gnos-	diagnostik, rentgenoktrast	Choletrast, Bilignostum,

-graf-		Cardiografın
-ur-	siydik haydovchi	Diurometan
-flog-, -phlog-	yallig‘lanishga qarshi	Flogodin
-vom- -emet-	qusishga qarshi	Vomidrine
nas- r(h)in-	burun kasalliklarni davolash uchun	Nasonex, Rhinil
oc-, ok-, oc(u)- opht(h)alm- opht(h)- oft- opt(ic)-	ko‘z kasalliklarini davolash uchun	Octilia, Okacin, Ocupress, Ophthalmaseptonex, Digophton, Oftensin, Betoptic
-abol	anabolik steroidlar (organizmda oqsil sintezini stimullashtiradi)	Sterabol
-oestr	estrogen preparatlar (ayollar jinsiy gormonlarining preparatlari)	Aethyloestradiolum

Mashqlar

1. Tez – tez takrorlanadigan bo‘laklarni ajrating va ularning ahamiyatini yozing.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 tabletkadan ichilsin.

5. Ol: Magniy oksid tabletkalari 0,5 20 (son) ta

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 tabletkadan ichilsin.

7. Quyidagi harflar orasidan 16 ta elementning nomini toping va o`zbek tiliga tarjima qiling.

R	A	R	G	E	N	T	U	M	P	H	O
B	A	R	I	U	M	A	G	N	I	U	M
A	U	R	U	M	O	B	R	O	M	U	M
L	I	T	H	I	U	M	N	O	A	K	B
U	P	L	U	M	B	U	M	S	Z	U	M
M	A	G	N	E	S	I	U	M	A	O	I
I	O	D	U	M	Y	K	A	L	I	U	M
N	I	T	R	O	G	E	N	I	U	M	O
I	P	H	O	S	P	H	O	R	U	S	C
M	A	G	N	I	U	M	X	Y	O	N	I
S	U	L	F	U	R	Z	I	N	C	U	M

23-AMALIY MASHG'ULOT: Tuzlar nomi. Asos tuzlarning nomi. Kislordsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining nomi. Natriy va kaliy tuzlarning nomi. Yunoncha old qo'shimchali sonlar. Uglevodorodlar, uglevodorodli va kislotali radikallarning nomlanishi

91 -§. Tuzlar nomi

Kation birinchi o'rinda keladi va qaratqich kelishikda, birlik sonidagi ot bilan ifodalanadi, anion kationdan keyin turadi va bosh kelishikda, birlik sonidagi ot bilan ifodalanadi.

Tuzlar nomini tarjima qilish uchun o'zbekcha va lotincha suffikslarning mos kelishini eslab qolish kerak.

O'zbekcha suffiks	Lotincha suffiks	
	<i>NOM.</i>	<i>GEN.</i>
id	idum	idi
it	is	itis
at	as	atis

Masalan:

Na₂S- natriy sulfid – Nom. Natrii sulfidum

Gen. Natrii sulfidi

Na₂SO₃- natriy sulfit – Nom. Natrii sulfis

Gen. Natrii sulfitis

Na₂SO₄- natriy sulfat – Nom. Natrii sulfas

Gen. Natrii sulfatis.

Mashqlar

1. O'zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-------------------|----------------------|
| 1. Calcii chloras | 6. Magnii sulfas |
| 2. Kalii acetat | 7. Natrii benzoas |
| 3. Natrii arsenis | 8. Ammonii chloridum |
| 4. Zinci sulfas | 9. Calcii carbonas |
| 5. Natrii nitris | 10. Magnii ascorbas |

2. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|------------------|------------------------|
| 1) kalsiy laktat | 6) qo'rg'oshin atsetat |
| 2) kaliy xlorid | 7) kodein fosfat |
| 3) natriy yodid | 8) natriy nitrit |
| 4) rux sulfat | 9) bariy sulfat |
| 5) natriy ftorid | 10) litiy oksibutirat |

92-§. Asos tuzlarning nomi

Asos tuzlarning nomlari *sub-* old qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi.

Masalan: Asosli vismut gallat-

Nom. Bismuthi subgallas
Gen. Bismuthi subgallatis.

93-§. Kislordsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining nomi

Kislordsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarning nomi *hydro-* old qo‘shimchasi va *-idum, i* suffiksi yordamida tuziladi.

Masalan: Papaverin gidroxlrid-

Nom. Papaverini hydrochloridum

Gen. Papaverini hydrochloridi.

94 -§. Natriy va kaliy tuzlarning nomi

Natriy va kaliy tuzlarning nomlari moddalarning nomlariga “**natrium**” yoki “**kaliium**” so‘zlarini qo‘shish yordamida hosil bo‘ladi.

Masalan: Barbitol-natriy –

Nom. Barbitolum- natrium

Gen. Barbitali- natrii.

95 -§. Yunoncha old qo‘shimchali sonlar

Kimyoviy nomlarda yunoncha old qo‘shimchali sonlar keng qo‘llaniladi.

Masalan: simob dixlorid –

Nom. Hydrargyri dichloridum

Gen. Hydrargyri dichloridi.

96-§. Yunoncha old qo‘shimchali sonlarni yod oling!

1 – **mon(o)** – bir

2 – **di** – ikki

3 – **tri** – uch

4 – **tetra** – to‘rt (tetra)

5 – **penta** – besh (penta)

6 – **hexa** – olti (gekso)

7 – **hept(a)** – yetti (gepta)

8 – **oct(a)** – cakkiz (okta)

9 – **ennea** (nona - lotincha) –
to‘qqiz

10 – **dec(a)** – o‘n (deka)

11 – **undeka** – o‘n bir (undeka)

12 – **dodeca** – o‘n ikki (dodeka)

13 – **trideca** – o‘n uch (trideka)

14 – **tetradeca** – o‘n to‘rt (tetradeka)

15 – **pentadeca** – o‘n besh
(pentadeka)

97-§. Uglevodorodlar, uglevodorodli va kislotali radikallarning nomlanishi

1. Uglevodorodlarning ilmiy nomlanishi (C₅H₁₂ uglevodorodidan boshlab) yunoncha sonlarning nomlanishiga *-an* suffiksini qoshish yordamida hosil qilinadi.

Masalan:

Pentanium (C ₅ H ₁₂)	–	pentan
Hexanium (C ₅ H ₁₄)	–	geksan
Heptanium (C ₅ H ₁₆)	–	geptan
Oktanum (C ₅ H ₁₈)	–	oktan
Nonanium (C ₅ H ₂₀)	–	nonan
Dekanum (C ₅ H ₂₂)	–	dekan
Undekanum (C ₅ H ₂₄)	–	undekan
Dodekanum (C ₅ H ₂₆)	–	dodekan

2. Uglevodorodli va kislotali radikallarning lotincha nomi tegishli uglevodorod va kislotalarning nomlariga *-yl* suffiksini va *-ium* qoshimchasini qoshish orqali hosil qilinadi.

Masalan:

uglevodorod	methanium(CH ₄) aethanium (C ₂ H ₆) pentanium(C ₅ H ₁₂)
radikal	methylium(CH ₃) – metil aethylium (C ₂ H ₅) – etil pentylum seu amylium(C ₅ H ₁₁) – pentil yoki amil
kislota	acidum aceticum acidum formicum
radikal	acetylum (CH ₃ CO) – atsetil formylum (HCO) – formil

Mashqlar

3. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) morfin gidrokslorid
- 2) asosli magniy karbonat
- 3) papaverin gidrokslorid
- 4) asosli vismut nitrat
- 5) adrenalin gidrokslorid
- 6) sulfatsil-natriy

4. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1 .Recipe: Natrii bromidi
Coffeini-natrii benzoatis ana 1,0
Amidopyrini 0,5
Sirupi sacchari 5,0
Aquae destillatae ad 100,0
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.
2. Recipe: Magnesii oxydi 1,5
Bismuthi subnitratis 0,75
Aquae destillatae 75,0
Misce.Da.

Signa: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

3. Recipe: Ephedrini hydrochloridi 0,25

Strychni nitratis 0,01

Tincturae Belladonnae 10,0

Misce. Da.

Signa: Kuniga 2 marta 20 tomchidan ichilsin.

4. Recipe: Tabulettas Oleandomycini phosphatis 0,125 obductas
numero 25

Da.

Signa: Kuniga 4 marta 1 tabletkadan ichilsin.

5. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1.Ol: Natriy bromid

Natriy gidrokarbonat teng miqdorda 4,0

Kodein fosfat 0,12

Valeriana nastoykasi 10,0

Distillangan suv 180,0 gacha

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2.Ol: Temir laktat 1,0

Shunday dozalarda 20 (son)ta jelatinli kapsulalarda ber.

Belgila: Kuniga 3 marta ovqatdan so'ng 1 kapsuladan
ichilsin.

3.Ol: Atropin sulfat 0,0005

Papaverin gidrokslorid

Fenobarbital teng miqdorda 0,02 dan

Shunday dozalarda 10 (son)ta tabletkalarda ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1ta tabletkadan ichilsin.

4.Ol: Kaliy yodid 0,01

Distillangan suv 10 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2-5 tomchidan ichilsin.

6. Pastdagi kataklarda maqol yashiringan. Quyidagi so'zlarning tarjima qilib, , kataklarni to'ldiring, keyin raqamlar bo'yicha harflarni kataklarga yozing va maqolni o'qing.

1) bariy 7) temir 13) oltingugurt 19) azot 30) simob

1	2	3	4	5	6					
7	8	9	10	11	12					
13	14	15	16	17	18					
19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29
30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40

25	13	21		12	23	32	28	13		20	19		35	8	1	5	13
----	----	----	--	----	----	----	----	----	--	----	----	--	----	---	---	---	----

Uyga vazifa

I." Tuzlar nomi. Asos tuzlarning nomi. Kislordsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining nomi. Natriy va kaliy tuzlarning nomi. Yunoncha old qo'shimchali sonlar.Uglevodorodlar, uglevodorodli va kislotali radikallarning nomlanishi" mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Tuzlarning lotincha nomi qanday usulda hosil bo'ladi?
2. Asos tuzlarning lotincha nomi qanday hosil qilinadi?
3. Kislordsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining lotincha nomi qanday hosil qilinadi?
4. Kaliy va natriy tuzlarining lotincha nomi qanday hosil qilinadi?
5. Uglevodorodlar, uglevodorodli va kislotali radikallarning nomlari qanday hosil qilinadi?
6. Yunonchada qanday old qo'shimchali sonlar bor?

II.Tuzlar nomini tarjima qilish uchun zarur bo'lgan o'zbekcha va lotincha suffikslarni va yunoncha old qoshimchali sonlarni yod oling.

III. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) kalsiy xlorat
- 2) kaliy permanganat
- 3) simob dixlorid
- 4) magniy sulfat

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1.Ol: Amidopirin 1,5

Natriy kofein benzoat 0,5

Marvaridgul nastoykasi 3,0

Distillangan suv 100,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Ol: Magniy sulfat

Adonizid teng miqdorda 6,0 dan

Arslonquyruq nastoykasi 4,0

Distillangan suv 100,0 gacha

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.



V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Torfotum, Trianol, Polybiolinum, Vulnusan, Chonsuridum, Epytalaminum, Encadum, Fogemum, Thymalinum, Pentacinum, Zymosani, Ubinonum, Propolis, Carbogenum, Befunginum, Beroxanum, suspensio Propermyl, Apilacum, Mexidolum, Poludonum, unguentum «Propeceum», aërosolum «Proposolum», Oxygenium, Dibunolum, Tetacinum - calcium, Olyphenum, Natrii calcii edetas, Ferrocinum, Myelopidum, acidum carbonicum anhydricum, Cyclosporinum,

Antilimpholinum, Tactivinum, Thymoptinum, Thymactidum, Vilosenum, Thymogenum, Immunofan, Natrii nucleinas, Pyrogenalum, Rebomunyl, Levamisolum, Trimephacinum, Prodigiosanum, Azathioprinum, Batridenum, Crysanolum, Carbolongum, Polyphepanum, Dinatrii aethylendiamintetraacetat, Deferoxaminum, Dextrazoxan, Penicillaminum, Cystamini dihydrochloridum, Psoberanum, Linimentum Thesani, unguentum Diaethoni, Ammifurinum, Psoraleinum, aërosolum «Lioxasolum».



24-AMALIY MASHG'ULOT: III turlanishdagi otlar. Undosh tip. Undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar bilan moslashuvi

98-§. III turlanishdagi otlar

III turlanishdagi otlarga **Genetivus Singularisga** *-is* qo'shimchasiga ega bo'lgan mujskoy, jenskiy va sredniy roddagi otlar kiradi.

Uchala roddagi otlarning **Gen.Sing.**da bir xil qo'shimchaga ega bo'lishi III turlanishdagi otlarning o'ziga xos xususiyatidir.

III turlanishdagi otlar teng murakkab va noteng murakkab otlarga bo'linadi. Teng murakkab otlarda **Gen. Sing.**dagi bo'g'inlar soni **Nom.Sing.** dagi bo'g'inlar soniga teng bo'ladi.

Masalan: apis, apis.

Noteng murakkab otlarda esa **Gen. Sing.** dagi bo'g'inlar soni **Nom. Sing.** dagi bo'g'inlar soniga nisbatan bitta ortiqcha bo'ladi.

Masalan: corpus, corporis.

III turlanishdagi otlarning negizi **Genetivus Singularis** shaklidan *-is* qo'shimchasini olib tashlash bilan hosil qilinadi.

Nom. Sing.	Gen. Sing	Negizi	So'zning lug'at shakli
liquor	liquoris	liquor	liquor, liquoris, m
solutio	solutionis	solution	solutio, solutionis, f
corpus	corporis	corpor	corpus, corporis, n

III turlanishdagi otlar uch tipga bo'linadi:

1.Undosh tip (asosiy tip)

2.Aralash tip

3.Unli tip.

99-§. Undosh tip

Undosh tipga **Genetivus Singularis** da *- is* qo'shimchasiga, **Nominativus Singularis** da esa har xil qo'shimchaga ega bo'lgan mujskoy, jenskiy va sredniy roddagi otlar kiradi.

Masalan: liquor, liquoris, m;
solutio, solutionis, f
corpus, corporis, n.

Undosh tipdagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Mujskoy va jenskiy roddagi otlar kelishiklar bo'yicha turlanganda bir xil qo'shimchalarga ega bo'ladi.

	Singularis			Pluraris		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	cortex	olutio	semen	cortices	solutiones	semina
Gen.	corticis	solutionis	seminis	corticum	solutionum	seminum
Dat.	cortici	solutioni	semini	corticibus	solutionibus	seminibus
Acc.	cortice m	solitione m	semen	cortices	solutiones	semina
Abl.	cortice	solutione	semine	corticibus	solutionibus	seminibus

Causus	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	har xil			es	es	a
Gen.	is	is	is	um	um	um
Dat.	i	i	i	ibus	ibus	ibus
Acc.	em	em	=Nom	es	es	a
Abl.	e	e	e	ibus	ibus	ibus

100-§. Undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar

Undosh tipga kiradigan mujskoy roddagi otlar **Nominativus Singularis** da –
-os, -er, -o, -or, -ex, -es qo‘shimchalariga ega bo‘ladi.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Misollar		Tarjimasi
		Nom. Sing.	Gen. Sing.	
- os	- oris	flos	floris	gul
- or	- oris	sapor	saporis	maza
- o	-onis - inis	carbo homo	carbonis hominis	ko`mir odam
- er	- (e)ris	aether	aetheris	efir
- ex	- icis	cortex	corticis	po`stloq
- es	- itis, - etis - dis	stipes pes	stipitis pedis	poya, novda oyoq

TURLANISH NAMUNASI

Causus	Singularis	Pluraris
Nom.	flos	flores
Gen.	floris	florum
Dat.	flori	floribus
Acc.	florem	flores
Abl.	flore	floribus

**101 -§. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi
undosh tipdagi mujskoy roddagi
otlar bilan moslashuvi**

I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar bilan sona, rodda va kelishikda moslashadi, lekin ularning kelishik qo‘shimchalari har xil bo‘ladi.

Masalan: sariq gul –
Nom. Sing. flos flavus
Gen. Sing. floris flavi.

Turlanish namunasi
Liquor flavus – sariq suyuqlik

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	liquor flav- us	liquor- es flav- i
Gen.	liquor- is flav- i	liquor- um flav- orum
Dat.	liquor- i flav- o	liquor- ibus flav- is
Acc.	liquor- em flav- um	liquor- es flav- os
Abl.	liquor- e flav- o	liquor- ibus flav- is

102-§. Quyidagi so‘z va so‘z iboralarni yod oling!

flos, floris, m - gul
liquor, liquoris, m - suyuqlik, eritma
color, coloris, m - rang
sapor, saporis, m - maza
odor, odoris, m - hid
auctor, auctoris, m - muallif, retsept yozgan kishi
sapo, saponis, m - sovun
carbo, carbonis, m – ko‘mir
pulmo, pulmonis, m – o‘pka
homo, hominis, m - odam
aether, aetheris, m - efir
aër, aëris, m - havo
cortex, corticis, m – po‘stloq
pulvis, pulveris, m - kukun
adeps, adipis, m – yog‘
adeps suillus, adipis suilli – cho‘chqa yog‘i
Adonis, Adonidis, m - adonis
Adonis (idis) vernalis - bahorgi adonis
Adonis (idis) turkestanicus (i) - turkiston adonisi
Bursa (ae) pastoris(is) – jag‘- jag‘, ochambiti



Mashqlar

1. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.*

Gul, ko'mir, maza, o'pka, quticha, granula, kanakunjut.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
cortex - po'stloq	III	m	corticis - po'stloqning	cortices - po'stloqlar	corticum - po'stloqlarning

2. *Quyidagi otlarning lug'at shaklini yozing va negizini aniqlang.*

Pulmo, homo, pulvis, Adonis, sirupus, oleum, gemma.

3. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

Cortex Viburni, flores Arnicae, pulvis Glycyrrhizae, pulvis compositus, flores Tiliae, decoctum florum Tiliae, flores Helichrysi arenarii, pulvis Glycyrrhizae compositus.

4. *Sifatlarni otlarga moslashtiring va so'z iboralarini o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) sapo (medicatus, a, um)
- 2) adeps (suillus, a, um)
- 3) adeps (depuratus, a, um)
- 4) Adonis (sibiricus, a, um)
- 5) aether (purus, a, um)
- 6) carbo (activatus, a, um)
- 7) pulvis (grossus, a, um)
- 8) Adonis (tianschanicus, a, um - tyanshan)



5. *Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) moychechak gullari
- 2) faollashtirilgan ko'mir
- 3) frangula po'stlog'i
- 4) murakkab kukun
- 5) toza efir
- 6) moychechak gullarining damlamasi
- 7) tibbiyot sovuni
- 8) shirinmiyaning murakkab kukuni

6. *Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Recipe: Magnesii oxydi 0,5

Bismuthi subnitratis 0,2

Extracti Belladonnae 0,01

Misce, fiat pulvis.

Signa: Kuniga 2-3 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.

2. Recipe: Liquoris Kalii arsenitis 5 ml
Aquae Menthae 15 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan keyin 3 tomchidan ichishni boshlab, har kuni 1 tomchi qo‘shib borilsin va 10 tomchiga etkazilsin.
3. Recipe: Infusi herbae Bursae pastoris ex 100-200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Infusi florum Tiliae 500 ml
Da.
Signa: Chayqash uchun.
5. Recipe: Decocti corticis Viburni 10,0 - 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
6. Recipe: Calcii carbonatis praecipitati
Natrii hydrocarbonatis
Bismuthi subnitratis ana 0,5
Extracti Belladonnae 0,015
Misce, fiat pulvis.
Da tales doses numero 20.
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.
7. Recipe: Iodi 0,02
Kalii lodidi 0,2
Calcii glycerophosphatis
Phytini ana 4,0
Extracti et pulveris Liquiritiae quantum satis ut fiant pilulae numero 60.
Da.
Signa: Kuniga 2 marta ovqatdan keyin 1 ta habdoridan qabul qilinsin.

7. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

- 1.Ol: Rux oksid 10,0
Talk 40,0
Kukun hosil bo‘lguncha aralashtir.
Ber.
Belgila: Sepki
- 2.Ol: Qaytarilgan temir 1,0
Askorbinat kislota 0,1
Kukun hosil bo‘lguncha aralashtir.
Shunday dozalarda 20 (son)ta jelatinli kapsulalarda ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 4 ta kapsuladan qabul qilinsin.
- 3.Ol: Tozalangan oltingugurt
Magniy oksid

- Shakar teng miqdorda 10,0 dan
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 2 marta yarim choy qoshiqdan qabul qilinsin.
4. Ol: Frangula po‘stlog‘ining qaynatmasi 20,0 : 200 ml.dan
Natriy sulfat 20,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.
- 5.Ol: Dimedrol shamchalaridan 0,010 20(son)ta
Ber.
Belgila: Kuniga 1 ta shamchadan qo‘yilsin.

8. «III turlanishdagi otlar va undosh tip» mavzulari bo‘yicha klaster tuzing.

I. «III turlanishdagi otlar. Undosh tip. Undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatarning III turlanishdagi undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar bilan moslashuvi» mavzularini o‘zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Qaysi otlar III turlanishga kiradi?
2. Teng murakkab va noteng murakkab otlar deganda nimani tushunasiz?
3. III turlanishdagi otlarning o‘ziga xos xususiyati nimadan iborat?
4. III turlanishdagi otlarning negizi qanday hosil qilinadi?
5. III turlanishdagi otlar nechta tipga bo‘linadi?
6. Qaysi otlar undosh tipga kiradi?
7. Mujskoy va jenskiy roddagi otlarning kelishik qo‘shimchalarini ayting.
8. Birinchi guruhdagi sifatlar III turlanishdagi otlar bilan qanday moslashadi?

II. 102-§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|------------|---------------------|
| 1) liquor | a) gul |
| 2) odor | b) maza |
| 3) sapor | c) hid |
| 4) flos | d) suyuqlik, eritma |
| 5) pulvis | e) ko‘mir |
| 6) cortex | f) efir |
| 7) carbo | g) havo |
| 8) aër | h) yog‘ |
| 9) adeps | i) kukun |
| 10) aether | j) po‘stloq |

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini hosil qiling:

kukun, odam, ekstrakt, bodom.

V. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Moychechak gullari 30,0

Ber.

Belgila: Choyga o‘xshatib damlansin.

2. Ol: Evkommiya po‘stlog‘ining qaynatmasi 10,0 - 200 ml. dan

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

VI. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Teturamum, tabulettae Radoteri, Cyamidum, decoctum Lycopodii selaginosi, Litonitum, Bicillinum, Phepranonum, Dexfenfluramine, Benzylpenicillinum - natrium, Benzatine, Benzylpenicillinum - kalium, Benzylpenicillinum - novocainum, Unasyn, Phenoxymethylpenicillin, Azlocillin, Tazocin, Oxacillinum - natrium, Ampicillinum - natrium, Carbenicillinum, Carfecillin, Amoxicillin, Amoxyclav, Piperacillin, Cephazolin, Cephalotin Sodium, Cefalexinum, Cefaclor, Cefuroxim, Tienam, Cefotaxim, Ceftriaxon, Sulperazonum, Cefpirom, Imipenem, Aztreonam, Penamecillin, Neomycin Sulfate, Monomycinum, Kanamycinum, Canoxicelum, Gentamycini sulfas, Tobramycinum, Sisomycin Sulfate, Amicin Sulfate, Tetracyclinum, unguentum Tetracyclini ophthalmicum, tabulettae Tetracyclini et Nystatini obductae, Tetracyclini hydrochloridum, Oxytetracyclini dihydras, Oxytetracyclini hydrochloridum, aërosolum «Oxycortum», unguentum «Hyoxysolum», aërosolum «Oxycyclosolum», Metacyclini hydrochloridum.

VII. Quyidagi maqollarni yod oling.

1. Homo locum ornat, non hominem locus.


O‘rin insonni emas, inson o‘rinni bezaydi.

2. Higiena amica valetudinis.

Ozodalik sog‘liqning garovidir.

3. Consuetudo est altera natura.

Tarki odat amri mahol.



25-AMALIY MASHG`ULOT: III turlanishdagi otlar. Undosh tipdagi j e nskiy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar bilan moslashuvi

103-§. Undosh tipga kiruvchi jenskiy roddagi otlar

Undosh tipga kiruvchi jenskiy roddagi otlar **Nominativus Singularis**da *-io, -do, -go, -ix, -ax, -ux, -s, -is, -as* qo‘shimchalariga ega.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Misollar		
		Nom. Sing.	Gen. Sing.	Tarjimasi
-io	-onis	solutio	solutionis	eritma
-do	-inis	hirudo	hirudinis	zuluk
-go	-inis	mucilago	muculaginis	shilliq
-ix	-icis	radix	radicis	ildiz
-ax	-acis	borax	borax	bura
-ux	-ucis	Nux	Nucis	yong‘oq
-s	-dis	Berberis	Berberidis	zirk
-is	-idis	Arachis	Arachidis	yeryonioq
-as	-atis	sanitas	sanitatis	sog‘liq

104-§. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar bilan moslashuvi
radix amara – achchiq ildiz

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	radix amar- a	radic- es amar- ae
Gen.	radic- is amar- ae	radic- um amar- arum
Dat.	radic- i amar- ae	radic- ibus amar- is
Acc.	radic- em amar- am	radic- es amar- as
Abl.	radic- e amar- a	radic- ibus amar- is

105-§. Quyidagi so‘z va so‘z iboralarni yod oling!

solutio, solutionis, f - eritma

mixtio, mixtionis, f - aralashma

aspersio, aspersionis, f - sepma dori

suspensio, suspensionis, f - suspenziya, shilliq

injectio, injectionis, f - in‘ektsiya
 pro injectionibus - in‘ektsiyalar uchun
 inhalatio, inhalationis - ingalyatsiya
 pro inhalationibus - ingalatsiyalar uchun
 mucilago, mucilaginis, f - shilliq eritma
 radix, radicis, f - ildiz, tomir
 borax, boracis, f – bura
 praescriptio, praescriptionis, f - retsept
 faex, faecis, f - achitqi
 pix, picis, f - smola, qatron
 Pix liquida, Picis liquidae - qoramoy, qatron
 hirudo, inis, f - zuluk
 Plantago, Plantaginis, f - zupturum
 Plantago (inis) major (oris) - katta zupturum
 Plantago (inis) psyllium (i) - burga zupturum
 Thermopsis, Thermopsidis, f - termopsis (afsonak)
 Thermopsis (idis) lanceolata (ae) - nishtarsimon termopsis
 Thermopsis (idis) alterniflora (ae) - ketma - ket gulli termopsis
 Berberis, Berberidis, f - zirk
 Berberis (idis) vulgaris - oddiy zirk
 Zea mays, Zeae maydis – makkajo‘xori
 Nux, Nucis, f –yong`oq
 Nux vomica, Nucis vomicae - kuchala
 Filix, Filicis, f - qirqquloq, paporotnik
 Filix mas, Filicis maris - erkak paporotnik
 Menyanthes, Menyanthidis, f - meniantes
 Menyanthes(idis) trifoliata(ae) - uchbargli meniantes (uchbarg)

Mashqlar

1. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini hosil qiling.

Ildiz, inyektsiya, achitqi, tabletka, sharbat, shamcha, gul.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
solutio - eritma	III	f	solutionis - eritmaning	solutiones - eritmalar	solutionum- eritmalarining

2. Sifatlarni otlarga moslashtiring va so‘z iboralarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) solutio (oleosus, a, um)
- 2) pix (liquidus, a, um)
- 3) solutio (isotonicus, a, um)

- 4) solutio (spirituosus, a, um)
- 5) Thermopsis (lanceolatus, a, um)
- 6) Thermopsis (turkestanicus, a, um).

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Solutio Iodi spirituosa.
2. Solutio Natrii chloridi isotonica pro injectionibus.
3. Solutio Hydrogenii peroxydi diluta.
4. Solutio Hydrogenii peroxydi concentrata.
5. Solutio Acidi borici spirituosa.
6. Solutio Acidi borici in Glycerino.
7. Solutio Natrii adenosintri phosphatis pro injectionibus.
8. Solutio Camphorae et Acidi salicylici spirituosa.
9. Suspensio Hydrocortisoni.
10. Extractum Nucis vomicae siccum.

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) zipturum barglari
- 2) gulxayri ildizining qaynatmasi
- 3) qoqi ildizi
- 4) nishtarsimon termopsisning yer ustki qismi
- 5) amikazol sepkisi
- 6) ravoch ildizining tabletkalari
- 7) meniantes bargi
- 8) kraxmal shillig`i eritmasi
- 9) zirk ildizining po`stlog`i
- 10) termopsisning quruq ekstrakti

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Solutionis Glucosi 5 % 50 ml
Da tales doses numero 6 in ampullis
Signa: Ko'k tomirga quyish uchun.
1. Recipe: Suppositoria cum Theophyllino 0,2 numero 20
Da.
Signa: Kuniga 1-2 ta shamchadan qo'silsin.
2. Recipe: Suspensionis Hydrocortisoni acetatis 0,5% 10 ml
Da.
Signa: Kuniga 4 marta 2 tomchidan ko'zga tomizilsin.
3. Recipe: Solutionis Calcii gluconatis 10% 10 ml
Da tales doses numero 10 in ampullis.
Signa: Mushaklar orasiga 5 ml. dan yuborilsin.
4. Recipe: Infusi radice Althaeae 3,0 : 100 ml
Sirupi Althaeae 20 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

5. Recipe: Pulveris radicis Rhei
Magnesii oxydi ana 0,3
Extracti Belladonnae 0,015
Misce, fiat pulvis.
Da tales doses numero 10.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Xloralgidrat 1,0
Kraxmal shillig'i eritmasi
Distillangan suv teng miqdorda 25 ml. dan
Aralashtir. Ber.
Belgila: 1 ta klizma qilish uchun.
2. Ol: Qatron
Kseroform teng miqdorda 3,0 dan
Kanakunjut moyi 100,0 gacha
Aralashtir. Ber.
Belgila: Suyuq surtma.
3. Ol: Valeriana ildizining damlamasi 20,0: 200 ml. dan
Arslonquyruq nastoykasi 20 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Ol: Zupturum barglarining damlamasi 20,0: 200 ml. dan
Ber.
Belgila: Kuniga 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
5. Ol: Skopolamin gidrobromid 0,0025
Promedol 0,1
Efedrin gidroxlorid 0,25
In'jektsiya uchun suv 5 ml
Aralashtir. Sterilizatsiya qil.
Ber.
Belgila: 1 ml.dan teri ostiga yuborilsin.
6. Ol: Atseklidin surtmasidan 3% 5,0
Ber.
Belgila: Ko'z uchum surtma.

7. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Amidopyrinum purum est pulvis albus crystallisalus. 2. Kalii perman-ganas ut remedium externum antisepticum adhibetur. 3. Carbo activatus in pulveribus et in tabulettis fabricatur. 4. Mentholum in oleo Menthae piperitae aethereo continetur. 5. Amylum est pulvis sine odore et sapore. 6. Nux vomica planta venenata est. 7. Infusum radicis Taraxaci ut amarum et cholagogum praescribitur. 8. Extractum Filicis maris spissum in capsulis gelatinosis sumitur.

I. «Undosh tipga kiradigan jenskiy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar bilan moslashuvi» mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar

yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Undosh tipga kiradigan jenskiy roddagi otlar **Nom. Sing.** da qanday qo'himchalarga ega?
2. Undosh tipga kiradigan jenskiy roddagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchalarini ayting.

II. 105-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|---------------|-------------------|
| 1) solutio | a) ildiz |
| 2) radix | b) makkajo'xori |
| 3) mucilago | c) meniantes |
| 4) mixtio | d) eritma |
| 5) pix | e) zupturum |
| 6) Berberis | f) smola, qatron |
| 7) Nux | g) aralashma |
| 8) Plantago | h) yong'oq |
| 9) Menyanthes | i) zirk |
| 10) Zea mays | j) shilliq eritma |

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.

Zuluk, shilliq eritma, ko'mir, suv, suyuq surtma

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
mixtio - aralashma	III	f	mixtionis - aralashmaning	mixtiones - aralashmalar	mixtionum-aralashmalar-ning

V. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) zupturum shirasi
- 2) kamforaning moyli eritmasi
- 3) gulxayri ildizining damlamasi
- 4) yodning spirtli eritmasi

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Oleum jecoris depuratum pro usum interno, oleum jecoris Aselli, Acitretin, Isotretinoine, Carotin, Thiaminum, Thiamini bromidum, faex medicinalis, Rutinum, Serevisiae fermentum siccum depuratum, solutio "Thiodinum", Cabamamidum, Pyridoxini hydrochloridum, Riboflavinum, Phosphothiaminum, Cocarboxylasum, Pyridoxinum, Benphothiaminum, Riboflavinum-mononucleotidum, Flavinatum, Pyridoxalphosphatum, Cyanocobalaminum, Oxycobalaminum, Vitohepatum, Acidum folicum, Calcium folinate, Acidum ascorbinicum, sirupus ex fructibus Rosae, Calcipotriol, Calcium pantothenate, Galascorbinum, Quercetinum, Acidum

nicotinicum, Nicotinamidum, Artrotec, Panthenol, Tocopheroli acetas, Profecundin, Phytomenadionum, Cholecalciferolum, Vigantol, Carotini, Oxidevitum, Misoprostol, Latanoprost, Videcholum, Calcitriol, Alphacalcidol, Methylmethioninsulfonii chloridum, Calcii pangamas, Cholini chloridum, Acidum lipoicum, Lipamidum, Vikasolum, Ergocalciferolum.

VII. Quyidagi maqol va hikmatni yod oling!

1. Carpe diem.
Bugungi ishni ertaga qo‘yma.
2. Plato amicus, sed magis amica veritas.
Menga Aflotun - do‘st, ammo haqiqat undan ham qimmatlidir.



26-AMALIY MASHG'ULOT: III turlanishdagi otlar. Undosh tipdagi sr e dny roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi sredniy roddagi otlar bilan moslashuvi

106-§. Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlar

Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlar **Nominativus Singularisda** **-en, -ma, -l, -us, -ur** qo'shimchalariga ega.

-us qo'shimchasi bilan tamomlanadigan so'zlar jenskiy va sredniy roddagi otlar bo'lishi mumkin. Agar bu otlar qaratqich kelishigida **-oris** yoki **-eris** qo'shimchalariga tugallansa, ular sredniy roddagi otlarga kiradi.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Misollar		
		Nom. Sing.	Gen. Sing.	Tarjimasi
-en	-inis	semen	seminis	urug'
-ma	-atis	rhizoma	rhizomatis	ildizpoya
-l	-lis	mel	mellis	asal
-us	-oris	corpus	corporis	tana, gavda
	-eris	genus	generis	avlod
-ur	-uris	sulfur	sulfuris	oltingugurt
	-oris	jecur	jecoris	jigar

107-§. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi sredniy roddagi otlar bilan moslashuvi
semen amarum – achchiq urug'

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	semen amar- um	semin- a amar- a
Gen.	semin- is amar- i	semin- um amar- orum
Dat.	semin- i amar- o	semin- ibus amar- is
Acc.	semen amar- um	semin- a amar- a
Abl.	semin- e amaro	semin- ibus amar- is

108-§. Quyidagi so'z va so'z iboralarni yod oling!

nomen, nominis, n - ism, nom, nomlanish

semen, seminis, n – urug'

alumen, aluminis, n, - achchiqtosh (faqat birlikda ishlatiladi)

stigma, stigmatis, n, – og'izcha

gargarisma, gargarismatis, n - chayish, chayqash

rhizoma, rhizomatis, n - ildizpoya

rhizoma(atis) cum radicibus - ildizpoya ildizlari bilan

sulfur, sulfuris, n - oltingugurt

corpus, corporis, n - tana, gavda
 lac, lactis, n - sut
 elixir, elixiris, n - eliksir
 os, oris, n – og‘iz
 piper, piperis, n -murch
 Polygonum(i) hydropiper(eris) - achchiq toron, suvqalampir
 Echinopanax, Echinopanax, n - exinopanax
 Echinopanax(acis) elatum (i) - baland exinopanax

QUYIDAGI SO‘Z IBORALARINI ESLAB QOLING!

per os – og‘iz orqali
 per rectum – to‘g‘ri ichak orqali.

Mashqlar

1. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini hosil qiling.

Sut, urug‘, og‘izcha, gul, sharcha, moy.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
rhizoma-ildizpoya	III	n	rhizomatis-ildizpoyaning	rhizomata-ildizpoyalar	rhizomatum-ildizpoyalarning

2. Sifatlarni otlarga moslashtiring va so‘z iboralarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---------------------------------|--------------------------------|
| 1) Echinopanax (elatus, a,um) | 4) corpus (luteus, a,um) |
| 2) sulfur (praecipitatus, a,um) | 5) plasma (siccus, a,um) |
| 3) alumen (ustus, a,um) | 6) gargarisma (frigidus, a,um) |

3. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) stigmata Maydis
- 2) rhizoma cum radicibus Valerianae
- 3) radix Glycyrrhizae
- 4) rhizoma cum radicibus Echinopanax
- 5) rhizoma Bistortae
- 6) rhizomata et radices Rubiae
- 7) herba Polygoni hydropiperis
- 8) rhizomata Filicis maris

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) qovoq urug‘lari
- 2) tozalangan oltingugurt
- 3) zig‘ir urug‘lari
- 4) sangviorba ildizpoyasi bilan ildizlari

- 5) strofant urug‘lari
- 6) achchiq bodom urug‘lari
- 7) ilonsimon toron ildizpoyasi
- 8) maralquloq ildizpoyasi bilan ildizlari
- 9) g‘ozpanja ildizpoyasi
- 10) achchiq toronning suyuq ekstrakti

5. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Aluminis 3,0
Decocti foliorum Salviae 300 ml
Misce. Da.
Signa: Tomoqni chayish uchun.
2. Recipe: Aluminis 4,0
Acidi borici 6,0
Aquae destillatae 200 ml
Misce. Da.
Signa: Malham
3. Recipe: Stigmatum Maydis 10,0
Da.
Signa: 1 stakan qaynagan suvda yarim soat damlansin va har
3 soatda 1-2 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Extracti Polygoni hydropiperis fluidi
Extracti Viburni fluidi ana 20 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 25 tomchidan ichilsin.
5. Recipe: Solutionis Collargoli 3 % 10 ml
Da in vitro nigro.
Signa: Ko‘z tomchisi
6. Recipe: Solutionis Oxylidini 2% 1 ml
Da tales doses numero 10 in ampullis.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ml.dan mushaklar orasiga
yuborilsin.
7. Recipe: Picis liquidae
Sulfuris praecipitati ana 5,0
Vaselini 50,0
Misce, fiat unguentum.
Da.
Signa: Sirtidan qo‘llash uchun.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Achchiq toron er ustki qismi damlamasi 20,0: 200 ml. dan
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Ol: Makkajo‘xori og‘izchasining suyuq ekstrakti 20 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta ovqatdan oldin 30-40 tomchidan ichilsin.

3. Ol: Skipidar
Xloroform teng miqdorda 15 ml. dan
Metilsalitsilat 10 ml
Suyuq surtma hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber.
Belgila: Bo'g'imlarga surilsin.
4. Ol: Belladonna ekstrakti 0,015
Natriy gidrokarbonat 0,25
Shunday dozalarda 6(son)ta tabletkalarda ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
5. Ol: Protargol eritmasi 1% 10 ml
Qoramtir shisha idishda ber.
Belgila. Ko'z tomchisi.
6. Ol: Gulxayri ildizining damlamasi 6,0 : 180 ml
Shirinmiya sharbati 200 ml.gacha
Aralashtir.
Ber.
Belgila: Har 2 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

7. O'zbek tiliga tarjima qiling. III turlanishidagi otlarning lug'at shaklini yozing.

1. Aluminium sulfuricum cum Kalio sulfurico Alumen nominatur. 2. Pix liquida est liquor spissus. 3. Praeparate solutionem Aluminis usti. 4. Stigmata Maydis ut remedium diureticum et cholagogum adhibentur. 5. Serva elixir compositum cum extracto Glycyrrhizae in ollis bene obturatis.

I.« III turlanishdagi otlar. Undosh tipdagi sredniy roddagi otlar. I-II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi sredniy roddagi otlar bilan moslashuvi» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?
2. Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlarning **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** qo'shimchalarini ayting.
3. I-II turlanishdagi sifatlarning undosh tipdagi sredniy roddagi otlar bilan qanday moslashadi?

II.108-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|---------------|------------------------|
| 1) semen | 1) chayish, chayqash |
| 2) nomen | 2) og'izcha |
| 3) gargarisma | 3) tana, gavda |
| 4) rhizoma | 4) urug' |
| 5) stigma | 5) eliksir |
| 6) lac | 6) ism, nom, nomlanish |
| 7) piper | 7) og'iz |

- | | |
|-----------|---------------|
| 8) corpus | 8) murch |
| 9) elixir | 9) sut |
| 10) os | 10) ildizpoya |

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.

Nom, chayish, murch, ildiz.

V. Terminlarning shartli itasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) bodom urug'lari
- 2) eleuterokok ildizpoyasi bilan ildizi
- 3) jenshen ildizi
- 4) qayin qatroni

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Doxycyclini hydrochloridum, Erythromycinum, Erythromycini phosphas, Erycyclinum, Spiramycin, Oleandomycini phosphas, Oletetrinum, Iruzol, Roxithromycin, Clindamycin, Intetrix, Azithromycin, Lincomycini hydrochloridum, Mesalazine, Laevomycetinum, Laevomycetini stearas, Laevomycetini succinas solubile, Laevovinisolum, Synthomycinum, Fugantin, Linimentum Algimafum, Synthomycini cum Novocaino, Polymyxini sulfas, Ristomycini sulfas, Fusidinum - natrium, Acidum fusidicum, Diaethanolamini fusidas, gelium «Fusidinum», gelium «Prefuzinum», Streptocidum, unguentum Streptocidi, Streptocidum solubile, Norsulfazolum, Sulfazinum, Sulfarginum, Sulfadimezinum, Aethazolum, Aethazolum - natrium, Sulfacylum - natrium, Urosulfanum, Sulfapyridazinum, Dermosolon, Sulfatonum, Sulfamonomethoxinum, Sulfadimethoxinum, Sulfamethoxazolum, Sulfalenum, Sulfalenum – megluminum, Lidaprim, Nitroxolinum, Co - Trimoxazole, Sulfasalazine, Salazopyridazinum, Salazodimethoxinum, Acidum nalidixicum, Chlorchinaldolum, Chiniofonum, Acidum oxolinicum, Acidum pipemidiecum, Pefloxacinum.

VII. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Non progredi est regredi.

Olg'a intilmaslik, orqada qolmoq demakdir.

2. Est modus in rebus.

Hamma narsaning chegarasi bor.

109-§. Aralash tipdagi otlar


Aralash tipga uchala roddagi, lekin asosan jenskiy roddagi otlar kiradi. Ularni ikkita guruhga bo`lish mumkin:

1. Negizi ikkita unsiz tovush bilan tamomlanadigan otlar.

Masalan: - pars, partis, f -qism, bo`lak.

2. -es va -is bilan tamomlanadigan teng murakkab otlar.

Masalan: apis, apis, f – asalari.



ARALASH TIPDAGI OTLARNING KELISHIK QO`SHIMCHALARI

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	har hil	es
Gen.	is	ium
Dat.	i	ibus
Acc.	em	es
Abl.	e	ibus

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	pars	partes
Gen.	partis	partium
Dat.	parti	partibus
Acc.	partem	partes
Abl.	parte	partibus

-is bilan tamomlanadigan teng murakkab otlar yunonchadan otgan so`zlar bo`lib, kelishiklar bo`yicha quyidagicha turlanadi:

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	dosis	doses
Gen.	dosis	dosium
Dat.	dosi	dosibus
Acc.	dosim	doses
Abl.	dosi	dosibus

110-§. Quyidagi soʻzlarni yod oling!

pars, partis, f - qism, boʻlak
dens, dentis, f - tish
infans, infantis, m, f - bola
pro infantibus - bolalar uchun
Vitis(is) idaea(ae) - brusnika
Bidens, Bidentis, f - qoraqiz (ittikanak)
Bidens(ntis) tripartita(ae) - uch boʻlakli qoraqiz (ittikanak)
Digitalis, Digitalis, f - angishvonagul
Digitalis(is) purpurea(ae) - qizil angishvonagul
Digitalis(is) grandiflora(ae) - yirik gulli angishvonagul

111-§. Quyidagi yunonchadan kirib kelgan teng murakkab otlarni yod oling!

narcosis, narcosis, f – narkoʻz
pro narcosi - narkoz uchun
basis, basis, f - asos, negiz
diagnosis, diagnosis, f -diagnoz
tussis, tussis, f –yoʻtal, yoʻtalish
contra tussim – yoʻtalga qarshi
dosis, dosis, f - doza
Sinapis, Sinapis, f - xantal, gorchitsa
charta (ae) Sinapis(is) - xantal qogʻozi, gorchichnik

112-§. QUYIDAGI SOʻZ IBORALARINI ESLAB QOLING!

Ex tempore - keragida, kerak paytida
Oleum(i) jecoris Aselli -baliq yogʻi (treska baliq i jigarining moyi).

Mashqlar

1. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va koʻplik son shakllarini hosil qiling.*

Bola, tish, moy, shira, achitqi, ogʻiz, oʻsimlik.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
pars-qism	III	f	partis-qismning	partes-qismlar	partium-qismlarning

2. *Sifatlarni otlarga moslashtiring. Soʻz iboralarini oʻzbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) rhizoma (albus, a, um)
- 2) Digitalis (purpureus, a, um)

- 3) Capsicum (niger, gra, grum)
- 4) cortex (concisus, a, um)
- 5) radix (concisus, a, um)
- 6) sapo (medicatus, a, um).

3. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) pulvis antisepticus
- 2) Magnesii subcarbonas
- 3) infusum foliorum Digitalis
- 4) Radix Taraxaci cum herba
- 5) adeps suillus depuratus
- 6) cortex radices Gossypii
- 7) solutio Hydrogenii peroxydi diluta
- 8) solutio Natrii phosphatis pro injectionibus.

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) makkajo‘xori kraxmali
- 2) qoraqiz er ustki qismining briketi
- 3) angishvonagul bargi
- 4) angishvonagul barglarining kukuni
- 5) gulxayri ildizining qaynatmasi
- 6) jag‘-jag‘ning suyuq ekstrakti
- 7) vitaminlashtirilgan baliq yog‘i
- 8) metilen ko‘kining spirtli eritmasi
- 9) zirk ildizining po‘stlog‘i
- 10) erkak paporotnikning quyuq ekstrakti

5. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Aspersionis Amycazoli 2 % 100
Da.
Signa: Sepma gopu.
2. Recipe: Pulveris Liquiritiae compositi 20,0
Da.
Signa: Kuniga 2 marta 1 choy qoshiqdan qabul qilinsin.
3. Recipe: Infusi herbae Bursae pastoris 10,0 : 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Infusi radices Valerianae ex 12,0:100 ml
Infusi foliorum Menthae ex 4,0:100 ml
Natrii bromidi 5,0
Codeini phosphatis 0,2

Barbitali - natrii 2,0
Extracti Crataegi fluidi 10 ml
Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

5. Recipe: Solutionis Natrii salicylatis 10 % 5 ml

Da tales doses numero 6 in ampullis.

Signa: Kuniga 2 marta 5 ml.dan ko'k tomirga yuborilsin.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Achchiqtosh

Rux sulfat teng miqdorda 5,0 dan

Qo'rg'oshin atsetat 2,0

Tanin 0,6

Aralashtir. Ber.

Belgila: 1 litr suvga 0,5 choy qoshiq solinsin. Purkab yuvish uchun.

2. Ol: G'ozpanja ildizpoyasining qaynatmasi 6,0: 150 ml.dan

Qand sharbati 10,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.

3. Ol: Shirinmiya ildizining qaynatmasi 5,0: 100 ml. dan

Magniy sulfat 3,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4. Ol: Angishvonagul barglarining kukuni 0,05

Qand 0,3

Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.

Shunday dozalarda 12(son)ta ber.

Belgila. Kuniga 3 marta 1ta poroshokdan qabul qilinsin.

5. Ol: Metilen ko'kning suvli eritmasi 1% 20 ml

Ber.

Belgila: Og'izga surtish uchun.

7. O'zbek tiliga tarjima qiling. III turlanishidagi otlarning tipini va roдини aniqlang.

1. Amylum Maydis e granis Zeae maydis conficitur. 2. Infusum radice Taraxaci ut amarum et cholagogum praescribitur. 3. Extractum Filicis maris spissum in capsulis gelatinosis sumitur. 4. Solutio Corticotropini ex tempore paratur. 5. Praeparate decoctum ex herba Bidentis 6. «Corgly-conum» ad morbos cardiacos praescribitur 7. Emulsa et decocta ex tempore praeparantur. 8. Pix liquida in compositionem unguenti Wilkinsoni et Vischnevsky includitur.

8. «Aralash tipdagi otlar» mavzusi bo'yicha klaster tuzing.

I. «Aralash tipdagi otlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Aralash tipga qaysi otlar kiradi?

2. Aralash tipga kiradigan otlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday

qo‘shimchalarga ega?

3. Aralash tipga kiradigan otlarning **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** qo‘shimchalarini ayting.

II. 110,111,112-§§ dagi so‘z va so‘z iboralarini yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------------------|------------------------------|
| 1) dens | 1) qism, bo‘lak |
| 2) infans | 2) brusnika |
| 3) pars | 3) keragida |
| 4) Bidens | 4) tish |
| 5) ex tempore | 5) qoraqiz |
| 6) Digitalis | 6) uch bo‘lakli qoraqiz |
| 7) Vitis idaea | 7) yirik gulli angishvonagul |
| 8) Digitalis purpurea | 8) angishvonagul |
| 9) Bidens tripartita | 9) qizil angishvonagul |
| 10) Digitalis grandiflorae | 10) bola |

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini hosil qiling.

Mikstura, ko‘mir, ildizpoya, ekstrakt, angishvonagul.

V. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) baliq moyi emulsiyasi
- 2) kortizon atsetat suspenziyasi
- 3) amikazol sepma dorisi
- 4) valeriananing quruq ekstrakti

VI. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Infusi foliorum Bidentis tripartitae ex 10,0:200 ml

Da.

Signa: Kuniga 2-3 marta ovqatdan oldin 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Recipe: Cotarnini chloridi 0,2

Aquae pro injectionibus 10 ml

Misce. Sterilisa. Da.

Signa: Teri ostiga 1 ml.dan

yuborilsin.

VII. TO‘G‘RI O‘QISHNI O‘RGANING!

Norflaxacin, Ciprofloxacina, Soluthizonum, Chinoxidinum, Furaginum, Intron, Ofloxacin, Lomefloxacina, Oxolinum, Dioxydinum, aërosolum «Dioxyplast», Algiporum, Furacilinum, Betaferon, Furaplastum cum Perchlorvinylo, Furadoninum, Lifusolum, Lamivudin, unguentum «Fastinum», unguentum «Fulevil», Clefurinum, Furazolidonum, Furazolinum, unguentum Chinifurili, Isoniazidum, solutio «Isonides», Phthivazidum, Saluzidum solubile, Methazidum, Protionamide, Ethambutol, Thioacetazonum, Natrii para- aminosalicylas,

solutio Natrii para-aminosalicylatis pro injectionibus, Bepascum, Calcium para - benzamidosalicylicum, Streptomycini sulfas, Streptasaluzidum, Streptomycini et Calcii chloridum, Reaferonum, Pasomicinum, Rifampicinum, Bonaphtonum, Rifabutin, Cyclaserinum, Florimycini sulfas, Tebrophenum, Arbidolum, Diaphenylsulfonum, Florenalum, Poludonum, Riodoxolum, Solusulfonum, Interferonum leucocyticum humanum siccum, Remantadinum, Adaprominum, Deitiforinum, Methisazonum, Idoxuridine, Amphoglucaminum.

28-AMALIY MASHG`ULOT: Unli tipdagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III -turlanishdagi unli tipdagi otlar bilan moslashuvi. Yunon - lotin termin elementlari

113-§. Unli tipdagi otlar

Unli tipdagi otlarga **Nominativus Singularis** da **-ar, -al, -e** qo‘shimcha-lariga ega bo‘lgan sredniy roddagi otlar kiradi.

Nom.Sing.	Gen. Sing.	Misollar		
		Nom.Sing.	Gen.Sing.	Tarjimasi
-ar	-aris	exemplar	exemplaris	nusxa
-al	-alis	animal	animalis	hayvon
-e	-is	secale	secalis	shoxkuya

Unli tipdagi otlarning kelishik qo‘shimchalari

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	har xil	ia
Gen.	is	ium
Dat.	i	ibus
Acc.	=Nom	ia
Abl.	i	ibus

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	animal	animalia
Gen.	animalis	animalium
Dat.	animali	animalibus
Acc.	animal	animalia
Abl.	animali	animalibus

114-§. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi unli tipdagi otlar bilan moslashuvi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	Nuphar luteum	Nuphar- ia lute- a
Gen.	Nuphar- is lute- i	Nuphar- ium lute- orum
Dat.	Nuphar- i lute- o	Nuphar- ibus lute- is
Acc.	Nuphar lute- um	Nuphar- ia lute- a
Abl.	Nuphar- i lute- o	Nuphar- ibus lute- is

Nuphar luteum –sariq nufar

115-§. Quyidagi soʻzlarni yod oling!

animal, animalis, n - hayvon

sal, salis, n - tuz

Nuphar, Nupharis, n - nufar

Nuphar(is) luteum(i) - sariq nufar

Secale(is) cornutum(i) - shoxkuya

116-§. QUYIDAGI SOʻZ IBORALARNI ESLAB QOLING!

Solutio(onis) Ammonii caustici - novshadil spirit

Liquor(oris) Ammonii anisatus(i) - novshadil - arpabodiyon tomchilari

Liquor(oris) Burovi - Burov suyuqligi

117-§. QUYIDAGI YUNON - LOTIN TERMIN ELEMENTLARINI YOD OLING!

Bu atama elementlar organlarni ifodalovchi TE lari boʻlib, patologik va klinik atamalar tarkibida uchraydi.

Termin elementlari	Oʻqilishi	Maʼnosi
1	2	3
aden (o)-	aden (o)-	bez
angi (o)-	angi (o)-	tomir
arthr(o)-	arthr(o)-	boʻgʻim
cardi(o)-	kardi(o)	yurak
cholecyst(o)-	xoletsist(o)-	oʻt pufagi
col(o)-	kol(o)-	yoʻgʻon ichak
colp(o)-	kolp(o)-	qin
cyst(o)-	tsist(o)-	siydik pufagi
dermat(o)-	dermat(o)-	teri
duoden(o)-	duoden(o)-	oʻn ikki barmoqli ichak
enter(o)-	enter(o)-	ingichka ichak, ichak
gastr(o)-	gastr(o)-	oshqozon
hepat(o)-	g`epat(o)-	jigar
hist(o)-	gist(o)-	toʻqima
histi(o)-	gisti(o)-	
laryng(o)-	laring(o)-	hiqildoq
mast(o)-	mast(o)-	sut bezi
my(o)-	mi(o)	mushak
nephr(o)-	nefr(o)-	buyrak
neur(o)-	nevr(o)-	asab
	neyr(o)-	

Mashqlar

1. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.*

Tuz, kukun, shira, mum, oltingugurt, ildiz.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Sing.	Gen. Plur.
hirudo - zuluk	III	f	hirudinis - zulukning	hirudines - zuluklar	hirudinum- zuluklarning

2. *Qavs ichida berilgan so'zlardan foydalanib, dorivor preparatlar nomini tuzing va o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) mucilago (amylum)
- 2) infusum (folium, Mentha)
- 3) pulvis (Liquiritia)
- 4) extractum (stigma, Mays)
- 5) emulsum (semen, Juglans)
- 6) decoctum (rhizoma, Tormentilla).

3. *Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) xantal urug'i
- 2) quruq yo'tal
- 3) sariq nufar
- 4) karlsbad tuzi (karlsbad - carolinus, a, um)
- 5) shoxkuyaning quruq ekstrakti
- 6) moychechakning quritilgan gullari
- 7) shoxkuya damlamasi
- 8) retinol atsetatning moyli eritmasi
- 9) sariq nufar ildizpoyasi
- 10) meniantesning yer ustki qismi qaynatmasi
- 11) zig'ir urug'ining shillig'i
- 12) karlsbad sun'iy tuzi (sun'iy - factitius, a,um).

4. *Quyidagi atamalarni tarkibiy qismlarga ajrating va ma'nosini tushuntiring.*

Myocardium, neuropathologia, laryngospasmus, gastroenterologia, mastopathia, nephrophthia, osteopathia, gastropathia, proctospasmus, otitis, otoneurologia, anaesthesia, haematologia.

5. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) formae remediorum pro infantibus
- 2) mixtio pro inhalationibus
- 3) folium Plantaginis concisum
- 4) extractum Filicis maris spissum
- 5) Chloroformii pro narcosi

- 6) semina Sinapis
- 7) tabulettae contra tussim
- 8) solutio Adrenalini hydrotartratis pro injectionibus.

6. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tabulettas contra tussim numero 10
Da.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
2. Recipe: Salis carolini factitii 10,0
Da.
Signa: 1 stakan suvga 1 osh qoshiqdan solib, kechasiga ichilsin.
3. Recipe: Natrii hydrocarbonatis
Natrii benzoatis ana 0,5
Liquoris Ammonii anisati 4 ml
Sirupi Sacchari 10 ml
Aquae Menthae ad 100 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Boli albae 5,0
Mucilaginis Amyli
Misce. Da.
Signa: Har 2-3 soatda 1 choy qoshiqdan ichilsin.
5. Recipe: Infusi herbae Thermopsidis 0, 1: 100 ml
Liquoris Ammonii anisati 1 ml
Natrii benzoatis 0, 6
Sirupi Althaeae 20 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

7. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Glyukoza eritmasi 20% - 200 ml
Sulfadimezin 4,0
Novshadil - arpabodiyon tomchisi 2 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Ol: Valeriana ildizi damlamasi 6,0:200 ml.dan
Natriy bromid
Natriy ftorid teng miqdorda 2,0 dan
Kodein fosfat 0,15
Achchiq bodom suvi 4 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3. Ol: Natriy benzoat 0,6
Novshadil arpabodiyon tomchisi 1 ml
Gulxayri sharbati 25 ml
Distillangan suv 60 ml. gacha
Aralashtir. Ber.
Belgila: Har 2-3 soatda 1 choy qoshiqdan ichilsin.
4. Ol: Zupturum barglarining damlamasi 10,0: 200 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
5. Ol: Morfin gidroxloridning 1% eritmasi 1 ml
Shunday dozalarda 6 (son) ta ampulalarda ber.
Belgila: 1 ml.dan teri ostiga yuborilsin.

8. Yunonchadan kirib kelgan otlarni toping va ularning lug‘at shaklini ayting. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1.Chloretoni 0,3 - 0,5 pro dosi ut sedativum, at 0,5 - 1,0 pro dosi ut hypno-ticum praescribuntur. 2. Apitritum est unguentum ex veneno Apis, oleo Terebinthinae, camphora, glycerino. 3.Novocaini basis in Pharmacopoea Internationali Procainum vocatur.4.Diagnosis bona - curatio bona. 5.Oleum jecoris Aselli vitamina D et A continet. 6. Ergotalum est praeparatum Secalis cornuti.

I.« Unli tipdagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi unli tipdagi otlar bilan moslashuvi. Yunon - lotin termin elementlari» mavzularini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Qaysi otlar unli tipga kiradi?
2. Unli tipdagi otlarning **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** qo‘shimchalarini ayting.
3. Unli tipdagi otlar **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** da qanday qo‘shimchalarga ega?

II. 115,116 -§§dagi so‘z va so‘z iboralarini va 116-§dagi TE yod oling.

III. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini hosil qiling.

Son, surtma, hayvon, shilliq (eritmasi), kurtak.

IV. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) suvli eritma
- 2) qirg‘ilgan barglar
- 3) tozalangan oltingugurt
- 4) erkak paporotnikning quritilgan ildizpoyasi
- 5) makkajo‘xori og‘izchasining suyuq ekstrakti

V. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Shoxkuyaning suyuq ekstrakti
Suvqalampirning suyuq ekstrakti
Jag‘-jag‘ning suyuq ekstrakti teng miqdorda 10 ml.dan
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 30 tomchidan ichilsin.
2. Ol: Tozalangan cho‘chqa moyi 15,0
Xloroform 7,5
Aralashtir. Ber.
Belgila: Surtish uchun.
3. Ol: Moychechak gullarining damlamasi 2,0:100 ml.dan
Ber:
Belgila: 1 yoshli bolaga kuniga 2 marta 1 choy qoshiqdan
ichilsin.

VI.To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Aciclovir, Bigumalum, Gancielovir, Ribavirin, Dicainum, Flacosidum, Azinox, Alpisarinum, Helepinum, Megosinum, Chinocidum, Gossypolum, Chininum, Chloroquine, Chingaminum, Hydroxychloroquine, Chloridinum, Acrichinum, Primachinum, Mefloquine, Fansidar, Chinini hydrochloridum, Chinini sulfas, Metakelfin, Metronidazolom, Metronidazoli Hemisuccinas, Ornidazole, Nitazolom, Nitrofungin, Trichomonacidum, Solusurminum, Glucantim, Aminochinolum, Emetini hydrochloridum, Biiochinolum, Bismoverolum, Griseofulvinum, Nystatinum, Phenasalum, Octicylum, flores Cinae, Mycosolon, Clotrimazolom, Levorinum, Levorenium - natrium, Amphotericinum, Mycoheptinum, Ketoconazole, Pyrvinii pamoas, Isoconasole, unguentum «Zincundanum», Medaminum, unguentum «Undecinum», Mycoseptin, Semina Cucurbitae, Chinofungin, Anmarinum, Piperazinum, Piperazini adipinas, Naphthammonum, flores Tanaceti vulgaris, Chloxylum, Praziquantel, Ditrazini citras, Chloraminum, Pantocidum, Chlorhexidinum, Iodoformium, Iodinolum.

VII. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Salus republicae suprema lex.
Davlat farovonligi – oliy qonun.
2. Scientia est potentia.
Bilim – kuchdir.

III turlanishdagi sifatlar

III turlanishdagi sifatlar uchta guruhga bo'linadi :

1. Uch qo'shimchali sifatlar.

Bunda har bir rod o'zining qo'shimchasiga ega bo'ladi: mujskoy rod **-er**, jenskiy rod **-is**, sredniy rod **-e**.

Masalan: m-silvester, f-silvestris, n-silvestre.

Lug'at shakli quyidagicha bo'ladi : silvester, tris, tre – o'rmondagi, o'rmonda o'sadigan.

2. Ikki qo'shimchali sifatlar.

Bunda mujskoy va jenskiy rodlar **-is** qo'shimchasiga, sredniy rod **-e** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Masalan : m, f,- vernalis, n- vernale.

Lug'at shakli quyidagicha bo'ladi : vernalis, e – bahorgi.

3. Bir qo'shimchali sifatlar.

Bunda uchala rod bir qo'shimchaga, ya'ni **-x** yoki **-ns** qo'shimchalariga ega.

Lug'atda avval **Nom. Sing.** shakli to'liq yoziladi, keyin **Gen. Sing.** ning kelishik qo'shimchasi ko'rsatiladi:

simplex, icis - oddiy

recens, ntis – yangi.

III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha III turlanishdagi otlar singari turlanadi, lekin undosh tipga nisbatan ayrim xususiyatlarga ega, ya'ni:

1. Mujskoy, jenskiy va sredniy rodlar: Abl. Sing. da **-e** o'rnida **-i**, **Gen. Plur.** da **-um** o'rnida **-ium** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

2. Sredniy rod: Nom. Plur. va Acc. Plur. da **-a** o'rniga **-ia** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

III turlanishdagi sifatlarning kelishiklar bo'yicha turlanishi

Causus	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	er	is	e	es	es	ia
Gen.	is	is	is	ium	ium	ium
Dat.	i	i	i	ibus	ibus	ibus
Acc	em	em	e	es	es	ia
Abl.	i	i	i	ibus	ibus	ibus

Turlanish namunasi
Singularis

Casus	m	f	n
Nom.	silvester	silvestris	silvestre
Gen.	silvestris	silvestris	silvestis
Dat.	silvestri	silvestri	silvestri
Acc.	silvestrem	silvestrem	silvestre
Abl.	silvestri	silvestri	silvestri

Pluralis

Casus	m	f	n
Nom.	silvestres	silvestres	silvestria
Gen.	silvestrium	silvestrium	silvestrium
Dat.	silvestribus	silvestribus	silvestribus
Acc.	silvestres	silvestres	silvestria
Abl.	silvestribus	silvestribus	silvestribus

119-§. Quyidagi so‘zlarni yod oling!

silvester, tris, tre - o‘rmondagi, o‘rmonda o‘sadigan
 paluster, tris, tre - botqoqlikda, botqoqda o‘sadigan
 officinalis, e - dorivor, dorixona -i (-si)
 letalis, e - o‘ldiradigan, o‘ldiruvchi
 vaginalis, e - qinga oid
 dulcis, e - shirin
 majalis, e - may -i (-si)
 pectoralis, e – ko‘krak –i (-si), ko‘krakka tegishli
 talis, e - shunaqa, shunday
 mollis, e - yumshoq
 vernalis, e - bahorgi
 naturalis, e - tabiiy
 simplex, icis - oddiy
 recens, ntis - yangi
 aequalis, e - bir xil, bab-baravar
 vulgaris, e - oddiy
 communis, e - oddiy
 rectalis, e - to‘g‘ri ichak -i (-si)
 fortis, e - kuchli ta‘sir qiladigan (dori)
 mitis, e - kuchsiz ta‘sir qiladigan (dori)
 arvensis, e - dala -i (-si), dalada o‘sadigan
 amurensis, e - amur -i (-si)
 chinensis, e - xitoy -i (-si)
 intramuscularis, e - mushak orasiga

medicinalis, e -tibbiyot -i(-si)
viridis, e - zangori
enterosolubilis, e - ichakda eriydigan (tabletkalar)
subtilis, e - mayda

QUYIDAGI IBORANI ESLAB QOLING!

Divide in partes aequales. –Teng qismlarga bo‘l.

Mashqlar

1. Sifatlarni otlarga moslashtiring va so‘z iboralarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|------------------------------|--------------------------------------|
| 1) pars (aequalis,e) | 6) Thymus (vulgaris, e) |
| 2) tinctura (simplex, icis) | 7) herba Adonidis (vernalis,e) |
| 3) Mesim (fortis,e) | 8) emplastrum Plumbi (simplex, icis) |
| 4) Berberis (amurensis,e) | 9) suppositorium (vaginalis, e) |
| 5) Taraxacum (officinalis,e) | 10) globulus (vaginalis, e) |

2. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|----------------------|-----------------------|
| 1) o‘rmon guli | 7) dorivor tirnoqgul |
| 2) tibbiyot zulugi | 8) oddiy malham |
| 3) o‘ldiradigan doza | 9) bahorgi adonis |
| 4) tabiiy shira | 10) oddiy anis |
| 5) ko‘krak eliksiri | 11) tibbiyot jelatini |
| 6) may marvaridguli | 12) shunday dozalar |

3. Xato tarjima qilingan terminlarni toping va xatolar nimalardan iborat ekanligini tushuntiring.

Folia silvestres, semina dulcia, Amygdalus dulcis, Triticum vulgare, medicamentum forte, semen amare, Thymus vulgare, Pinus silvestris, capsula medicinalis, herba vernale, succus naturale, linimentum volatile.

4. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

- Recipe: Oletetrini 0,25
Da tales doses numero 25 in tabulettis.
Signa: Kuniga 4 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
- Recipe: Infusi herbae Adonidis vernalis 6,0: 180 ml
Natrii bromidi 6,0
Codeini phasphatis 0,2
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
- Recipe: Infusi herbae Thermopsidis 150 ml
Natrii hydrocarbonatis 3,0
Liquoris Ammonii anisati 2ml
Elixiris pectoralis 2 ml
Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4. Recipe: Emulsi oleosi 120,0
Phenolphthaleini 0,8
Sirupi simplicis 20 ml
Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

5. Recipe: Emulsi olei Ricini
Resorcini 0,12
Bismuthi subnitratris 1,0
Sirupi simplicis 20 ml
Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.

5. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Tabiiy oshqozon shirasi 150 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ovqat paytida ichilsin.

2. Ol: Qo'rg'oshinning oddiy malhami 50,0

Ber.

Belgila: Terining zararlangan joyiga surtilsin.

3. Ol: Gulxayri ildizining damlamasi 120 ml

Natriy gidrokarbonat 0,6

Ko'krak eliksiri 2 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.

4. Ol: Gulxayri ildizining qaynatmasi 150 ml

Natriy benzoat 3,0

Ko'krak eliksiri 2 ml

Oddiy sharbat 20 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

5. Ol: Amur zirkining suyuq ekstrakti 30 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 20-30 tomchidan ichilsin.

6. Ol: Dala qirqbo'g'imining suyuq ekstraktidan

Ber.

Belgila: Kuniga 4-6 marta yarim choy qoshiqdan ichilsin.

6. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Adonis vernalis glycosida Cimorinum et Adonitoxinum continet.

2. Globuli sunt suppositoria vaginalia. 3. Folia sicca et siccus ex herba Plantaginis recentis in medicina adhibentur. 4. Adonisidum est praeparatum Adonis vernalis. 5. Sunt duo praeparata: Aether medicinalis et Aether pro narcosi.

7. “III TURLANISHDAGI SIFATLAR” MAVZUSI BO`YICHA
KLASTER TUZING.

I. “III turlanishdagi sifatlar” mavzusini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo‘linadi?
2. Uch qo‘shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Ikki qo‘shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
4. Bir qo‘shimchali sifatarni tushuntirib bering.
5. III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo‘yicha qanday turlanadi?

II. 119-§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping .

- | | |
|-------------------------|-----------------------------------|
| 1) silvester, tris, tre | a) shirin |
| 2) letalis, e | b) oddiy |
| 3) officinalis, e | c) bahorgi |
| 4) dulcis, e | d) o‘rmondagi, o‘rmonda o‘sadigan |
| 5) naturalis, e | e) mushak orasiga |
| 6) vernalis, e | f) dorivor, dorixona - i(-si) |
| 7) simplex, icis | g) to‘g‘ri ichak -i (-si) |
| 8) arvensis, e | h) o‘ldiradigan, o‘ldiruvchi |
| 9) intramuscularis, e | i) dalada o‘sadigan |
| 10) rectalis, e | j) tabiiy |

IV. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-----------------|--------------------|
| 1) amur zirki | 3) xitoy limonnigi |
| 2) shirin bodom | 4) oddiy sharbat |

V. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Griseofulvini fortis 0,125
Da tales doses numero 12 in tabulettis.
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
2. Recipe: Herbae Equiseti arvensis 25,0
Da.
Signa: 1 stakan qaynagan suvga 2 osh qoshiq solib
damlansin va kun davomida ichilsin.
3. Recipe: Salis carolini naturalis 100,0
Da.
Signa: 1 stakan suvga 1 osh qoshiq solib ichilsin.
4. Recipe: Coffeini – natrii benzoatis 1,0
Natrii bromidi 3,0
Tincturae Schizandrae chinensis 6 ml
Aqua destillatae 200 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
5. Recipe: Suppositoria vaginalia «Osarbonum» numero 10.

Da in scatula.

Signa: Kuniga 1 ta shamchadan qo'yilsin.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Iodonatum, Iodopironum, Galmanium, Persadox, Calcex, Iodovidonum, solutio Hydrogenii peroxydi concentrata, Acidum salicylicum, Piosidum, Hydroperitum, Zinci oxydum, Kalii permanganas, liquor ad clavos, emplastrum adhaesivum ad clavos "Salipodum", acidum benzoicum, unguentum Acidi salicylici 2 aut 3%, pasta Zinci salicylata, Persalanum, Benzoylperoxidum, solutio Acidi borici spirituosa, linimentum Bora-zincatum, Zinci sulfas, pasta Teimurovi, Natrii tetraboras, Acidum azelaicum, tabulettae "Traceptinum", Hexamethylentetraminum, solutio Formaldehydi, Cupri sulfas, Lysoformium, Urotropinum, Gystamine, Ciminalum, Cimesolum, spiritus aethylicus, Argenti nitras, Protargolum, Collargolum, unguentum Zinci, unguentum Zinci-naphthalanum cum Anaesthesino, Zincascolum, Pherosolum, pasta Zinci - ichthyoli, suspensio "Novocindolum", Aspersionis puerilis, suppositoria "Neo-Anusolum", emplastrum Plumbi simplex, Tricresolum, pasta Boro-zincinaphthalani.


VII. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Nil desperandum.

Hech qachon umidsiz bo'lma.

2. Non bis in idem.

Bir gunoh uchun ikki marta jazolama.



30-AMALIY MASHG`ULOT: Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi. Murakkab retsept tarkibiga kiruvchi moddalar

120 -§. Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi

Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshini hosil qilish uchun I va II-turlanishdagi fe'llarning negiziga *-ns*, III va IV tuslanishdagi fe'llarning negiziga *-ens* qo'shimchasini qo'shish kerak.

Qaratqich kelishik birlik sonda hamma sifatdoslar *-ntis* qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Masalan:

Fe'l	SIFATDOSH		Tarjimasi
	Nom.	Gen.	
signare	signans	signatis	belgilovchi
miscere	miscens	miscentis	aralash tiruvchi
dividere	dividens	dividentis	bo'luvchi
audire	audiens	audientis	eshituvchi

Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi kelishiklar bo'yicha III turlanishdagi sifatlar singari turlanadi.

121-§. Quyidagi sifatdoshlarni yod oling!

expectorans, ntis - balg'am ko'chiruvchi
adstringens, ntis - burushtiruvchi
adjuvans, ntis – yordamchi, ko'makchi
corrigens, ntis – tuzatuvchi, yaxshilovchi
constituens, ntis – shakl hosil qiluvchi

122-§. QUYIDAGI SIFATLARNI YOD OLING!

subtilis, e – mayda
solubilis, e – eruvchan
sterilis, e – sterilizatsiya qilingan
volatilis, e - uchuvchan
pinguis, e – yog'li
Viride(is) nitens(ntis) – brilliant ko'ki

123-§. Murakkab retsept tarkibiga kiruvchi moddalar

Murakkab retseptlarda quyidagi moddalar ko'rsatilishi mumkin:

1. *Remedium basis* – asosiy ta'sir etuvchi moddalar.
2. *Remedium adjuvans* – asosiy ta'sir etuvchi moddaning ta'sirini kuchaytiruvchi yoki kuchsizlantiruvchi yordamchi yoki ko'maklashuvchi moddalar.
3. *Remedium corrigens* – dorivor moddalarning mazasini, hidini va boshqa yoqimsiz xususiyatlarini tuzatuvchi moddalar.
4. *Remedium constituents* – shakl hosil qiluvchi moddalar, dorilarga aniq shakl (suyuq, qattiq, yumshoq) beruvchi moddalar.

Murakkab retseptga misol:

Recipe: Pepsini 2.0 - basis
Acidi hydrochlorici diluti 5 ml - adjuvans
Sirupi simplicis 15.0 - corrigens
Aquae destillatae ad 200 ml - constituents
Misc. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

Remedium basis - albatta bo'lishi kerak bo'lgan modda. Adjuvans, corrigens, constituents – hamma retseptlarda uchrayvermaydi.

Mashqlar

1. Quyidagi fe'llardan aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshlarini hosil qiling.

Adjuvare – yordam bermoq, producere – ishlab chiqarmoq, constituere – shakl bermoq, labare – ishlamoq, medicare – davolamoq.

2. Sifatlarni otlarga moslashtiring va so'z iboralarini o'zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|----------------------------------|------------------------------|
| 1) pulvis (subtilis, e) | 5) Ricinus (communis, e) |
| 2) suppositorium (simplex, icis) | 6) linimentum (volatilis, e) |
| 3) succus (gastricus, a, um) | 7) radix (dulcis, e) |
| 4) solutio (sterilis, e) | 8) Furaginum (solubilis, e) |

3. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) oddiy zirk nastoykasi
- 2) Xitoy limonnigining kukuni
- 3) eruvchan oq streptotsid
- 4) dala qirqbo'g'imining suyuq ekstrakti
- 5) shirin bodom emulsiyasi
- 6) valeriananing oddiy nastoykasi
- 7) oddiy tog'jambilning yer ustki qismi
- 8) brilliant ko'kning suvli eritmasi
- 9) norsulfazolning eruvchan eritmasi
- 10) natriy xloridning izotonik eritmasi

4. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Linimenti volatilis 100

Da.

Signa: Surkash uchun.

2. Recipe: Tabulettas «Cotazym – forte» numero 60

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

3. Recipe: Solutionis Nerioli spirituosae 0,02% 10 ml

Da.

Signa: Kuniga 2 marta 20 tomchidan ichilsin.

4. Recipe: Tincturae Capsici 27 ml

Tincturae Hyperici 1 ml

Saponis viridis 10,0

Solutionis Ammonii caustici 20% 56 ml

Misce. Da.

Signa: Bod kasalligida surtish uchun.

5. Recipe: Benzonaphtholi

Phenylii salicylatis ana 1,0

Emulsi seminum Amygdali dulcis 100.0

Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

5. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Xitoy limonnigi nastoykasi 20 ml

Kuchala nastoykasi 5 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 25 tomchidan ichilsin.

2. Ol: Brilliant ko'kning suvli eritmasi 1% 20ml

Ber.

Belgila: Og'iz bo'shlig'iga surtish uchun.

3. Ol: Eruvchan streptotsid 1,5

Natriy xloridning izotonik eritmasi 100 ml

Aralashtir. Sterilizatsiya qil!

Ber.

Belgila: Teri ostiga 1 marta ukol qilish uchun.

4. Ol: Termopsis yer ustki qismining damlamasi 1,0:200 ml

Novshadil – arpabodiyon tomchisi 4 ml

Oddiy sharbat 20 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

5. Ol: Bahorgi adonisning yer ustki qismi damlamasi 6,0:180 ml

Temizal 4,0 ml

Oddiy sharbat 200 ml. gacha

Aralashtir. Ber.

Belgila : Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

6. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Compositio unguenti ophthalmici: Viridis 0,025, Cupri sulfatis et Streptocidi albi ana 0,2, Vaselini 10,0. 2. Infusum Sennae compositum liquor lucidus cum odore mellis est; ut remedium laxans adhibetur. 3. Praescriptio remediorum composita dividitur in partes, quae vocantur: basis, remedium adjuvans, corrigens, constituens. 4. Oleum Thymi ex herba Thymi vulgaris conficitur. 5. Mentholum alcohol est; conficitur ex oleo aethereo Menthae piperitae.

I. “Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi va murakkab retsept tarkibiga kiruvchi moddalar” mavzularini o‘zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi qanday hosil qilinadi?
2. Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshlari kelishiklar bo‘yicha qanday turlanadi?
3. Murakkab retseptlarda qanday moddalar ko‘rsatiladi?

II. 121,122-§§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------------|-----------------------------|
| 1) adjuvans, ntis | a) balg‘am ko‘chiruvchi |
| 2) corrigens, ntis | b) uchuvchan |
| 3) solubilis, e | c) shakl hosil qiluvchi |
| 4) volatilis, e | d) yordamchi, ko‘makchi |
| 5) pinguis, e | e) sterilizatsiya qilingan |
| 6) expectorans, ntis | f) eruvchan |
| 7) adstringens, ntis | g) yog‘li |
| 8) constituens, ntis | h) tuzatuvchi, yaxshilovchi |
| 9) sterilis, e | i) mayda |
| 10) subtilis, e | j) burushtiruvchi |

IV. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|----------------------|------------------------|
| 1) tibbiyot jelatini | 3) ko‘k sovun |
| 2) shirin ildiz | 4) burushtiruvchi maza |

V. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Tibbiyot achitqisi 0.5
Shunday dozalardan 30(son)ta tabletkalarda ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 2 ta tabletkadan qabul qilinsin.
2. Ol: Kamfora 0,5
Uchuvchan suyuq surtma 20,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Surkash uchun.
3. Ol: Shirin bodom urug‘i emulsiyasi 180.0
Morfin gidrokslorid 0.06
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

VI. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Phenolum purum liquefactum, solutio “Fucorcinum”, Resorcinum, Biclodymol, Urobessal, Hexadrops, Hexaspray, Phenyl salicylas, Vagotil, Besalolum, Phencortosolum, Methylenum coeruleum, Methylthionii chloridum, Viride nitens, liquor Novicovi, Aethacridini lactas, Acricidum, Aethonium, unguentum Koncovi, Cerigelum, Citralum, Degmicidum, Decamethoxinum, Roccal, Ajatin, Domiphen Bromide, saponum viridis, spiritus saponatus, pix liquida Betulae, oleum Rusci, unguentum Wilkinsoni, unguentum Vishnevsky, Ichthyolum, Ichthyopan, Naphthalanum liquidum raffinatum, unguentum Naphthalani sulfuratum, Ozokerafinum, unguentum Zinci-naphthalani cum Anaesthesino, Paraffinum solidum, Ozokeritum medicinalis, Vinylinum, Vinisolum, Cygerolum, Sulfur praecipitatum, Umckalor, unguentum sulfuratum simplex, Sulfodecortemum, Sulfur depuratum, Sulsenum, Natrii usinas, Lysocim, Novoimanium, Sanguiritrinum, Eucalimum, Chlorophylliptum, Arenarinum.



Farmatsevtik termin va retseptlarni tarjima qilish

1. "III turlanishdagi otlar va III turlanishdagi sifatlar" mavzularini takrorlab, quyidagi savollarga javob bering.

1. III turlanishdagi otlar nechta tipga bo'linadi?
2. Undosh tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
3. III turlanishdagi otlar Gen. Sing. da qanday qo'shimchaga ega?
4. Teng murakkab va noteng murakkab otlar deganda nimani tushunasiz?
5. Aralash tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
6. Unli tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
7. Unli tipdagi otlarning kelishik qo'shimchalarini ayting.
8. III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo'linadi?
9. 3 qo'shimchali, 2 qo'shimchali va 1 qo'shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
10. III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
11. Qaysi termin elementlari patologik va klinik atamalarda uchraydi?

2. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Qaynatma, suv, ildiz, sharcha, urug', tabletka, granula, ildizpoya, eritma, qism.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen.Sing.	Nom. Plur.	Gen.Plur.
gemma – kurtak	I	f	gemmae – kurtakning	gemmae – kurtaklar	gemmarum– kurtaklarning

3. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) achchiq nastoyka
- 2) moyli eritma
- 3) distillangan suv
- 4) faollashtirilgan ko'mir
- 5) kuchli ta'sir qiladigan sustak
- 6) kuchsiz ta'sir qiladigan dori
- 7) do'ananing suyuq ekstrakti
- 8) gulxayri ildizining damlamasi
- 9) rux surtmasi
- 10) mayda kukun
- 11) dorivor valeriana
- 12) kungaboqar moyining emulsiyasi

13) ravoch ildizining damlamasi

4. Retsept iboralarini tarjima qiling.

1. Ol: Kodein fosfat
2. Ol: Natriy bromid
3. Ol: Marvaridgul nastoykasi
4. Ol: Distillangan suv
5. Ol: Karbol kislotasi
6. Ol: Simob dixlorid
7. Ol: Lanolin
8. Ol: Natriy benzoat
9. Ol: Ko`krak eliksiri
10. Ol: Ixtiol
11. Ol: Kakao moyi
12. Shamcha hosil bo`lguncha aralashtir.
13. Kukun hosil bo`lguncha aralashtir.



5. Retseptlarni o`zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Olei Terebinthinae Chloroformii ana 10,0
Linimenti volatilis ad 60,0
Misce. Da.
Signa: Surtish uchun.
2. Recipe: Saponis viridis
Da.
Signa: Iliq suvda eritilsin.
3. Recipe: Infusi herbae Ledi palustris 10,0-150 ml
Sirupi Althaeae 25,0
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3-4 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Amylii nitritis guttas III
Da tales doses numero 3 in ampullis
Signa: Nafas olish uchun.
5. Recipe: Griseofulvini-forte 0,125
Da tales doses numero 12 in tabulettis
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
6. Recipe: Tabulettis «Sustac-forte» numero 25
Detur.
Signetur: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
7. Recipe: Olei Ricini 1,0
Dentur tales doses numero 15 in capsulis gelatinosis
Signetur: Har yarim soatda qabul qilinsin.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Novokain eritmasi 2%-30 ml
Sterilizatsiya qilinsin!
Berilsin.
Belgilansin: 2 kunda 1marta 5ml. dan mushaklar

orasiga yuborilsin.

2. Ol: Kodein fosfat 0,6
Natriy bromid 4,0
Habdori massasidan keragicha, 40 (son) habdorilar hosil bo'lguncha
Berilgan bo'lsin.
Belgilansin: Kuniga 3 marta 1 habdoridan qabul qilinsin.
3. Ol: Shirin bodom urug'i 5,0
Kanakunjut moyidan 3,0
Emulsiya hosil bo'lguncha aralashtir.
Berilgan bo'lsin.
Belgilansin: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Ol: Benkain 0,5
Natriy xloridning izotonik eritmasi 200,0
Aralashtirilgan bo'lsin. Sterilizatsiya qilingan bo'lsin!
Berilgan bo'lsin.
Belgilangan bo'lsin: infultratsion og'riqsizlantirish uchun.
5. Ol: Angishvonagul barglarining kukuni 0,1
Kakao moyi keragicha
Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber:
Belgila: Kechasi 1 ta shamchadan qo'yilsin.

III turlanishdagi otlar va sifatlar, TE lar boyicha oraliq baholashga tayyorlaning!



124-§. IV turlanishdagi otlar

IV turlanishga **Genetivus Singularis** da **-us** qo`shimchasiga ega bo`lgan mujskoy va sredniy roddagi otlar kiradi. Ular **Nominativus Singularis** da mujskoy rodga kirsam **-us**, sredniy rodga kirsam **-u** qo`shimchasiga ega bo`ladi.

Masalan: fructus, us, m
cornu, us, n.

IV turlanishdagi otlarning kelishik qo`shimchalari

Causus	Singularis		Pluralis	
	m	n	m	n
Nom.	us	u	us	ua
Gen.	us	us	uum	uum
Dat.	ui	u	ibus	ibus
Acc.	um	u	us	ua
Abl.	u	u	ibus	ibus

Turlanish namunasi

Causus	Sing.	Plur.
Nom.	fructus	fructus
Gen.	fructus	fructuum
Dat.	fructui	fructibus
Acc.	fructum	fructus
Abl.	fructu	fructibus

Causus	Sing.	Plur.
Nom.	cornu	cornua
Gen.	cornus	cornuum
Dat.	cornu	cornibus
Acc.	cornu	cornua
Abl.	cornu	cornibus

125 -§. Quyidagi so`zlarni yod oling!

spiritus, us, m - spirt
usus, us, m - ishlatish, qo`llash
fructus, us, m - meva
exitus, us, m - natija, oqibat
status, us, m - holat, ahvol
habitus, us, m - tashqi ko`rinish

gelu, us, n - muz, yax
 cornu, us, n - muguz(shox)
 manus, us, f - qo'l (istisno tariqasida jen. rodga kiradi)
 Quercus, us, f - dub, eman (istisno tariqasida jen. rodga kiradi).

QUYIDAGI SO'Z IBORALARNI ESLAB QOLING!

ad usum internum }
 pro usu interno } - ichish uchun, ichga ishlatish uchun

ad usum externum }
 pro usu externo } - sirtga ishlatish uchun, sirtan ishlatishga

126 -§. "Quercus" so'zining turlanishi

"Quercus" so'zi kelishiklar bo'yicha turlanganda o'ziga xos ikkita xususiyatga ega:

Dat. Plur. va **Abl. Plur.** – **ibus** o'rniga **ubus** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

127-§. V turlanishdagi otlar

V turlanishga **Genetivus Singularis** da **-ei**, **Nominativus Singularis** da **-es** qo'shimchasiga ega bo'lgan jenskiy roddagi otlar kiradi.

Masalan: res, rei, f.

V TURLANISHDAGI OTLARNING KELISHIK QO'SHIMCHALARI

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	es	es
Gen.	ei	erum
Dat.	ei	ebus
Acc.	em	es
Abl.	e	ebus

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	species	species
Gen.	speciei	specierum
Dat.	speciei	speciebus
Acc.	speciem	species
Abl.	specie	speciebus

128 -§. Quyidagi
 species, ei, f - yig'ma

so'zlarni yod oling!

dies, ei, f - kun, kunduzi
amarities, ei, f - achchiq ta'm, taxir maza
res, ei, f - narsa, buyum

QUYIDAGI IBORALARNI ESLAB QOLING!

pro die - dorining bir sutkalik dozasi
pro dosi – dorining bir marta qabul qilish dozasi

129-§. “Species” so‘zining ishlatilishi

Species – yig‘ma (dori turi) so‘zi ko‘plikda ishlatiladi, shuning uchun sifatlar ham shu ot bilan ko‘plikda moslanadi.

Masalan: ko‘krak yig‘masi -

Nom. species pectorales

Gen. specierum pectoralium.

Shunga muvofiq retseptlarda yig‘malar nomi qaratqich kelishik ko‘plikda yoziladi.

Masalan : Recipe: Specierum laxantium 100,0

130-§.Quyidagi yig‘malar nomini yod oling!

species(erum) aromaticae(arum) - xushbo‘y yig‘ma (choy)
species(erum) antiasthmaticae(arum) – astmaga qarshi yig‘ma (choy)
species(erum) carminativae(arum) – yel haydovchi yig‘ma(choy)
species(erum) cholagogae(arum) - o‘t haydovchi yig‘ma (choy)
species(erum) diureticae(arum) – siydik haydovchi yig‘ma (choy)
species(erum) laxantes(ium) – ich suradigan yig‘ma (choy)
species(erum) pectorales(ium) – ko‘krak yig‘masi (choy)
species(erum) sedativae(arum) – tinchlantiruvchi yig‘ma (choy)
species(erum) stomachicae(arum) –me‘da (oshqozon) yig‘masi (choy)

Mashqlar

1. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Spirt, meva, muz, yig‘ma, kraxmal, kun, tirnoqgul, barg, rang.

Namuna:

Nom. Sing.	Typл.	Род	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
fructus- meva	IV	m	fructus- mevaning	fructus- mevalar	fructuum- mevalarning

2. Sifatlarni otlarga moslashtiring va so‘z iboralarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1) fructus (grossus, a,um)

5) spiritus (aethylicus, a, um)

- | | |
|---------------------------|---------------------------------|
| 2) fructus (amarus, a,um) | 6) exitus (letalis,e) |
| 3) usus (externus, a,um) | 7) fructus (concisus, a, um) |
| 4) usus (internus, a, um) | 8) spiritus (saponatus, a, um). |

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) fructus Rosae
- 2) spiritus camphoratus
- 3) fructus Capsici concisus
- 4) spiritus saponatus compositus
- 5) fructus seu baccae Juniperi
- 6) fructus et semina Schizandrae chinensis
- 7) sirupus fructuum Rosae vitaminisatus
- 8) solutio Camphorae oleosa ad usum externum.

4. Quyidagi sifatlar yordamida yig'malar nomini yasang va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---------------------|--------------------------|
| 1) diureticus, a,um | 4) antiasthmaticus,a, um |
| 2) amarus,a,um | 5) expectorans,ntis |
| 5) laxans,ntis | 6) pectoralis,e. |

5. Yig'ma(choy)lar tarkibini lotin tiliga tarjima qiling.

1) Yel haydovchi yig'ma tarkibi:

Qalampir yalpiz bargi -33.3 g.

Fenxel mevasi -33.3 g

Valeriana ildizpoyasi bilan ildizi

2) Ishtaha ochuvchi yig'ma tarkibi:

Achchiq shuvoq(ermon) yer ustki qismi - 80 g.

Bo'yadoron yer ustki qismi (yoki guli) -20 g.

3) Tomoqni chayish uchun yig'ma tarkibi:

Jo'ka guli -40 g.

Moychechak guli - 60 g.

4) 2 - sonli ko'krak yig'masi tarkibi:

Oqqaldirmoq bargi - 40 g.

Zupturum bargi - 30 g.

Qizilmiya ildizi - 30 g.

5) 3 - sonli ko'krak yig'masi tarkibi:

Gulxayri ildizi - 40 g.

Qizilmiya ildizi - 40 g.

Fenxel mevasi - 20 g.

6. Noto'g'ri tarjima qilingan terminlarni toping.

Nuphar luteum, rhizoma cum radicibus Valerianae, folium Digitalis, rhizoma Bistorta, herba Ledum palustris, fructus Capsicum, semina Schizandri, herba Centauriae.

7. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) eman po'stlog'i

- 2) archa qubbalarining damlamasi
- 3) do'ana mevalari
- 4) fenxel mevasi va moyi
- 5) kamforali spirt
- 6) sirtidan qo'llash uchun
- 7) eman po'stlog'ining damlamasi
- 8) chakonda mevasi va moyi

8. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Spiritus aethylici 95% 20 ml
Aquae pro injectionibus 100 ml
Misce. Da.
Signa: 10 ml.dan ko'k tomirga yuborilsin.
2. Recipe: Infusi fructuum Anisi 15,0 : 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan oldin 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Recipe: Sulfuris depurati 2,0
Glycerini
Spiritus camphorati ana 5,0
Misce. Da.
Signa: Yuz terisiga surtish uchun.
4. Recipe: Sulfuris depurati 2,0
Glycerini
Spiritus camphorati ana 5,0
Aquae destillatae 60 ml
Misce. Da.
Signa: Yuz terisiga surtish uchun.
5. Recipe: Solutionis Iodi pro usu interno 15 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan keyin 1-5 tomchidan sut bilan ichilsin.
6. Recipe: Herbae Adonidis vernalis 2,0
Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: 1 stakan suvga 1 xaltachadan solib damlansin va kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

9. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Furatsilin tabletkalari 0,02 : 10 ta sirtidan qo'llash uchun
Ber.
Belgila: 1 ta tabletkani 100 ml suvda eritib, tomoq chayqalsin.
2. Ol: Eman po'stlog'ining qaynatmasi 20,0 : 200 ml
Ber.
Belgila: Og'iz bo'shlig'ini chayqash uchun.

3. Ol: Borat kislota 3.0
 Glitserin 10.0
 Etil spirti 70% 100 ml
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: Emizikli onalarning ko'kragiga surtish uchun.
4. Ol: Eman po'stlog'ining qaynatmasi 20.0 : 200 ml
 Achchiqtosh 20 ml
 Glitserin 15 ml
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: Og'iz bo'shlig'ini chayqash uchun.
5. Ol: 10%li kamfora spirti 40 ml
 Ber.
 Belgila: Uqalab surtish uchun.
6. Ol: Evkalipt barglari 20,0
 Shirinmiya ildizi
 Zig'ir urug'i teng miqdorda 15,0 dan
 Fenxel moyi V tomchi
 Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.
 Ber.
 Belgila: 1 osh qoshiq aralashmaga 1 stakan suv quyib, 15
 minut qaynatilsin. Kuniga 2 marta yarim stakandan
 ichilsin.
7. Ol: Gulxayri ildizi 40,0
 Shirinmiya ildizi
 Oqqaldirmoq barglari teng miqdorda 20,0 dan
 Sigirquyruq gullari 10,0
 Arpabodiyon mevasi 10,0
 Natriy sulfat 15,0
 Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.
 Ber.
 Belgila: 1 stakan suvga 1 osh qoshiqdan solib damlansin va
 kuniga 2 marta 1 stakandan ichilsin.

10. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. In fructibus Rosae maxima quantitas vitamini C autumnino continetur. 2. Doctrina est fructus dulcis radicis amarae. 3. Fructus Rubi idaei ut remedium diaphoreticum adhibentur. 4. Ex fructibus Foeniculi vulgaris oleum aethereum conficitur. 5. Spiritus aethylicus aliter spiritus Vini nominatur. 6. Medicamenta sunt ad usum externum et ad usum internum. 7. Fructus Alni, Capsici, Crataegi, Juniperi, Rhamni catharticae, Schizandrae in medicina adhibentur.

11. "IV va V turlanishdagi otlar " mavzulari bo'yicha klaster tuzing.

I. "IV va V turlanishdagi otlar " mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi

savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Qaysi otlar IV turlanishga kiradi?
2. IV turlanishdagi otlar **Nom.Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo‘shimchalarga ega?
3. IV turlanishdagi otlarning **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** qo‘shimchalarini ayting.
4. Qaysi otlar V turlanishga kiradi?
5. V turlanishdagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen.Sing.** da qanday qo‘shimchalarga ega?
6. V turlanishdagi otlar **Nom.Plur.** va **Gen. Plur.**da qanday qo‘shimcharga ega?
7. “species” so‘zi qanday ishlatiladi?

II. 125,128,130-§§ dagi so‘z va so‘z iboralarini yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|--------------|------------------------|
| 1) manus | a) kun, kunduzi |
| 2) gelu | b) natija, oqibat |
| 3) habitus | c) qo‘l |
| 4) species | d) spirt |
| 5) Quercus | e) ishlatish, qo‘llash |
| 6) dies | f) muz,yax |
| 7) exitus | g) meva |
| 8) fructus | h) yig‘ma |
| 9) usus | i) dub, eman |
| 10) spiritus | j) tashqi ko‘rinish |

IV. Quyidagi jadval yordamida otlarning kelishik qo‘shimchalarini yozing.

<i>Casus</i>	<i>Singularis</i>								
	<i>I mur.</i>	<i>II mur.</i>		<i>III mur.</i>			<i>IV mur.</i>		<i>V mur.</i>
	<i>f</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>
<i>Nom.</i>									
<i>Gen.</i>									
<i>Dat.</i>									
<i>Acc.</i>									
<i>Abl.</i>									

<i>Casus</i>	<i>Pluralis</i>								
	<i>I mur.</i>	<i>II mur.</i>		<i>III mur.</i>			<i>IV mur.</i>		<i>V mur.</i>
	<i>f</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>
<i>Nom.</i>									
<i>Gen.</i>									

<i>Dat.</i>									
<i>Acc.</i>									
<i>Abl.</i>									

V. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) arpadodiyon mevalari
- 2) arpadodiyon mevalarining damlamasi
- 3) eman po'stlog'ining qaynatmasi
- 4) kamforaning moyli eritmasi

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Ectericidum, Tomicidum, Mysulban, tinctura Sophorae japonicae, species "Elecasolum", Allilcepum, Nittifor, Pedilin, Itax, Benzylil benzoas medicinalis, Crotamiton, Procytox, Carboplatin, Embichinum, Sarcolysinum, Racemelphalanum, Melphalan, Cytostasan, Dopanum, Ledoxina, Dipinum, Chlorbutinum, Linfolysin, Cyclophasphanum, Prospidinum, Lophenalum, Paphencylum, Hidrix, Citomid, Tespamin, Mylecytan, Phthorbenzotepum, Bendamustin, Spirobrominum, Thiophasphamidum, Exal, Benzotepum, Imiphosum, Hexaphosphamidum, Photrinum, Myelosanum, Leukosulfan, Lomustin, Carmustine, Dacarbazine, Methotrexate, Methylaminopterinum, Mercaptopurinum, Fludarabin, Thioguaninum, Phopurinum, Phthoruracilum, Fluoroplex, Queroplex, Phthorafurum, Cytarabinum, Cisplatine, Platinum, Blastocarb, Procarbazin, Hydroxycarbamide, Biosupressin, Colchaminum, Rosevinum, herbae Leonuri Oncocristin, Colchicinum, Nitoxantrone, Irenotecan, Vinblastine, Colchiquium, Podophyllinum.

VII. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Potius mori quam foedari.
Sharmanda bo'lgandan ko'ra, o'lgan yahshi.
2. Amat victoria curam.
G'alaba tirishqoqlikni yahshi ko'radi.

131-§. Retseptlarda so'zlarni qisqartirish

Retseptlardagi so'zlarni quyidagicha qisqartirish mumkin:

1. Retseptlarda so'zlarni qisqartirganda ko'pincha ularning boshlang'ich qismi olinadi.

Masalan: semen – sem., folium – fol.

2. Agar so'zning bosh qismida qatorasiga bir nechta undosh harflar kelsa, so'zni qisqartirganda ular saqlanib qoladi.

Masalan: emplastrum – empl., infusum – inf.

3. Retseptlarda tez-tez uchrab turadigan so'z va iboralar bitta harfgacha qisqartirilishi mumkin.

Masalan: Misce – M., Da - D., Signa – S.

32-§. RETSEPTLARDA QISQARTIRISHGA RUXSAT ETILGAN SO'Z VA IBORALAR RO'YXATI

So'z yoki ibora	Qisqartirish	O'zbekcha tarjimasi
1	2	3
ana	āā	teng miqdorda, baravar
aqua destillata	aq.dest.	distillangan suv
cortex	cort.	po'stloq
Da (Detur) tales doses numero	D.t.d.N.	Shunday dozalardan..(son) ber. (berilgan bo'lsin)
decoctum	dec.	qaynatma
dilutus	dil.	suyultirilgan
Divide in partes aequales	Div.in p.aeq.	Teng qismlarga bo'ling
emulsum	emuls.	emulsiya
emplastrum	empl.	malham
extractum	extr.	ekstrakt
fiat yoki fiant	f.	hosil bo'lguncha
flos	fl.	gul
folium	fol.	barg
fructus	fr.	meva
1	2	3
guttas	gtt.	tomchi
herba	hb.	o't, yer ustki qismi
in ampullis	in amp.	ampulada

in capsulis	in caps. gel.	jelatinli kapsulalarda
in charta cerata	in ch.cer.	mumlangan qog'ozda
in tabulettis	in tab.	tabletkalarda
infusum	inf.	damlama
linimentum	linim.	liniment
liquor	liq.	suyuqlik
massa pilularum	m.pil.	hab dori massasi
Misce.Misceatur.	M.	Aralashtir. Aralashtirilgan bo'lsin.
Misce.Da.Signa.	M.D.S.	Aralashtir. Ber. Belgila.
Misce, fiat.	M.f.	Hosil bo'lguncha aralashtir. (birlik)
Misce, fiant.	M. f.	Hosil bo'lguncha aralashtiring. (ko'plik)
mucilago	mucil.	shilliq
numero	N.	son
obductus	obd.	po'st bilan qoplangan
oleum	ol.	moy, yog'
pilula	pil.	hab dori
pulvis	pulv.	kukun
quantum satis	q.s.	keragicha
radix	r., rad.	ildiz
recipe	Rp.	oling
rhizoma	rhiz.	ildizpoya
Signa. Signetur.	S.	Belgila. Belgilangan bo'lsin!
semen	sem.	urug'
siccus	sicc.	quruq
sirupus	sir.	sharbat
simplex	simpl.	oddiy
solutio	sol.	eritma
species	sp.	yig'ma
spissus	spiss.	quyuq
Sterilisa.Sterilisetur.	Steril.	Sterilizatsiya qil. Sterilizatsiya qilingan bo'lsin!
stigmata	stigm.	tumshuqcha, og'izcha
suppositorium	supp.	shamcha
tabletta	tab.	tabletk
tinctura	tinct.	nastoyka
unguentum	ung.	surtma

Mashqlar

1. Quyidagi retseptlarning to'liq shaklini yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Rp.: Sol.Magnii sulfatis 10% 10 ml
Tinct. Valerianae
Tinct. Convallariae āā 15 ml
M.D.S: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Rp.: Acidi salicylici 0.1
Ol. Helianthi 10.0
M.f.sol.

D.S.: Surtish uchun

3. Rp.: Sol. Ac. Hydrochlorici 2% 200 ml
Pepsini 3,0

Sir. simp. 20 ml

M.D.S: Kuniga 4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4. Rp.: Tinct. Strychni 2 ml
Natrii hydrocarbonatis 4,0

Extr. Belladonnae 0,12

Aq. Menthae ad 200 ml

M.D.S.:Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

5. Rp.: Emuls. Ol. Helianthi 180,0
Camphorae 2,0

Sirupi Sacchari 10 ml.

M.D.S. Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

6. Rp.: Inf.fol. Salviae 150 ml
Ac. Borici 2,0

M.D.S. Chayqash uchun

7. Rp.: Inf.hb. Thermopsidis ex 0,2:100 ml
Natrii benzoatis 2,0

Sirupi Sacchari 5 ml

M.D.S: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

8. Rp.: Dec. rad. Althaeae 120 ml
Codeini 0,05

Natrii hydrocarbonatis 3,0

M.D.S.: Kuniga 3 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.

9. Rp.: Extr. Belladonnae 0,015
Ichthyoli 0,1

Ol. Cacao 1,5

M.f. supp.

D.t.d. N3

S.:Kuniga 1 shamchadan qo'yilsin.

10. Rp.:Ac. lactici 0,05

Chinosoli 0.1

Ol. Cacao q.s. ut f. glob.



D.t.d. N20

S.:Ertalab va kechqurun 1 sharchadan qo'yilsin.

11. Rp.:Tab. fol. Digitalis 0,05

D.S.:Kuniga 3 marta 1 tabletkadan ichilsin.

12. Rp.: Aq. Plumbi

Aq. dest. āā 50 ml

Ac. borici 2,0

M.D.S.:

2. Retseptlarni tarjima qiling va qisqartirib yozing.

1.Ol: Glukoza eritmasi 40 %-200 ml

Nikotin kislota 0,25

Kodein 0,2

Valeriana nastoykasi 10 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2.Ol: Kodein fosfat 0,3

Natriy bromid 3,0

Marvaridgul nastoykasi 10 ml

Distillangan suv 5 ml.

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 20 tomchidan ichilsin.

3.Ol: Jelatin 0,3

Shakar sharbati 10 ml

Distillangan suv 100 ml gacha

Aralashtir. Ber.

Belgila: Har soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4.Ol: Gulxayri ildizi qaynatmasi 120,0

Kodein 0,05

Natriy gidrokarbonat 3,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: 5 yoshli bolaga kuniga 3 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.

5.Ol: Salitsilat kislotasi 0,1

Kungaboqar moyi 10,0

Eritma hosil bo'lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: Surtish uchun.

6.Ol: Kuchala nastoykasi 2,0

Natriy gidrokarbonat 4,0

Belladonna ekstrakti 0,12

Yalpiz suvi 200,0 gacha

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

7.Ol: Kanakunjut moyi

Shaftoli moyi teng miqdorda 25,0 dan

Oq mum 15,0

Lanolin 10,0

Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: Quruq teriga surtish uchun.

8.Ol: Magniy sulfat eritmasi 10 %-100,0

Marvaridgul nastoykasi

Valeriana nastoykasi teng miqdorda 15,0 dan

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

9.Ol: Afsonak yer ustki qismi damlamasi 2,0-100,0

Natriy benzoat 5,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: 5 yoshli bolaga kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichirilsin.

10.Ol: Xlorid kislota eritmasi 2%-200,0

Pepsin 3,0

Oddiy sharbat 20,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

I. "Retseptlarda so'zlarni qisqartirish" mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Retseptlardagi so'zlar qanday qisqartiriladi?

2. Retseptlardagi qaysi so'zlar bitta harfgacha qisqartiriladi?

3. Agar so'zning bosh qismida qatorasiga bir nechta undosh harflar kelsa bu so'z qanday qisqartiriladi?

II. Retseptlarda qisqartirishga ruxsat etiladigan so'zlar va iboralar ro'yxatini yod oling.

III. Retseptlarni to'liq shaklini yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

1.Rp.: Emuls. oleos. 100,0

Camphorae 1,0

Ol.Menthae piperitae gtt.V

M.D.S.: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2.Rp.: Sol. Glucosi 40 %-200,0

Ac.ascorbinici 2.0

Ac. nicotinic 0,25

Codeini 0,2

Tinct. Valerianae 10,0

M.D.S. Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3. Rp.: Inf. r. Althaeae ex 6.0-180,0

Natrii benzoatis

Elixiris pectoralis aa 1.5

Sir. Sacchari 10,0

M.S.D.: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

IV. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Chromolymphotrastum, Sulfo-bar, Propyliodonum, Propylix, Barii sulfas pro roentgeno, Magnevist, Echovist, Gadoteridol, Levovist, Fluorescein - natrium, Thyrefact, Pentagastrinum, tabulettae "Limontar", Rifathyroinum, Thyroliberin, Achillea asiatica, Betonica officinalis, Dolamin, Bryonia alba, Brassica juncea, Avermex, Centaurium umbellatum, Chelidonium majus, Sternocard, Cichorium intybus, Cimicifuga dahurica, Juglans regia, Cinnamonum camphora, Divascol, Menyanthes trifoliata, Leonurus quinquelobatus, Nerium oleander, Urtica dioica, Orthosiphon stamineus, Oxycoccus quadripetalus, Padus racemosa, Panax schin-seng, Pyrethrum cinerariaefolium, Quercus petraea, Rauwolfia serpentina, Rhaponticum carthamoides, Rhus coriaria, Tussilago farfara, Viscum album, Zea mays, Strychnos nux-vomica, Chlortetracyclinum, Polyvitaplex, Antianaeminum.

V. Quyidagi maqollarni yod oling.

1. De lingua stulta incommoda multa.

Be'mani so'zlar katta ko'ngilsizliklarga olib keladi.

2. Festina lente. Sekin shoshilgin.



Farmatsevtik atama va retseptlarni tarjima qilish

1. Grammatika bo'yicha o'zlashtirgan bilimlaringizni quyidagi savollar yordamida tekshirib ko'ring.

1. I turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
2. I turlanishdagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
3. II turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
4. II turlanishdagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchalarini ayting.
5. III turlanishdagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchasini ayting.
6. Undosh tipga qaysi otlar kiradi?
7. Aralash tipga qaysi otlar kiradi?
8. Unli tipga qaysi otlar kiradi?
9. IV turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
10. IV turlanishdagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
11. V turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
12. V turlanishdagi otlarning kelishik qo'shimchalarini ayting.
13. I-II turlanishdagi sifatarga qaysi sifatlar kiradi?
14. I-II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
15. III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo'linadi?
16. 3 qo'shimchali, 2 qo'shimchali va 1 qo'shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
17. III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
18. Tuzlar nomi lotin tiliga qanday tarjima qilinadi?
19. Retsept nechta qismdan tashkil topadi?
20. Retseptning lotincha qismi qanday yoziladi?
21. Qanday retseptlarni bilasiz?

2. Quyidagi so'zlarning turlanishini va rodini aniqlang.

Juniperus, flos, fructus, solutio, gemma, sal, Nuphar, usus, species.

3. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Bodom, qaynatma, ildizpoya, surtma, shira, po'stloq, kun, ko'knori, urug', pasta.

Namuna:

Nom.Sing.	Typ.	Род	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen.Plur.
species-yig'ma	V	f	speciei-yig'maning	species-yig'malar	specierum-yig'malar-ning

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima

qiling.

- 1) me‘da yig‘masi
- 2) na‘matak mevalari
- 3) ilonsimon toron ildizpoyasi
- 4) levzeyaning ildizpoyasi ildizlari bilan
- 5) jenshen ildizi
- 6) zupturum barglari
- 7) ravoch ildizining tabletkalari
- 8) jag‘-jag‘ning suyuq ekstrakti
- 9) mavrak barglari
- 10) cho`ktirilgan oltingugurt
- 11) strofant urug‘lari
- 12) dorivor mavrak barglari

5. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Aetheris purissimi pro narcosi 100,0

Da tales doses numero 5.

Signa: Narkoz uchun.

2. Recipe: *Herbae Convallariae* 1,0

Herbae Leonuri 2,0

Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5

Misce, fiant species.

Da.

Signa: Bir stakan qaynagan suvda damlansin.

3. Recipe: *Foliorum Digitalis* 1,0

Foliorum Menthae piperitae 4,0

Fructuum Foeniculi 1,5

Misce, fiant species.

Da.

Signa: Har bir doza 1 stakan qaynagan suvda damlansin.

Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4. Recipe: *Radicis Althaeae* 10,0

Radicis Glycyrrhizae 8,0

Foliorum Eucalypti 2,0

Olei Menthae piperitae III

Misce, fiant species.

Da.

Signa:

5. Recipe: *Specierum antiasthmaticarum* 8,0

Da.

Signa: Chekish uchun

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: *Angishivonagul* barglari 1,0

Bahorgi adonisning yer ustki qismi 4,0

Ukrop mevalari 2,0

Arpabodiyon mevalari 1,0

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Shunday dozalarda 10 (son) ta berilsin.

Belgila: 1 stakan qaynab turgan suvga damlash kerak.

2.Ol: *Marvaridgul yer ustki qismi*

Bahorgi adonisning yer ustki qismi teng miqdorda 3,0 dan

Do'lana mevasi 2,0

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Shunday dozalardan 20 (son)ta ber.

Belgila: Har bir dozani 1 stakan qaynab turgan suvda damlash kerak. Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3.Ol: *Frangula po'stlog'i 3,0*

Qizilmiya ildizi

Gulxayri ildizi teng miqdorda 2,0 dan

Natriy tetraboratdan 2,0

Kaliy tetraboratdan 2,0

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: 1 stakan qaynab turgan suvda damlash kerak.

Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

7. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. In baccis Oxycocci vitaminum C continetur. 2. Species ex foliis, radicibus, herbis et fructibus plantarum praeparantur. 3. Species sunt aromaticae, diureticae, cholagogae et ceterae. 4. Infusum herbae Artemisiae absinthii ut amarities adhibetur. 5. Species pectorales ut remedium expectorans adhibentur.

133-§. Sifat darajalari

Lotin tilida sifatlar uchta darajaga ega:

1. Oddiy daraja – **Gradus positivus**
2. Qiyosiy daraja – **Gradus comperativus**
3. Orttirma daraja – **Gradus superlativus.**

134-§. Qiyosiy darajadagi sifatlar

Mujskoy va jenskiy roddagi sifatlarning qiyosiy darajasini hosil qilish uchun sifat negiziga **-ior**, sredniy rodga esa **-ius** qo'shimchasi qo'shiladi.

Oddiy daraja		Qiyosiy daraja
Nom. Sing.	Gen. Sing.	Nom. Sing.
purus - toza	pur-i	pur-ior pur-ius- tozaroq
subtilis - mayda	subtil-is	subtil-ior subtil-ius - maydaroq
niger - qora	nigr-i	nigr-ior nigr-ius- qoraroq

Qiyosiy darajadagi sifatlarning lug'at shakli quyidagicha bo'ladi:

purior, ius- tozaroq

Qiyosiy darajadagi sifatlar kelishiklar bo'yicha III turlanishdagi otlar kabi turlanadi.

Turlanish namunasi

Causus	Singularis		Pluralis	
	m. f.	n.	m. f.	n.
Nom.	subtilior	subtilius	subtiliores	subtiliora
Gen.	subtilioris		subtiliorum	
Dat.	subtiliori		subtilioribus	
Acc.	subtiliorem	subtilius	subtiliores	subtiliora
Abl.	subtiliore		subtilioribus	

135-§. Orttirma darajadagi sifatlar

Farmatsevtik terminologiyada orttirma darajadagi sifatlar uchraydi. Sifatlarning orttirma darajasi oddiy daraja negiziga **-issim-** suffiksini va rod qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Orttirma darajadagi sifatlarning lug'at shakli quyidagicha bo'ladi:

purissimus, a, um – juda ham (eng) toza
subtilissimus, a, um - juda ham (eng) mayda.

Orttirma darajadagi sifatlar I-II turlanishdagi sifatlar kabi turlanadi va otlarga rodga, sonda va kelishikda moslashadi.

Masalan: oleum purissimum - juda toza moy.

Mujskoy rodga tegishli **-er** qo‘shimchali sifatning orttirma darajasini hosil qilish uchun **Nom.Sing.**ga **-rim-** va rod qoshimchalari (**-us, -a, -um**) qo‘shiladi.

Masalan: niger-rim-us, a, um – juda ham qora.

136-§. Quyidagi orttirma darajadagi sifatarni yod oling!

subtilissimus, a, um – juda mayda
purissimus, a, um – juda toza
optimus, a, um – eng yaxshi
grossissimus, a, um – juda yirik, eng yirik

Mashqlar

1. Qavs ichidagi sifatarni otlarga moslashtiring va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) oxydum (subtilissimus, a, um)
- 2) acidum (subtilissimus, a, um)
- 3) pulvis (subtilissimus, a, um)
- 4) solutio (purissimus, a, um)
- 5) Natrii carbonas (purissimus, a, um)
- 6) Vaselinum (optimus, a, um)

2. Quyidagi terminlarni Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|--------------------------|------------------------------|
| 1) juda mayda rux oksidi | 5) yirik kukun |
| 2) juda toza vazelin | 6) juda mayda oq streptotsid |
| 3) juda mayda kukun | 7) juda toza efir |
| 4) juda yirik kukun | 8) juda yaxshi oq vazelin |

3. RETSEPTNI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILING.

1. Recipe: Aetheris purissimi pro narcosi 100,0
Da tales doses numero 5.
Signa: Narkoz uchun.

4. RETSEPTLARNI LOTIN TILIGA TARJIMA QILING.

1. Ol: Kseroform 0,3
Vazelin moyi 2,0
Eng yaxshi oq vazelin 8,0
Surtma hosil bo‘lguncha aralashtir.
Ber.
Belgila: Qovoqqa surtish uchun.

2. Ol: Juda mayda oq streptotsid 5,0
Shunday dozalardan 6 (son) ta berilsin.
Belgilansin: Sepma dori

5. RETSEPTLARNING TO‘LIQ SHAKLINI YOZING VA TARJIMA QILING.

- 1.Rp.: Pulv. Ac. borici subtilissimi 10,0
D.S.: Quloqqa purkash uchun.
- 2.Rp.:Dermatoli 10,0
Zinci oxydi 20,0
Talci 30,0
M.f. pulv. subt.
D.S.: Sepma dori.
- 3.Rp.:Sol. Synoestrol 2 % 1 ml
D.t.d. № 30 in amp.
S.: Kuniga 2 ml.dan mushakka yuborilsin.
- 4.Rp.:Kalii acetatis 3,0
Aq.dest. 200 ml
D.S.: Kuniga 4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

137- §. Farmatsevtik terminologiyada qo‘llaniladigan ravishlarni yod oling!

ana – teng, teng miqdorda
cito – darrov, tez, tezda, tezlik bilan
sitissime – juda tez
minutum – mayda
optime – eng yaxshisi
caute – avaylab, ehtiyotlik bilan
lente – sekin (ta’siri bo‘yicha)
ultralente – juda sekin (ta’siri bo‘yicha).

I. "Sifat darajalari. Qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlar" mavzularini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Lotin tilida sifatlarning nechta darajasi bor va ularning lotincha nomlarini ayting.
2. Qiyosiy darajadagi sifatlar qanday turlanadi?
3. Orttirma darajadagi sifatlar qanday turlanadi?
4. Qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlar otlarga qanday moslashadi?

II. 136,137 -§§ dagi orttirma darajadagi sifatlarni va ravishlarni yod oling.


III. Terminlarni Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---------------------|--------------------|
| 1)eng yaxshi vosita | 3)eng toza vosita |
| 2) eng yirik qism | 4) juda mayda barg |

IV. Retseptlarning to‘liq shaklini yozing va tarjima qiling.

1. Rp.: Streptocidi albi subtilissimi 2,0
Vaselini flavi 10,0
M.f. ung.
D.S.: Ko‘z uchun surtma.
2. Rp.: Sol. Antipyrini 10 % 30 ml
D.S.: Burundan qon oqqanda qo‘yiladigan tamponlarni namlash uchun.

3. Rp.: Aethylmorphini hydrochloridi 0,03
Sir. Althaeae
Aq. dest. āā 50 ml
M.D.S.: 3 yoshli bolaga kuniga 2-3 marta 1 choy qoshiqdan berilsin.
4. Rp.: Calcii lactatis
Calcii glycerophosphatis āā 0,25
D.t.d. № 20 in tab.
S.: Kuniga 2-3 marta 1ta tabletkadan qabul qilinsin.
5. Rp.: Zinci sulfatis 0,25 %
Plumbi acetatis āā 0,3
Aq. dest. 200 ml
M.D.S.: Purkab yuvish uchun.
6. Rp.: Tab. Neomycini sulfatis 0,1 10
D.S.: Kuniga 2 marta 1 tadan tabletkadan qabul qilinsin.
7. Rp.: Ol. Vaselini purissimi pro us. int. 200,0
Ol. Menthae gtt. II.
M.D.S.: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.



138 - §. Son. Sanoq va tartib sonlar

Lotin tilida sonlar o'zbek tilidagidek sanoq va tartib sonlarga bo'linadi.

QUYIDAGI SANOQ VA TARTIB SONLARNI
YOD OLING!

Rimcha raqam	Arabcha raqam	Sanoq son	Tartib son
I	1	unus,a,um – bir	primus,a,um – birinchi
II	2	duo,duae – ikki	secundus,a,um – ikkinchi
III	3	tres,tria – uch	tertius,a,um – uchinchi
IV	4	quattuor – to'rt	quartus,a,um – to'rtinchi
V	5	quinque – besh	quintus,a,um – beshinchi
VI	6	sex – olti	sextus,a,um – oltinchi
VII	7	septum – etti	septimus,a,um – ettinchi
VIII	8	octo – sakkiz	octavus,a,um – sakkizinchi
IX	9	novem – to'qqiz	nonus,a,um – to'qqizinchi
X	10	decem – o'n	decimus,a,um – o'ninchi

102 - §. Sonlar yordamida so'zlarning yasalishi

Ayrim tibbiy, farmatsevtika va botanika terminlari lotin tilida sonlar yordamida yasaladi:

duo-, bi-, bin- ikki – **bifolia** – ikki bargli

ter-, tri- uch – **tricolor** – uch rangli

quadr-, quadri- to'rt – **quadrangulum** – to'rt qirrali

quinque-, quinqui - besh – **quinquefolia** – besh bargli

sex-, sexi-, - olti – **sexdentatus, a, um** – olti tishli

septem-, septi- - yetti

octo- - sakkiz

Masalan : **Platanthera bifolia** – ikki bargli platantera

Bidens tripartita – uch bo'lakli qoraqiz (ittikanak)

Hypericum quadrangulum – to'rt qirrali dalachoy

Leonurus quinquelobatus – besh bo'lakli arslonquyruq

Panax quinquefolia - besh bargli jenshen

Mashqlar

1. *Quyidagi terminlarni Nom. va Gen. da tarjima qiling.*

1) uchbargli meniantes bargi

2) uch bo'lakli qoraqiz

- 3) arslonquyruq suyuq ekstrakti
- 4) besh bo‘lakli arslonquyruq
- 5) qoraqiz yer ustki qismi damlamasi
- 6) uch rangli gunafsha
- 7) eman po‘stlog‘ining qaynatmasi
- 8) dala qirqbo‘g‘imining yer ustki qismi
- 9) meniantesning quyruq ekstrakti
- 10) uch rangli gunafshaning yer ustki qismi

2. RETSEPTLARNING TO‘LIQ SHAKLINI YOZING VA TARJIMA QILING.

1. Rp.: Natrii thiosulfatis 10,0
Aq. dest. 100 ml
M.D.S.: Har 5-10 minutda 1-2 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Rp.: Tab. Furacilini 0,02 ad.us. ext. № 10.
D.S.: Chayqash uchun 100 ml suvda 1 ta tabletka eritilsin.
3. Rp.: Sol. Furacilini 0,02 % 10 ml
Sterilisetur!
D.S.: Ko‘z uchun tomchi.
4. Rp.: Perhydroli 5,0
Aq. dest. 15 ml
M.D.S.: Milkka surtish uchun.
5. Rp.: Sol.Ac. salicylici spirituosae 1 % 40 ml
D.S.: Sirtidan qo‘llash uchun.
6. Rp.: Methyleni coerulei 0,5
Spir. aethylici 70 % 50 ml
M.D.S.: Terining zararlangan joyiga surtish uchun.
7. Rp.: Picis liquidae
Saponis viridis āā 15,0
Spir. aethylici 35% 15 ml
M.f. lin.
D.S.: Sirtidan qo‘llash uchun
8. Rp.: Euphyllini 0,1
Ephedrini hydrochloridi 0,025
Sacchari 0,2
M.f. pulv.
D.t.d. № 12 in caps. gel.
S.: Kuniga 2-3 marta 1 ta kapsuladan qabul qilinsin.
9. Rp.: Sol. Ammonii chloridi 2,5 % 200 ml
D.S.: Kuniga 5 marta 4 osh qoshiqdan ichilsin.
10. Rp.: Decocti fol. Uvae ursi 3,0:100 ml
D.S.: 5 yoshli bolaga kuniga 4 marta 1 desert qoshiqdan ichirilsin.
11. Rp.: Streptocidi albi subtilissimi 2,0

Vaselini flavi 10,0
M.f. ung.
D.S.: Ko‘z uchun surtma.

3. Retseptlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. *Recipe: Herbae Convallariae 1,0*
Herbae Leonuri 2,0
Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: Bir stakan qaynagan suvda damlansin.
2. *Recipe: Foliorum Digitalis 1,0*
Foliorum Menthae piperitae 4,0
Fructuum Foeniculi 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: Har bir doza 1 stakan qaynagan suvda damlansin.
Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. *Recipe: Radicis Althaeae 10,0*
Radicis Glycyrrhizae 8,0
Foliorum Eucalypti 2,0
Olei Menthae piperitae III
Misce, fiant species.
Da.
Signa:
4. *Recipe: Specierum antiasthmaticarum 8,0*
Da.
Signa: Chekish uchun.

4. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. *Ol: Angishvonagul barglari 1,0*
Bahorgi adonisning er ustki qismi 4,0
Ukrop mevalari 2,0
Arpabodiyon mevalari 1,0
Yig`ma hosil bo`lguncha aralashtir.
Shunday dozalarda 10 (son) ta berilsin.
Belgila: 1 stakan qaynab turgan suvga damlash kerak.
2. *Ol: Marvaridgul yer ustki qismi*
Bahorgi adonisning yer ustki qismi teng miqdorda 3,0 dan
Do`lana mevasi 2,0
Yig`ma hosil bo`lguncha aralashtir.
Shunday dozalardan 20 (son) ta ber.
Belgila: Har bir dozani 1 stakan qaynab turgan suvda damlash kerak.
Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3.Ol: Frangula po`stlog`i 3,0

Qizilmiya ildizi

Gulxayri ildizi teng miqdorda 2,0 dan

Natriy tetraboratdan 2,0

Kaliy tetraboratdan 2,0

Yig`ma hosil bo`lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: 1 stakan qaynab turgan suvda damlash kerak.

Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.



MIQDOR SONLAR¹⁹

Table No. 1 - Cardinal numerals

Arabic	1-10	Arabic	11-20	Arabic	21-100	Arabic	200-300
1	I unus, una, unum	11	XI undecim	21	XXI viginti unus	200	CC ducenti, ae, a
2	II duo, duae, duo	12	XII duodecim	30	XXX triginta	300	CCC trecenti, ae, a
3	III tres, tres, tria	13	XIII tredecim	40	XL quadraginta	400	CD quadringenti, ae, a
4	IV quattuor	14	XIV quattuordecim	50	L quingenta	500	D quingenti, ae, a
5	V quinque	15	XV quindecim	60	LX sexaginta	600	DC sescenti, ae, a
6	VI sex	16	XVI sedecim	70	LXX septuaginta	700	DCC septingenti, ae, a
7	VII septem	17	XVII septendecim	80	LXXX octoginta	800	DCCC octingenti, ae, a
8	VIII octo	18	XVIII duodeviginti	90	XC nonaginta	900	CM nongenti, ae,

¹⁹ PhDr. Lenka Řitičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7




Fig. No. 3 – Plant description

²⁰ PhDr. Lenka Řítičková, MVDr. Pavel Brauner, Ph.D. Professional Latin for Pharmacists., BRNO 2014., ISBN 978-80-7305-736-7

Mustaqil ta`limni tashkil etishning shakli va mazmuni

	Mustaqil ta`lim mavzular	Soatlar hajmi	Kompetensiyalar
<i>1 semetr</i>			
1	I – turlanishdagi otlar	4	
2	Aniqlik va majhullik nisbatlari	6	
3	II turlanishidagi otlar	8	
4	I-II turlanishdagi sifatlar	6	
5	III- turlanishidagi otlar	8	
6	III turlanishdagi sifatlar	8	
7	IV– turlanishdagi otlar	8	
8	V–turlanishdagi otlar	8	
9	Orttirma darajadagi sifatlar	8	
10	Son. Sanoq va tartib sonlar.	8	
	Jami	72	

Fan bo`yicha mustaqil ish quyidagi shakllardan foydalaniladi:

1. Leksik birliklar yordamida krossvordlar tuzish.
2. Atama va retseptlarni tarjima qilish.
3. Klaster va testlar tuzish.
4. Maqol va hikmatlarni yod olish.
5. Taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.
6. Mustaqil retsept yozish.

GLOSSARY

Lotincha - O'zbekcha- Ruscha- Inglizcha glossari

Lotincha	O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha
	A		
acidum, i,n	kislota	кислота	Acid
Acorus (i) calamus (i),m	oddiy igir	аир болотный	sweet flag
activatus, a, um	faollashtirilgan	активированный	activated
addo, ere, 3	qo'shmoq	добавлять	add
adeps, ipis, m	yog'	Жир	fat
adeps (ipis) suillus (i)	cho'chqa yog'i	Свиной жир	adeps
adhaesivus, a, um	yopishqoq	Липкий	adhesive
adjuvo, are, 1	yordam bermoq	Помогать	forward
Adonis, idis, m	adonis	Горицвет, адонис	marsh gilliflower
Adonis (idis) vernalis (is)	bahorgi adonis		Adonis vernalis
adsorbens, ntis	shimadigan	адсорбирующий	absorbent, absorptive
adstringens, ntis	burushtiruvchi	вяжущий	astrigent
adulti, orum	kattalar	взрослые	elders
aeger, aegri, m	bemor, kasal	больной	Patient
aegrota, ae, f	kasal ayol, bemor ayol	больная	patient
aegrotus, i, m	bemor, kasal	больной	sick
aër, is, m	havo	Воздух	Air
aërosolum, i,n	aerazol	аэрозоль	aerosol, spray
aequalis, e	bir xil, babbarobar	равный	equal
Aethamidum, i,n	etamid	Этамидум	ethamide
Aethazolium, i,n	etazol	Этазол	ethazole
aether, eris, m	efir	Эфир	ether; ester

aethereus, a, um	efirli	Эфирный	ethereal
Aethimizolum, i,n	etimizol	ЭТИМИЗОЛ	ethymizole
Aethinyloestradiolum, i,n	etinilestradiol	ЭТИНИЛЭСТРАДИОЛ	ethinyl estradiol
aethylicus, a, um	etil i (si)	ЭТИЛОВЫЙ	ethyl
agito, are, l	chayqatmoq	ВЗБАЛТЫВАТЬ	shake
albus, a, um	oq	БЕЛЫЙ	white
alcaloidum, i,n	alkaloid	АЛКАЛОИД	alkaloid
aliter	boshqacha	ПОДРУГОМУ	statable
Allium (i) sativus (i)	sarimsoq piyoz	ЧЕСНОК	garlic
Allocholum, i,n	alloxol	АЛЛАХОЛ	allachole
Alnus, i,f	qandag'och, olxa	ОЛЬХА	alder
Aloë, ës, f	aloy	АЛОЭ, САБУР	aloe, Aloe
Althaea, ae, f	gulxayri	АЛТЕЙ	marshmallow
alumen, inis, n	achchiqtosh	КВАСЦЫ	alum
amarities, ei, f	achchiq ta'm, taxir maza	ГОРЕЧЬ	Bitter taste
amarus, a, um	achchiq	amarus, a, nm	bitter
Amidopyrinum, i,n	amidopirin	АМИДОПИРИН	amidopyrine
ammoniatum, a, um	ammiakli	АММИАЧНЫЙ	ammoniac
ampulla, ae, f	ampula	АМПУЛА	ampoule
amurensis, e	amur i(si)	АМУРСКИЙ	Amur
Amycazolum, i,n	amikazol	АМИКАЗОЛ	amicazole
Amygdala, ae, f	bodom	МИНДАЛЬ	almond
amylaceus, a, um	kraxmalli, kraxmalga tegishli	КРАХМАЛЬНЫЙ	Amylaceous, amyloid
amylum, i,n	kraxmal	КРАХМАЛ	starch
ana	teng miqdorda, teng	ПОРОВНУ, ПО	equal
Anaesthesinum, i,n	anestezin		anesthesin

anaestheticus, a, um	ogʻriqsizlantiruvchi	обезболиваю- щий	anesthetic,
analgeticus, a,um	ogʻriqni qoldiruvchi,	болеутоляющий	analgetic
Analginum, i,n	analgin	Анальгин	analgine
anhydricus, a, um	suvsiz	Безводный	anhydrous
animal, alis, n	hayvon	Животное	animal
anisatus, a, um	arpabodiyonli	Анисовый	anise
Anisum, i,n	arpabodiyon, oddiy anis	Анис	anise
annuus, a, um	bir yillik	однолетний	annual
antiasthmaticus, a, um	astmaga qarshi	Противоасма- тический	antiasthmatic
antidiarrhoicus, a, um	ich ketishiga qarshi	Противопонос- ный	antidiarrheal
antidiphthericus, a, um	boʻgʻmaga qarshi	Противодифте- рийный	antidiphtheritic
antidotum, i,n	zaharga qarshi dori	противоядие	antidote
antigangraenosus, a, um	gangrenaga qarshi	противогангreno- зний	antigangrenous
antihaemorrhoidalis, e	bavosilga qarshi	противогеморро- идальный	anti - haemorrhoidal
antipestosus, a, um	oʻlatga qarshi	противочумный	antiplague
antipyretius, a, um	issiqni pasaytiruvchi	жаропонижающ- ий	antipyretic
antirabicus, a, um	quturishga qarshi	против бешенства	anti lyssa
antisepticus, a, um	antiseptik	антисептик	antiseptic
antitetanicus, a, um	qoqsholga qarshi	противостолбня- чный	antitetanic

antituberculosicus, a, um	silga qarshi	противо туберкулезный	antituberculous
apis, is, f	asalari	пчела	bee
Apomorphinum, i, n	apomorfin	апоморфин	apomorphine
Aprenalum, i, n	aprenal	Апренал	Aprenal
Apressinum, i, n	apressin	Апрессин	apressine
Aprophenum, i, n	aprofen	апрофен	aprophene
aqua, ae, f	suv	Вода	water
aquosus, a, um	suvli	Водный	aqueous
Arachis, idis, f	yeryong'oq	Арахис	ground nut
Aralia, ae, f	araliya	Аралия	sarsaparilla
arenarius, a, um	qumli, qumloq	песчаный	Arenaceous, sandy
Argentum, i, n	kumush	Серебро	silver
Armeniaca, ae, f	o'rik	абрикосовое дерево	Abricot tree
Arnica, ae, f	arnika	Арника	arnica
aromaticus, a, um	xushbo'y	Ароматический	aromatic, fragrant
ars, artis, f	san'at	Искусство	art
Arsenicum, i, n	margimush	Мышьяк	arsenic
Artemisia (ae) absinthium (i)	achchiq shuvoq, ermon	Полынь горькая	common wormwood
arvensis, e	dala i (si)	Полевой	field
aspersio, onis, f	sepma dori	Присыпка	powder
aspersio (onis) puerilis	bolalar sepma dorisi	Присыпка детская	Child powder
auctor, oris, m	muallif, petsept yozgan kishi	Автор (составитель)	author

Aurum, i, n	oltin	рецепта) Золото	gold
axungia, ae, f	moy, yog‘	Жир, сало	fat
B			
bacca, ae, f	danaksiz meva, rezavor meva	Ягода	berry
bacillus, i, n	tayoqcha	Палочка	bacillus
bactericidus, a, um	bakteritsid	Бактерицидный	bactericidal
bacterium, i, n	bakteriya	Бактерия	bacterium
balsamum, i, n	balzam	бальзам	balsam
balsamum (i)	Shostakovskiy	бальзам	Balm
Schostakovsky	balzami	Шостаковского	Shostakovysky
Barium, i, n	bariy	барий	barium
basis, is, f	asos, negiz	основание, основа	base
Belladonna, ae, f	belladonna	красавка	deadly nightshade
Bellasthesinum, i, n	bellastezin	белластезин	bellasthizine
benzoicus, a, um	benzoyli	Бензойный	benzoic
Berberidaceae	zirkdoshlar		
Berberis, idis, f	zirk	барбарис	barberry
Berberis (idis) vulgaris	oddiy zirk	барбарис обыкновенный	ripperidge tree
Betula, ae, f	qayin	берёза	birch, Betula
Bidens, ntis, f	qoraqiz (ittikanak)	череда	beggar-ticks
Bismithum, i, n	vismut	висмут	bismuth
Bistorta, ae, f	ilonsimon toron	Змеевик	(European) bistort
bolus, i, f	gil, tuproq	Глина	clay

borax, acis, f	bura	Бура	borax
briquetum, i, n	briket	Брикет	briquette
Bromum, i, n	brom	Бром	bromine
brucellicus, a, um	qora oqsoq (brutsellyoz)ga oid	бруцеллёзный	brucellar
bulbus, i, m	piyoz boshi, piyoz	луковица	Bulb, bulbus
Bursa (ae) pastoris	jag‘ - jag‘	пастушья сумка	blindweed

С

Cacao	kakao(turlanmaydi)	Какао	cacao
Calcium, i, n	kalsiy	кальций	calcium
Calendula, ae, f	tirnoqgul	календула	calendula, marigold
camphora, ae, f	kamfora	камфора	camphor
camphoratus, a, um	kamforali	Камфорный	camphoric
Capsicum, i, n	qalampir, garimdori	Стручковый перец	capsicum; cayenne
capsula, ae, f	kapsula	Капсула	capsule
carbo, onis, m	ko‘mir	уголь	charcoal
carbonicus, a, um	ko‘mir i (si)	угольный	carbonic
cardiacus, a, um	yurakka ta’sir etuvchi, yurak i(si)	сердечный	cardiac
carolinus, a, um	karlsbad (Karlovi Vari) i (si)	карловарский	Karlovy Vary
catharticus, a, um	ich suradigan, surgı	слабительный	Cathartic, laxative
caute	ehtiyotlik bilan	осторожно	caution
cella, ae, f	hujayra	клетка	cell
cellula, ae, f	hujayracha	Клеточка	cellule

Centaurium, i, n	tillabosh	Золототысячник	centaury
cera, ae, f	mum	Воск	Wax
ceratus, a, um	mumlangan	вощенный	waxed
Chamomilla, ae, f	moychechak	ромашка	daisy wheel
charta, ae, f	qog‘oz	бумага	paper
charta (ae) Sinapis	xantal qog‘oz, gorchichnik	горчичник	mustard plaster
chartaceus, a, um	qog‘ozga tegishli	бумажный	paper
chinensis, e	xitoy i (si)	китайский	Chinese
Chininum, i, n	xinin	хинин	quinine
Chloraminum, i, n	xloromin	хлоромин	chloromine
Chloroformium, i, n	xloroform	хлороформ	chloroform
Chlorum, i, n	xlor	хлор	chlorine
cholagogus, a, um	o‘t xaydovchi	желчегонный	cholagogue
chole, es, f	o‘t, safro	желчь	bile, gall, fel
cholericus, a, um	vaboga oid	холерный	choleraic
cinerius, a, um	kulrang	серый	grey
cito	tez, tezda, tezlik bilan	быстро, срочно	urgent
Citrus, i, f	limon (daraxti)	лимон (дерево)	lemon
Citrus (i) unshiu	mandarin (daraxti)	мандарин (дерево)	tangerine tree
claudio, ere, 3	yopmoq, zichlab berkitmoq	закрывать, заку- поривать	close
clavus, i, m	qadoq	мозоль	corn, callosity
Codeinum, i, n	kodein	кодеин	codeine
coeruleus, a, um	ko‘k zangori	синий, голубой	blue
Coffea, ae, f	kofe	кофе	coffee
Coffeinum, i, n	kofein	кофеин	caffeine
colatio, onis, f	suzish, suzib	процеживание	percolation

	tindirish		
colatura, ae, f	suzilgan suyuqlik	процеженная жидкость	Percolated fluid
colla, ae, f	yelim	клей	glue
collagenicus, a, um	kollagenli	коллагеновый	collagenous
Collargolum, i, n	kollargol	колларгол	Collargoal
colligo, ere, 3	yig‘moq	собирать	gather
colo, are, 1	suzmoq, suzib tinitmoq	процеживать	riddle, strain
color, oris, m	rang	цвет	colour
communis, e	oddiy	общий, обыкновенный	common
compositus, a, um	murakkab	Сложный	composite
concentratus, a, um	konsentrlangan	Концентрирован -ный	concentrated
concido, ere, 3	kesmoq, qirqmoq	нарезать, резать	cut
concisus, a, um	maydalangan, kesilgan, qirqilgan	измельченный, нарезанный	Comminute, crush
conservatus, a, um	konservatsiya qilingan	консервированны й	tinned
conspergo, ere, 3	har tomonga sepmoq	обсыпать	cover
constituens, ntis	shakl hosil qiluvchi	формообразующ ий	shape- generating
contero, ere, 3	ishqalamoq	Растирать	triturate
contra	qarshi	Против	anti
contundo, ere, 3	to‘ymoq	Толочь	comminute
contusus, a, um	yanchilgan, tuyilgan	толченный	comminuted
Convallaria, ae, f	marvaridgul	ландыш	lily of the valley

coquo, ere, 3	pishirmoq, qaynatmoq	варить	boil
cor, cordis, n	yurak	Сердце	heart
Corazolum, i, n	korazol	коразол	pentylenetetraz ol
Cordiaminum, i, n	kordiamin	кордиамин	nikethamide
Coriandrum, i, n	kashnich	кишнец, кориандр	coriander
cornu, us, n	muguz (shox)	Рог	corn, horn,
corrigens, ntis	tuzatuvchi, yaxshilovchi		
cortex, icis, m	po‘stloq	Кора	cortex; rind, bark
Cortisonum, i, n	kortizon	Кортизон	cortisol
Crataegus, i, f	do‘lana	Боярышник	hawthorn
creta, ae, f	bo‘r	Мел	chalk
crudus, a, um	tozalanmagan	сырой, необработанный	raw
crystallisatus, a, um	kristal	кристаллический	crystalline
crystallus, i, f	kristal	кристалл	crystal
Cucurbita, ae, f	qovoq	Тыква	pumpkin, gourd
Cucurbitaceae	qovoqdoshlar	Тыква	pumpkin
Cuprum, i, n	mis	Медь	copper
curatio, onis, f	davolash	Лечение	heal
cutis, is, f	teri	кожа	skeen
D			
da in ampullis	ampulada ber	вда́й в ампулах	Give in ampoule

da in capsulis	kapsula shaklida ber	выдай в капсулах	Give in capsule
da in charta	qog'ozda ber	выдай в бумаге	Give in paper
da in scatula	qutichada ber	выдай в коробочке	Give in box
da in tabulettis	tabletka shaklida ber	выдай в таблетках	Give in tabulett
da in vitro nigro	qora shisha idishda ber	выдай в темной склянке	Give in dark bottle
Datura (ae) stramonium (i)	oddiy bangidevona	Дурман	datura
decoctum, i, n	qaynatma	Отвар	decoction
dens, ntis, m	tish	Зуб	teeth
dentes, ium	tishlar	зубы	tooth
depuratus, a, um	tozalangan	очищенный	purified
depuro, are, 1	tozalamoq	очищать	clean
Dermatolum, i, n	dermatol	дерматол	dermatolysis
desicco, are, 1	quritmoq	высушивать	dry
Desoxycorticosteronum, i, n	dezoksikortikosteron	дезоксикортикостерон	de(s)oxycortone, cortexone
destillatio, onis, f	distillyatsiya	дистилляция, перегонка	distillation
destillatus, a, um	distillangan	дистиллированный	distilled
destillo, are, 1	distillyatsiya qilmoq	дистиллировать, перегонять	distillate
diaphoreticus, a, um	terlatuvchi	потогонный	sudorific, diaphoretic
Diazolinum, i, n	diazolin	диазолин	
Dibazolum, i, n	dibazol	дибазол	

Dicainum, i, n	dikain	дикаин	
dies, ei, f	kun, kunduzgi	день	day
Digitalis, is, f	angishvonagul	наперстянка	foxglove
Digitalis(is) purpurea(ae)	qizil angishvonagul	наперстянка пурпурная	Cowlflap, lion's-mouth
diluo, ere, 3	suyultirmoq	разбавлять	dilute
dilutus, a, um	suyultirilgan	разбавленный	diluted
divido, ere, 3	bo'lmoq, ajratmoq	разделять	divide
divisus, a, um	bo'lingan	разделенный	devided
diureticus, a, um	siydik haydovchi	мочегонный	diuretic
do, are, 1	bermoq	выдавать	give
doceo, ere, 2	o'qitmoq, o'rgatmoq	учить	teach
doctrina, ae, f	ilm, fan	наука	science
dosis, is, f	doza	доза	dose
dragee	draje(turlanmaydi)	Драже	dragée
dragees (plur)	draje	Драже (мн)	dragée
dulcis, e	shirin	сладкий	sweet
durus, a,um	qattiq, mustahkam	твёрдый	Hard, solid

E

Echinopanax, acis, n	exinopanaks	заманиха	wolfberry
Echinopanax (acis) elatum (i)	baland exinopanaks	заманиха	devil's-club
elasticus, a, um	elastik	эластичный	Elastic, resilient
electrocardiographia, ae, f	elektrokardiografiya	электрокардио- графия	electrocardiogr aphy
Eleutherococcus, i, m	eleuterokokk	элеутерококк	Siberian ginseng
elixir, iris, n	eliksir	эликсир	elixir
emplastrum, i, n	malham	эмульсия	emulsion
endocrinologia, ae, f	endokrinologiya	эндокринология	hormonology

			4) incretology
Ephedra, ae, f	efedra, qizilcha	хвойник, эфедра	Ephedra
Erysimum, i, n	qirqbo'g'im	желтушник	yellow cress 2) wormseed
Erythromycinum, i, n	jeltushnik	эритромицин	erythromycin
Eucalyptus, i, f	ekvalipt	эвкалипт	peppermint
Eucommia, ae, f	evkommiya, xitoy guttapercha daraxti	эвкоммия	Eucommia
exacte	sinchiklab	тщательно	carefully, thoroughly
exactus, a, um	sinchiklab, diqqat bilan	точный, тщательный	accurate, exact, clearly
exemplar, aris, n	nusxa, namuna	образец	sample
exitus, us, m	natija, oqibat	исход	outcome, result
expectorans, ntis	balg'am ko'chiruvchi	отхаркивающий	expectorant
exsiccatus, a, um	quritilgan	высушенный	dried
exsicco, are, 1	quritmoq	высушивать	dry
extendo, ere, 3	surtmoq	намазывать	apply
extensus, a, um	surkalgan	намазанный	applied
externus, a, um	tashqi, sirtqi	наружный	externally
extraho, ere, 3	chiqarmoq, siqib chiqarmoq	извлекать	Abstract, extract
F			
Fabaceae	dukkakdoshlar	бобовидный	fabaceous
fabrico, are, 1	tayyorlamoq, tayyorlab qo'yumoq	изготавливать	prepare
factitius, a, um	sun'iy	искусственный	imitation
familia, ae, f	oila, botanik oila	семья, семейство	Family, blood line

faex, faecis, f	achitqi	дрожжи	yeast
Farfara, ae, f	oqqaldirmoq	мать-и-мачеха	coltsfoot, foalfoot
fel, fellis, n	o‘t, safro	желчь	bile; gall
Ferrum, i, n	temir	железо	iron
Filix, icis, f	raportnik, qirqquloq	папоротник	filix
Filix mas, Filicis maris	erkak raportnik	мужской папоротник	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi
№ BD
202__yil “__” _____

Sog'liqni saqlash vazirligi

2020 yil “__” _____

LOTIN TILI VA FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA ASOSLARI MODUL DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot.
100 000 - Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 510 000 – Sog'liqni saqlash.
110 000 – Pedagogika

Ta'lim yo'nalishi: 5111000 – Professional ta'lim (Farmatsevtika ishi)

Toshkent – 2020

Tuzuvchilar:

- Xudoyqulova D.K. – Toshkent Farmatsevtika instituti, Tillar kafedrası katta o`qituvchisi
- Suyundikov N.S. – Toshkent Farmatsevtika instituti, Tillar kafedrası katta o`qituvchisi
- Matyusupova Sh.B. – Toshkent Farmatsevtika instituti, Tillar kafedrası katta o`qituvchisi

Taqrizchilar:

- Xodjaeva M.A. - Toshkent Farmatsevtika instituti, Farmakognoziya kafedrası dotsenti
- Isroilova M.N. - Toshkent Davlat Stomatologiya instituti, Lotin tili kafedrası mudiri, dotsent.

Modul dasturi Toshkent farmatsevtika institutida ishlab chiqilgan.

Modul dasturi Toshkent Farmatsevtika Institut Kengashida ko`rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2020 yil “09” iyuldagi “12” - sonli bayonnoma).

Modul dasturi O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi huzuridagi tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta`limi muassasalararo Muvofiqlashtirish Kengashining 2020 yil “25” – avgustdagi “2” – sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan.

O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni Saqlash vazirligining 2020yil “____” _____dagi “____” –sonli buyrug`ining _____ - ilovasi bilan modul dasturi ro`yxati tasdiqlangan.

I. O`quv modulining dolzarbligi va oliy ta`limdagi o`rni

“Oliy ta`lim muassasalarida ta`lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora- tadbirlar to`g`risida” 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarori; O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligining 2020 yil 12 avgustdagi “Tibbiyot va farmatsevtika oliy va o`rta maxsus kasb xunar ta`lim muassasalarida ta`lim jarayonini tashkil etish bo`yicha me`yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to`g`risida” gi 209- sonli buyrug`i talablaridan kelib chiqib farmatsevtika instituti talabalariga Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari modulini dasturini yaratishda shu kungacha mavjud adabiyotlar va ta`lim texnologiyalarni qo`llash bilan birga xorijiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Mazkur tayyorlangan modul dasturi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son farmoni va O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining “O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 fevraldagi 81- sonli buyrug`ida belgilangan vazifalar, PQ-3365, PQ-4387, PQ-4708 kabi qarorlari, hamda xorijiy adabiyotlardan foydalanilgan holda ishlab chiqildi.

2. O`quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi: Talabalarni tanlagan mutaxassisligi bo`yicha o`quv reja asosida bo`lajak farmatsevt va dori vositalari sanoati bo`yicha mutaxassislarning farmatsevtik terminologiya asoslarini shakllantirish va sifatini oshirishga qaratilgan.

2.2. Modulning vazifalari: Talabalarga fanni o`zlashtirish uchun talabalarning o`zbek, rus va chet tillari bo`yicha fonetika va morfalogiya qismlari; kelajakda o`zlashtirishi rejalashtirilgan modular, kimyodan element, kislota, oksid va tuzlarning; farmakognoziya, botanikadan o`simliklar va botanik oilalar nomlari, dori turlari texnologiyasi modullarini eggalashlarida, olgan bilimlari asos bo`ladi.

Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari modulini bo`yicha 1- kursda egallagan bu ko`p qirrali atamashunoslik asoslari mohiyati yuqori kurslarda keyinroq o`qitiladigan umumkasbiy va mutaxassislik fanlarida chuqurlashtiriladi, kengayadi va boyib boradi.

2.3 Modul bo`yicha talabalarning bilim, ko`nikma va malakalariga qo`yiladigan talablar:

Talaba:

– Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari bu tilning alifbo, fonetika, morfologiya, soʻz yasovchi va leksik resurslari qadimgi yunon tilining soʻz yasovchi va leksik resurslari bilan birga tibbiy, farmatsevtik, botanik, mikrobiologiya va boshqa atamashunosliklar haqida **tasavvurga ega boʻlishlari**;

Bosh maqsadga yetishish uchun oʻqitish farmatsevtika atamashunosligi asoslariga qaratilgan boʻlishi kerak. Bu tushuncha nazariy va til amaliyoti masalalarini oʻz ichiga oladi. Oʻquv modulinini oʻzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba farmatsevtika atamashunosligining tarkibiga kiruvchi turli nomlar majmuidagi atama va nomenklatura, qisqartmalarni qoʻllay **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari modulini oʻqitib boʻlingandan soʻng talabalar:

- lotin tilidagi farmasevtik atamalarni oʻqish va yozishni bilishlari;
- grammatika elementlarini bilishlari (turlanish tizimini, otning sifat bilan moslashuvini);
- retsept va farmasevtik atamalarni lugʻatsiz tarjima qila olishlari;
- lotin tilidagi nomlar mazmun prinsplariga muvofiq holda obʻyektlarni atay bilishlari (ximik, botanik, farmokologik, farmakognostik);
- 1500 atrofda birlikdan iborat leksik minimumni xotirada uzoqroq saqlay olishlari va ularni amaliyotda qoʻllash **malakalariga ega boʻlishi kerak**

III. Asosiy qism

3.1. Modul boʻyicha maʼruza rejalashtirilmagan.

3.2. Modulda amaliy mashgʻulotlari mavzulari, tashkil etish boʻyicha umumiy koʻrsatma va tavsiyalar:

1. Lotin tili va farmatsevtik terminologiya moduliga kirish: Lotin tili alifbosi. Unli harflar. "Y" harfining qoʻllanilishi. Diftonglar. Undosh harflar
2. Harf birikmalari va qoʻsh undoshlarning oʻqilishi. Digraflar.
3. Soʻzlarning boʻgʻinlarga boʻlinishi. Urgʻu
4. Morfologiya. Soʻz turkumlari. Fe'l. Fe'llarning buyruq mayli
5. Otlar. Otlarning Grammatik kategoriyalari. I turlanishdagi otlar
6. Aniqlovchi. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar. Moslashmagan aniqlovchilarning terminlarni tarjima qilish. Yunon tilidan kirib kelgan birinchi turlanishga kiruvchi otlarning turlanishi. Predlog va boqlovchilar.
7. Retsept. Retseptning tuzilishi. Aniqlik va majhullik nisbatlari.
8. OB.II turlanishdagi otlar. Mujskoy va rod jenskiy roddagi otlar.
9. II turlanishdagi sredniy roddagi otlar

10. Yunon – lotin termin (atama) elementlari.
11. Dorivor preparatlarning nomlanishi. Fe'ning shart mayli. Fiat (fiant) fe'llarining retseptlarda qo'llanilishi.
12. Dorivor vositalarning nomenklaturasi
13. Dorivor prepratlagaga trivial nomlarni berish qoidalari
14. V tipik guruh. Dorivor vositalarning savdo nomlari
15. Murakkab dorivor preparatlarning nomlanishi
16. Sifat. I - II turlanishdagi sifatlarni I-II turlanishdagi otlar bilan moslashuvi
17. Dorivor preparatlarni ko'p bo'lakli nomlarida sifatlarni qo'llanilishi.
18. Farmatsevtik terminlar, tez-tez takrorlanadigan bo'laklar, va retseptlarni tarjima qilish
19. Botanik nomenklaturada sifatlarning ishlatilishi
20. Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomida sifatlarning ishlatilishi
21. Majhullik nisbatidagi o'tgan zamon sifatdoshi
22. VI tipik guruh. Kimyoviy nomenklatura. Kimyoviy elementlar, kislotalar va oksidlarning lotincha nomlari
23. Tuzlar nomi.
24. III turlanishdagi otlar. Undosh tip. Undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar bilan moslashuvi
25. III turlanishdagi otlar. Undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar bilan moslashuvi
26. III turlanishdagi otlar. Undosh tipdagi sredniy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi sredniy roddagi otlar bilan moslashuvi
27. Aralash tipdagi otlar
28. Unli tipdagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi unli tipdagi otlar bilan moslashuvi. Yunon - lotin termin elementlari
29. III turlanishdagi sifatlar
30. Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi. Murakkab retsept tarkibiga kiruvchi moddalar
31. Farmatsevtik termin va retseptlarni tarjima qilish
32. III turlanishdagi sifatlar
33. Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi. Murakkab retsept tarkibiga kiruvchi moddalar
34. IV va V turlanishdagi otlar
35. Retseptlarda so'zlarni qisqartirish
36. Farmatsevtik termin va retseptlarni tarjima qilish
37. Sifat darajalari. Qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlar

38. Son. Sanoq va tartib sonlar

3.2.1 Amaliy mashg`ulotlarning mavzular ro`yhati

1- mavzu. Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari moduliniga kirish

Lotin tili va farmatsevtik terminologiya moduliniga kirish: Fonetika. Lotin tili alifbosi. Unli harflar. “y” harfining qo‘llanilishi. Diftonglar. Undosh harflar

2 - mavzu. Harf birikmalari va qo‘sh undoshlarning o‘qilishi.

Digraflar, Harf birikmalari va qo‘sh undoshlarning o‘qilishi

3 - mavzu. So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi.

Bo‘g‘inlarning cho‘ziqlik va qisqalik qoidalari. Urg‘u

4 - mavzu. So‘z turkumlari. Morfologiya

Fe‘l. Fe‘l negizi. Fellarning buyruq mayli

5 - mavzu. Morfologiya. Ot

Otlarning grammatik kategoriyalari. I - turlanishdagi otlar

6 - mavzu. Aniqlovchi.

Moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar. Moslashmagan aniqlovchili terminlarni tarjima qilish. Yunon tilidan kirib kelgan I turlanishga mansub otlarning turlanishi. Predlog va bog‘lovchilar

7 - mavzu. Retsept.

Retsept tuzilishi. Aniqlik va majhullik nisbatlari. Esse - *bor bo‘lmoq* fe‘li. Gapda so‘zlarning tartibi

8 - mavzu. II turlanishdagi otlar.

Mujskoy va jenskiy roddagi otlar

9 - mavzu. II turlanish sredniy roddagi otlar.

II turlanish sredniy roddagi otlarning kelishik qo‘shimchalari

Sredniy rod otlarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Accusativus Singularis = Nominativus Singularis = **um.**

2. Accusativus Pluralis = Nominativus Pluralis = **a.**

10 - mavzu. Yunon - lotin termin (atama) elementlari

Yunon -lotin termin (atama) elementlari

Farmatsevtika atamashunosligida yunon-lotin terminlarini qo`llanilishi.

11 - mavzu. Dorivor preparatlar nomi.

Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar. Fe'llarning shart mayli. *“fiat, fiant”* fe'lining retseptlarda qo`llanilishi

12 - mavzu. Dorivor vositalar nomenklaturasi.

Dorivor vositalar nomenklaturasi, Dorivor vositalar nomenklaturasining tipik guruhlari I tipik guruh. O'simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlar nomlari II tipik guruh. O'simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo'lgan dorivor preparatlar nomlari, III tipik guruh. Organik kimyoviy moddalarning ilmiy va trivial (shartli) nomlanishi, Dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar

13 - mavzu. Dorivor preparatlarga trivial nomlarni berish qoidalari.

Dorivor preparatlarga trivial nomlarni berish qoidalari.IV tipik guruh. Dorivor moddalarning xalqaro patentlan magan nomlari. Alkaloidlar va glikozidlar nomlanishi. Vitaminlar va fermentlar nomlanishi

14 - mavzu. V tipik guruh.

Dorivor vositalar(preparatlar)ning savdo nomlari. Savdo nomlarida so'zlarning yasalishi

15 - mavzu. Murakkab dorivor preparatlarning nomlanishi Sifatlarini qo`llanilishi

Dorivor vositalar nomenklaturasi va unung tipik guruhlari; dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar mavzulari bo'yicha ma'lumotlar berish.

16 –mavzu. Sifat.

I -II turlanishdagi sifatlar. Moslashgan aniqlovchi. I -II turlanishdagi sifatlarining I, II turlanishdagi otlar bilan moslashuvi Sifatlarining kelishiklar bo'yicha turlanishi Mujskoy roddagi sifatlar II turlanish mujskoy roddagi otlar singari, jenskiy roddagi sifatlar I turlanishdagi otlar singari, sredniy roddagi sifatlar II turlanish sredniy roddagi otlar singari turlanishi.

17- mavzu. Dorivor preparatlarning ko‘p bo‘lakli nomlarida sifatlarning qo‘llanilishi.

Dorivor preparatlarning ko‘p Bo‘lakli nomlaridagi modellar. Dori vositalarining farmakologik ta‘siri boyicha guruh nomlanishi

18- mavzu. Farmatsevtik terminlar

Farmatsevtik terminlar, tez-tez takrorlanadigan bo‘laklar, va retseptlarni tarjima qilish Ya N ga tayyorgarlik.

19- mavzu. Botanik nomenklaturada sifatlarning ishlatilishi

Botanik nomenklaturada sifatlarning qo‘llanilishi; o‘simlik turini bildiruvchi sifatlari; botanik oilani bildiruvchi sifatlari bo‘yicha ma‘lumotlar berish

20- mavzu. Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomida sifatlarning ishlatilishi

Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomidagi sifatlari tegishli kasalliklarning nomlariga *-icum* va *-osum* suffikslarini qo‘shib hosil qilinadi.

Vaksina, zardob va anatoksinlar nomlarida quyidagi aniqlovchilar qo‘llanilishi

21- mavzu. Majhullik nisbatidagi o‘tgan zamon sifatsoshi

Lotin farmatsevtika terminologiyasida ko‘pincha majhullik nisbatidagi o‘tgan zamon sifatsoshi yasalishi va ularning qo‘llanilishi.

Sifatsoshlar I-II turlanishdagi sifatlari turlanishi va otlarga rodda, sonda, kelishikda moslashishi.

22- mavzu. VI tipik guruh.

Kimyoviy nomenklatura. Kimyoviy elementlar, kislotalar va oksidlarning lotincha nomlari

23 – mavzu. Tuzlar nomi.

Asos tuzlarning nomi. Kislordsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining nomi. Natriy va kaliy tuzlarning nomi. Yunoncha old qo‘shimchali sonlar. Uglevodorodlar, uglevodorodli va kislotali radikallarning nomlanishi

24- mavzu. III turlanishdagi otlar.

Undosh tip. Undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi mujskoy roddagi otlar bilan moslashuvi

25 - mavzu. III turlanishdagi otlar.

Undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi jenskiy roddagi otlar bilan moslashuvi

26 – mavzu. III turlanishdagi otlar.

Undosh tipdagi sredniy roddagi otlar. I -II turlanishdagi sifatlarning III turlanishdagi undosh tipdagi sredniy roddagi otlar bilan moslashuvi

27 - mavzu. Aralash tipdagi otlar

Aralash tipdagi otlar yasalishi, kelishik va rodlarda moslashuvi

28 – mavzu. Unli tipdagi otlar.

I -II turlanishdagi sifatlarning III -turlanishdagi unli tipdagi otlar bilan moslashuvi. Yunon - lotin termin elementlari

29 – mavzu. III turlanishdagi sifatlari

III turlanishdagi sifatlarning kelishiklar bo'yicha turlanishi

30 – mavzu. Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifat doshi.

Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifat doshi. Murakkab retsept tarkibiga kiruvchi moddalar

31 – mavzu. Farmatsevtik termin va retseptlarni tarjima qilish

Farmatsevtik termin va retseptlarni qo'llanilishi va Nom. Gen. ga qo'yib tarjima qilish usullari.

32 – mavzu. IV va V turlanishdagi otlar

IV va V turlanishdagi otlar. Bosh va qaratqich kelishigiga qo'yib tarjima qilish.

33 – mavzu. Retseptlarda so'zlarni qisqartirish

Retseptlarda so'zlarni qisqartirish qoidalari, Retseptlarda qisqartirishga ruxsat etilgan so'z va iboralar ro'yxati

34 – mavzu. Farmatsevtik termin va retseptlarni tarjima qilish

Farmatsevtik atama va retseptlarni tarjima qilish

Grammatika bo'yicha o'zlashtirgan bilimlaringizni quyidagi savollar yordamida tekshirib ko'ring.

1. I turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?

2. I turlanishdagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

3. II turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
4. II turlanishdagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchalarini ayting.
5. III turlanishdagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchasini ayting.
6. Undosh tipga qaysi otlar kiradi?
7. Aralash tipga qaysi otlar kiradi?
8. Unli tipga qaysi otlar kiradi?
9. IV turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
10. IV turlanishdagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
11. V turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
12. V turlanishdagi otlarning kelishik qo'shimchalarini ayting.
13. I-II turlanishdagi sifatlar qaysi sifatlar kiradi?
14. I-II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
15. III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo'linadi?
16. 3 qo'shimchali, 2 qo'shimchali va 1 qo'shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
17. III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
18. Tuzlar nomi lotin tiliga qanday tarjima qilinadi?
19. Retsept nechta qismdan tashkil topadi?
20. Retseptning lotincha qismi qanday yoziladi?
21. Qanday retseptlarni bilasiz?

35 –mavzu. Sifat darajalari. Qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlar

Sifat darajalari. qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlar

Sifat darajalari

1. Oddiy daraja – Gradus positivus
2. Qiyosiy daraja – Gradus comperativus
3. Ortirma daraja – Gradus superlativus.

36 –mavzu. Son. Sanoq va tartib sonlar

Sonlar yordamida so'zlarning yasalihi

3.2.2 Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashgʻulotlarni oʻtkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashgʻulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- Oʻqituvchining innovatsion pedagogik faoliyati boʻyicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uygʻotish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qoʻlga kiritish imkoniyatini taʼminlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni oʻqitish davomida egallanadigan amaliy koʻnikmalar va kompetensiyalar

Modul davomida egallanadigan amaliy koʻnikmalar roʻyhati:

1. Lotin alifbosidagi harflarning oʻqilishi va yozilishi; unli va undosh harflar, diftonglarning talaffuzi boʻyicha maʼlumotlar berish; dars jarayonida bu mavzular boʻyicha talabalarning koʻnikma va malakalarini shakllantirish
2. Grammatik va leksik mavzular boʻyicha talabalar tomonidan oʻzlashtirilgan bilimlarni nazorat qilish; dorivor vositalar nomenklaturasi va unung tipik guruhlari; dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan boʻlaklar mavzulari boʻyicha maʼlumotlar berish, dars jarayonida bu mavzular boʻyicha talabalarning koʻnikma va malakalarini shakllantirish.
3. Ot, otlarning rodi, kelishigi, turlanishi, lugʻat shakli; I turlanishdagi otlar va ularning kelishik qoʻshimchalari boʻyicha maʼlumotlar berish; dars jarayonida bu mavzular boʻyicha talabalarning koʻnikma va malakalarini shakllantirish
4. Dorivor vositalar nomenklaturasi; vitaminlar va fermentlarning lotinchanomlanishi; dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan boʻlaklar” mavzulari boʻyicha maʼlumotlar berish
5. Dorivor preparatlar nomi; dorivor preparatlar nomidagi familiyalar” mavzulari boʻyicha maʼlumotlar berish, dars jarayonida bu mavzular boʻyicha talabalarning koʻnikma va malakalarini shakllantirish
6. dorivor vositalar nomenklaturasi va unung tipik guruhlari; dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan boʻlaklar mavzulari boʻyicha maʼlumotlar berish, dars jarayonida bu mavzular boʻyicha talabalarning koʻnikma va malakalarini shakllantirish.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar roʻyhati:

1. lotin tilidagi farmatsevtik atama, qisqartma va nomenklaturalarni oʻqish va yozishni bilishlari;

